

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**3.1.**

**"PSIXOLOGIYA TARIXI"  
MODULI BO'YICHA**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Qayta tayyorlash  
Yo'nalishi (maxsus kurs):**

**Tinglovchilar  
kontingenti:**

**Sport psixologiyasi**

**Oliy ma'lumotli sportchilar**

**Toshkent – 2023**

*Mazkur oliy ma'lumotli sportchilar uchun "Sport psixologiyasi" bo'yicha qayta tayyorlash maxsus o'quv kursi modulning o'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2019-yil 16 - aprelda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishchi dastur asosida ishlab chiqilgan.*

**Tuzuvchi:**

O.E.Hayitov

Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Z.P.Rasulov

Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi v.v.b, dotsent (PhD)

**Taqrizchilar:**

D. S.Karshiyeva

- TDPU "Amaliy psixologiyasi" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)

J.A. Pulatov

- Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri, dotsent (PhD)

*Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2023 yil 27-maydagi 5-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va institut ilmiy kengashining 20\_yil " " \_\_\_\_\_da o'tkazilgan yig'ilish \_\_\_\_-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsija qilingan.*

**Kafedra mudiri**

**J.Pulatov**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI .....</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....</b>
<b>V. TEST BANKI.....</b>
<b>VI. KEYSALAR BANKI.....</b>
<b>VII. GLOSSARIY .....</b>
<b>VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>

# **ISHCHI DASTUR**

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“Psixologiya tarixi” modulining maqsadi:** tinglovchilarda psixologiya tarixi metodini tushunish umumiy psixologiya va sotsiologiya predmetini tushunishga bog‘liqligini o‘rganish. Psixologiya tarixi predmetiga nisbatan mavjud nazariyalarni o‘rganish. Psixologiya tarixining boshka fanlar, psixologiyaning boshka turkumlari bilan munosabati. Ijtimoiy psixologiya predmeti tushunchasi. Tarixni tanqidiy tahlil qilish va chet el psixologiyasidagi nazariyalarning, oqimlarning mohiyatini ochib berish.

### **“Psixologiya tarixi” modulining vazifalari:**

- inson ruhiyatini psixologik tahlil etish;
- psixologiya tarixi modulining jamiyat va shaxs kamolotidagi o‘rnini tinglovchilarga tushuntirish;
- voqeа va hodisalarini psixologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etish;
- tinglovchilarni psixologiya tarixi fanining nazariy asoslari va inson taraqqiyoti qonuniyatlarini tadqiq etish uchun amaliy materiallar bilan qurollantirish;
- psixologiya tarixi modulining nazariy asoslarini tinglovchilar tomonidan ongли ravishda o‘zlashtirilishi; mazkur modul amaliyoti bilan tanishish; mustaqil bilim olish muhimligini anglash.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**“Psixologiya tarixi”** modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan ishlar doirasida tinglovchilar: psixologiya fanlar tizimi tuzilishi, ularning rivojlanish istiqboli;

- psixologik tadqiqotlarni tashkil etish, o‘tkazish metodlari va uning vositalaridan foydalana olish;
- umumiy psixologiyaning tizimlari, tamoyillari, mexanizmlari, kategoriyalari haqida **haqida tasavvurga ega bo‘lishi**;
- psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador tizimlarni;
- psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador kategoriyalarni;
- psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador mexanizmlarni;
- psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador qonuniyatlarni;
- psixologiya nazariyasi va metodologiyasiga aloqador asosiy holatlarni;
- insonlarning ish qobiliyatini oshirish va funksional holatini optimallashtirishni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- turli xil hayotiy vaziyatlarda shaxsni o‘rganishda umumiy psixologiyaning har xil usullarini qo‘llash;
- psixologik, ijtimoiy-etnik va yosh-pedagogik tadqiqotlar metodlarini qo‘llash;
- shaxsning bilish jarayonlari xususiyatlari, uning shaxslilik xususiyatlarini shakllantirish vositalarini qo‘llash **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak**.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Psixologiya tarixi” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi umumiy

tayyorgarlik, umumkasbiy tayyorgarlik va mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik blokidagi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning ta'lqidagi o'rni**

Psixologiya tarixi bo'lajak sport psixologlarini o'z kasbini puxta egallashi, barkamol inson bo'lib yetishida va yetuk mutaxassis bo'lib faoliyat ko'rsatishida ularni zarur bilimlar bilan qurollantirish uchun xizmat qiladi.

### **Modulni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogii texnologiyalar**

Psixologiya tarixi moduli dasturida ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, modulning dolzarb masalalari tinglovchilarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Mashg'ulotlarni tinglovchilar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini ta'minlashda. zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Aqliy hujum", "Loyihalash", "Klaster", "Bumerang", "Matbuot konferensiyasi" singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi va mashg'ulotlardagi ma'lumotlar multimedia vositalari yordamida taqdimot qilinadi.

### **Modul buyicha soatlar taqsimoti:**

№	Modul mavzulari	Hammasi	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari				
			Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil tayyorgarlik	
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg' ulo		
1.	Psixologiya tarixi modulining predmeti, maqsadi, vazifalari va uning psixika haqidagi ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni	4	2	2			
2.	Qadimgi sharqda psixologik karashlarning paydo bo'lishi.	2	2	2			
3.	Antik davr psixologiyasi va jon haqidagi psixologik bilimlarning vujudga kelishi.	2	4	2	2		
4.	Psixologiya ilmiy maktablari va yo'nalishlari	6	6	2	4		2
5.	Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi	4	2	2			
6.	O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi	4	4	2	2		
	<b>Jami:</b>	<b>22</b>	<b>20</b>	<b>12</b>	<b>8</b>		<b>2</b>

## **1-mavzu. Psixologiya tarixi modulining predmeti, maqsadi, vazifalari va uning psixika haqidagi ilmiy bilimlar tizimida tutgan o‘rni.**

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga: Psixologiya tarixini o‘rganishning ahamiyati. Psixologiya tarixinining predmeti, maqsadi, vazifalari. Uning psixika haqida ilmiy bilimlar tizimida tutgan o‘rni. Psixologiya tarixini davrlashtirish: birinchi davr psixologik bilimlarning falsafa va tabiatshunoslik fanlari tarkibida rivojlanishi (IV asr mill.avv.-XIX asr o‘rtalariga qadar). Ikkinci bosqich mustaqil fan sifatida rivojlanish davri (XIX asr o‘rtalari - to hozirga qadar). Psixologiya tarixi ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlari haqida. Psixologik g‘oyalarning rivojlanishi. Psixologiya tarixinining metodlari va manbalari mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

## **2-mavzu. Qadimgi sharqda psixologik qarashlarning paydo bo‘lishi.**

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga: Sharqda buyuk sivilizatsiyalar: Misr, Hindiston va Xitoy sivilizatsiyalari. Hindistonda (miloddan avval 2.000chi yillar) Vedalarning paydo bo‘lishi. Falsafiy maktablarning vujudga kelishi: Sankxya, Vedanta, Yoga, Mimansa, Nyaya, Vaysheshika). Ruh haqidagi tasavvurlar. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyatning rivojlanishi. Lao-szi, Konfutsiy va Mao szi maktablari, Abu Nasr Forobiyning (873-950 yy.) psixologik qarashlari. Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yy.)ning psixologik qarashlari. Mutafakkirning «Mineralogiya», «Geodeziya», «Xindiston», «O‘tgan avlodlar obidalari» nomli yirik asarlari ahamiyati. Buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning (980-1037 yy.) «Donishnama», «Risolai shik», «Tib qonunlari» asarlarida psixologiya sohalariga oid ma’lumotlar. Abu Ali ibn Sino umr davrlari psixologiyasi asoschisi sifatida. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot psixologiyasiga oid qarashlari va ularning bugungi kun fani uchun ahamiyati. XI asrning atoqli mutafakkiri Yusuf Xos Xojibning psixologik qarashlari. Amir Temur va ijtimoiy-psixologik fikrlari. Alisher Navoiy asarlarida psixologiya masalalari. Mirzo Bedil tomonidan oldindan belgilangan «taqdирга bayon berish» g‘oyalaring tanqid qilinishi. Imom G‘azzoliy asarlarida psixologiyaga oid qarashlarning ifodalanishi kabi tushunchalar mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

## **3-mavzu. Antik davr psixologiyasi va jon haqidagi psixologik bilimlarning vujudga kelishi.**

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga: Antik davr psixologiyasida jon haqida materialistik ta’limotlarning asosiy holatlari. Antik materializm cho‘qqisi, atomistik materializm. Demokrit va uning ustozи Livkipp dunyoqarashlari (mill.avv.U asr). Antik materializmda «jon» haqidagi ta’limotlar. Demokritning jon haqidagi tushunchasi. Epikurning jon haqidagi tasavvuri. Jonning 8 qismi haqidagi stoiklar tasavvurlari. Lukresiy jon va ruxning ajratganligi.

Ong haqida ta’limotlar. Stoiklarning affektlar ta’limotiga qo‘sghan hissalari va ularning affektlar bilan kurashishga oid tavsiyalari. Iroda va xarakter muammosi. Aflatun psixologiya haqida. Arastu ta’limotida - jon tushunchasi. Ong psixika mezoni sifatida alohida belgilanishi. Dekart ta’limotining asosi. Psixika inson ichki dunyosi sifatida. Dekart ta’limotida «jon» va «tana» tushunchasi. Dekart dualizmi (1596-1650).

Spinoza psixologiyasi (1632-1677). Spinozaning monistik ta’limoti. Falsafiy ta’limotlarda (XVII) empirik psixologiyaning yuzaga kelishi. F.Bekon - empirik psixologiya asoschisi. T.Gobbs (1588-1679) ta’limotining asosiy g‘oyalari. Djon Lokk

(1632-1704) empirik psixologiyaning otasi. Uning nazariyasi mohiyati. Lokk tomonidan 3 xil sifatning ajratilishi: birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi. D.Lokk karashlarida ong muammosi. G.Leybnis (1646-1716) psixofiziologik muammosi. Assotsionistik psixologiyaning vujudga kelishi va D.Berkli (1685-1753). D.Yum (1711-1776) «Inson tabiatni xakida traktat» (1739) va «Inson bilishini tadqiq etish» (1748) asarlarida assotsiatsiya tushunchasining rivojlantirilishi. D..Gartli (1705-1757) qarashlari. Uning psixologiyasida xoxish (istak) muammosi asosiy, xal qiluvchi o‘rin egallashi. XVIII asr fransuz psixologiyasida empirik yo‘nalishning paydo bo‘lishi. Buyuk fransuz empirik mutafakkirlari - faylasuf olimlari: J.Lametri, K.Gelvesiy, D.Didro, P.Golbax, F.Volter, E.Kondelyak, Sh.Monteske, J.J.Russo. XVIII asrda Rossiyadagi psixologik fikrlar. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida nemis klassik falsafasidagi psixologik g‘oyalari.

I.F.Gerbart (1776-1841) psixologiyasida ruhning 2 ta asosda tashkil topishi. Gerbart shogirdlari: T.Vayts (1821-1864), M.Kasarus (1824-1903) va G.Shteyntal (1823-1899). 19 asrda assotsiativ psixologiyaning rivojlanishi. Djeyms Mill (1773-1836), Aleksandr Ben (1818-1903), Gerbert Spenser (1820-1903). Rossiyada psixologik fikrlarning rivojlanishi.

#### **4-mavzu. Psixologiya ilmiy maktablari va yo‘nalishlari.**

Bu mavzuda tinglovchilarga: G.Ebbingauz (1850-1909)ning xotira haqidagi ishlari. Myuller G.Yu. (1850-1934) Ebbingauz ishlarining davomchisi ekanligi.

Chet el psixologiyasida ochiq inqiroz. Psixologiyada inqiroz. Inqirozning pozitiv mohiyati. Bixevoirizm. AQShda bixevoirizmnning vujudga kelishi. Dj.Uotson (1878-1958) talqini. «Psixologiya bixevoirist nuqtai nazari bo‘yicha» (1913) asari. Neobixevoirizm asoschilar E.Tolmen (1886-1959).

Geshtaltpsixologiya. «Geshtalt» tushuncha X.Erenfels tomonidan kiritilganligi (1890). Berlinda geshtaltpsixologiya maktabi vujudga kelishi; M.Vertgeymer, K.Koffka (1986-1941), V.Keller (1887-1967), K.Levin (1890-1947). Tadkikotlarda iroda, affektlar, extiyoj, tafakkur, idrok masalalari ifodalanishi.

Psixoanaliz maktabi. Z.Freyd (1856-1939) psixoanaliz asoschisi sifatida. Ong, ongosti, ongsizlik tushunchalari va ularning bugungi kun fanida o‘rganilganlik holati. A. Adler (1870-1937) va K.Yung. Psixikaning ongga boglik bulmagan xolda mavjudligi. Neofreydizm. K.Xorni, E.Fromm, G.Salliven g‘oyalari.

Fransuz sotsiologik maktabi. E.Dyurkgeym (1858-1917). Ibtidoiy tafakkur konsepsiyasining vujudga kelishi.

V.Diltey (1833-1911) hayot falsafasining asoschisi sifatida. Chet el psixologiyasini rivojlanishining hozirgi holati va uning muhim tendensiyalari. Kognitiv psixologiya - hozirgi zamon psixologiyasining keng tarqalgan yo‘nalishlaridan biri ekanligi. Kognitiv psixologiya manbaida Dj.Bruner,T.Saymon,P.Lindsley, D.Norman, D.R.Anderson, X.Festinger, F.Xayderlar yirik namoyandalar ekanligi. U.Nayser, D.Brodbeng, D.Payonolar ta’limoti vujudga kelishida informatsion yo‘nalishning ta’siri. Logoterapiya - hozirgi zamon ta’sirchan yunalishlaridan biri sifatida. Avstriyalik psixolog V.Frankl (1905) va uning haet mazmuni tug‘risidagi g‘oyalari hamda uning psixologiya uchun ahamiyati kabi tushunchalar mohiyati bayon qilinadi.

#### **5-mavzu. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi.**

Ushbu mavzu bo'yicha tinglovchilarga: XIX asrda sezgi organlari va nerv sistemasi fiziologiyasining rivojlanishi. Charlz Bell (1774-1842) ingliz fiziologi, anatomii-shifokori. Iogans Myuller(1801-1858) XIX- asrning taniqli fiziologi. Fiziolog Veber (1796-1878 y) va fizik G.T.Fexner(1801-1887 yy.) psixologiyada eksperimentni tatbiq qilish haqida. Fexner «Psixofizika» fanining asoschisi ekanligi.

Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida vujudga kelishi va uning ochiq inqiroz (XIX asrning 60-yillari XX-asrning 1906-10 yillari) davridagi rivojlanishi. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishida eksperimental psixologiya taraqqiyotida nemis Vilgelm Vundtning (1832-1920) o'rni. V.Vundtning psixologiya mumtoz metodlari, ya'ni kuzatish ifodalash va reaksiya metodlarini kashf etishi hamda rivojlantirishi. Vundtning 1879 yili Leypsigda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasi tashkil qilganligi.

I.M.Sechenovning (1829-1905) psixologiya fani, vazifalari va psixika haqidagi yangicha tasavvurlari. K.D.Kavelin (1818-1885) yozuvchn, yurist, faylasuf. Fanlar tizimida psixologiyaning ijtimoiy fanlardan biri ekanligi.

Psixologiyaning mustakil fan sifatida paydo bulish davrida E.Titchenerning nazariy ziddiyatlari (1867-1927) A.Meynong (1853-1920) predmet nazariyasini vujudga kelishi. Avstriyalik psixolog X.Erenfels (1859-1932) geshtaltning bir butunligi haqidagi farazlarning eksperimental asoslaganligi. N.L.Grot (1852-1899) Rossiyada ilk bor psixologiya va falsafa masalalari bo'yicha maxsus jurnalga asos solganligi. G.I.Chelpanov (1862-1936)ning psixologiya instituta tashkil qilganligi. N.N.Lange (1858-1921) eksperimental psixologiyaning asoschisi sifatida. V.M.Bexterev (1857-1927) rossiyada birinchi tashkil etilgan eksperimental psixologiya laboratoriyasining asoschisi ekanligi (1885) tushuntiriladi.

## **6-mavzu. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi.**

Ushbu mavzu bo'yicha tinglovchilarga: M.Voxidovning psixologiya faniga qo'shgan hissasi. M.G.Davletshin maktabi. E.G'.G'oziev komil inson konsepsiysi. G'.B. Shoumarov, V.M.Karimovalarining ijtimoiy va etnopsixologiya maktabi, B.R.Qodirov psixofiziologiyani, R.Z.Gaynutdinov, A.Jabborovlarning yosh va pedagogik psixologiya sohasini, Sh.Baratov, Z.T.Nishonovalarning psixologik xizmat ko'rsatish sohasiga qo'shgan hissasi O'zbekistonda psixologiya fani bo'yicha ilmiy izlanishlar yo'nalishlari.

L.Ye.Lebedyanskaya, P.A.Rudik, Z.G.Gapparovlarning sport psixologiyasini rivojlanishiga qo'shgan hissasi kabi tushunchalar mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

### **Amaliy mashg'ulotlar mazmuni**

#### **1-mavzu. Antik davr psixologiyasi va jon haqidagi psixologik bilimlarning vujudga kelishi.**

Ushbu mavzu bo'yicha tinglovchilarga: Antik davr psixologiyasida jon haqida materialistik ta'limotlarning asosiy holatlari. Antik materializm cho'qqisi, atomistik materializm. Demokrit va uning ustozи Livkipp dunyoqarashlari (mill.avv.U asr). Antik materializmda «jon» haqidagi ta'limotlar. Demokritning jon haqidagi tushunchasi. Epikurning jon haqidagi tasavvuri. Jonning 8 qismi haqidagi stoiklar tasavvurlari. Lukresiy jon va ruxning ajratganligi. Ong haqida ta'limotlar. Stoiklarning affektlar ta'limotiga qo'shgan hissalari va ularning affektlar bilan kurashishga oid tavsiyalari.

Iroda va xarakter muammosi. Stoiklarda ozodlik tushunchasi. Aflatun psixologiya haqida. Aflatun ta'limotida ruhning o'limdan keyingi hayoti xaqidagi tasavvurlar. Arastu ta'limotida - jon tushunchasi. Jon klassifikatsiyasi: o'simlik, hayvon, inson kabi tushunchalar mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi. Ong psixika mezoni sifatida alohida belgilanishi. Dekart ta'limotining asosi. Psixika inson ichki dunyosi sifatida. Dekart ta'limotida «jon» va «tana» tushunchasi. Dekart dualizmi (1596-1650). Spinoza psixologiyasi (1632-1677). Spinozaning monistik ta'limoti. Falsafiy ta'limotlarda (XVII) empirik psixologiyaning yuzaga kelishi. F.Bekon - empirik psixologiya asoschisi. T.Gobbs (1588-1679) ta'limotining asosiy g'oyalari. Djon Lokk (1632-1704) empirik psixologiyaning otasi. Uning nazariyasi mohiyati. Lokk tomonidan 3 xil sifatning ajratilishi: birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi. D.Lokk karashlarida ong muammosi. G.Leybnis (1646-1716) psixofiziologik muammosi. Assotsionistik psixologiyaning vujudga kelishi va D.Berkli (1685-1753). D.Yum (1711-1776) «Inson tabiatni xakida traktat» (1739) va «Inson bilishini tadqiq etish» (1748) asarlarida assotsiatsiya tushunchasining rivojlantirilishi. D..Gartli (1705-1757) qarashlari. Uning psixologiyasida xoxish (istak) muammosi asosiy, xal qiluvchi urin egallashi. XVIII asr fransuz psixologiyasida empirik yo'nalihsning paydo bo'lishi. Buyuk fransuz empirik mutafakkirlari - faylasuf olimlari: J.Lametri, K.Gelvessiy, D.Didro, P.Golbax, F.Volter, E.Kondelyak, Sh.Monteske, J.J.Russo. XVIII asrda Rossiyadagi psixologik fikrlar. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida nemis klassik falsafasidagi psixologik g'oyalari.

XIX asrning birinchi yarmida nemis empirik psixologiyasining paydo bo'lishi. I.F.Gerbart (1776-1841) psixologiyasida ruhning 2 ta asosda tashkil topishi. Gerbart shogirdlari: T.Vayts (1821-1864), M.Kasarus (1824-1903) va G.Shteyntal (1823-1899). 19 asrda assotsiativ psixologiyaning rivojlanishi. Djeyms Mill (1773-1836), Aleksandr Ben (1818-1903), Gerbert Spenser (1820-1903). Rossiyada psixologik fikrlarning rivojlanishi.

## **2-mavzu. Psixologiya ilmiy maktablari va yo'nalichlari.**

Ushbu mavzu bo'yicha tinglovchilarga: G.Ebbingauz (1850-1909)ning xotira haqidagi ishlari. Myuller G.Yu. (1850-1934) Ebbingauz ishlarining davomchisi ekanligi.

Psixologiyada inqiroz. Inqirozning pozitiv mohiyati. Bixevoirizm. AQShda bixevoirizmning vujudga kelishi. Dj.Uotson (1878-1958) talqini. «Psixologiya bixevoirist nuqtai nazari bo'yicha» (1913) asari. Neobixevoirizm asoschilar E.Tolmen (1886-1959).

Geshtaltpsixologiya. «Geshtalt» tushuncha X.Erenfels tomonidan kiritilganligi (1890). Berlinda geshtaltpsixologiya maktabi vujudga kelishi; M.Vertgeymer, K.Koffka (1986-1941), V.Keller (1887-1967), K.Levin (1890-1947). Tadkikotlarda iroda, affektlar, extiyoj, tafakkur, idrok masalalari ifodalananishi. Psichoanaliz maktabi. Z.Freyd (1856-1939) psichoanaliz asoschisi sifatida. Ong, ongosti, ongsizlik tushunchalari va ularning bugungi kun fanida o'r ganilganlik holati. A. Adler (1870-1937) va K.Yung. Psixikaning ongga boglik bulmagan xolda mavjudligi. Neofreydizm. K.Xorni, E.Fromm, G.Salliven g'oyalari.

Fransuz sotsiologik maktabi. E.Dyurkgeym (1858-1917). Ibtidoiy tafakkur konsepsiyasining vujudga kelishi. V.Diltey (1833-1911) hayot falsafasining asoschisi sifatida. Chet el psixologiyasini rivojlanishining hozirgi holati va uning muhim tendensiyalari. Kognitiv psixologiya - hozirgi zamon psixologiyasining keng tarqalgan yo'nalişlaridan biri ekanligi. Kognitiv psixologiya manbaida Dj.Bruner, T.Saymon, P.Lindsley, D.Norman, D.R.Anderson, X.Festinger, F.Xayderlar yirik namoyandalar

ekanligi. U.Nayser, D.Brodbeng, D.Payonolar ta'limoti vujudga kelishida informatsion yo'nalishning ta'siri. Logoterapiya - hozirgi zamon ta'sirchan yo'nalishlaridan biri sifatida. Avstriyalik psixolog V.Frankl (1905) va uning haet mazmuni tug'risidagi g'oyalari hamda uning psixologiya uchun ahamiyati kabi tushunchalar mohiyati bayon qilinadi.

### **3-mavzu. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi.**

Ushbu mavzu bo'yicha tinglovchilarga: M.Voxidovning psixologiya faniga qo'shgan hissasi. M.G.Davletshin maktabi. E.G'.G'oziev komil inson konsepsiysi. G'.B. Shoumarov, V.M.Karimovalarning ijtimoiy va etnopsixologiya maktabi, B.R.Qodirov psixofiziologiyani, R.Z.Gaynutdinov, A.Jabborovlarning yosh va pedagogik psixologiya sohasini, Sh.Baratov, Z.T.Nishonovalarning psixologik xizmat ko'rsatish sohasiga qo'shgan hissasi O'zbekistonda psixologiya fani bo'yicha ilmiy izlanishlar yo'nalishlari.

L.Ye.Lebedyanskaya, P.A.Rudik, Z.G.Gapparovlarning sport psixologiyasini rivojlanishiga qo'shgan hissasi kabi tushunchalar mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi..

### **Mustaqil tayyorgarlik mavzulari**

Mustaqil tayyorgarlik yakka tartibda yoki kichik guruhlarda bajariladi. Bunda tinglovchilar o'zlariga berilgan topshiriqlarni: psixologiya tarixining predmeti, maqsadi, vazifalari va uning psixika haqida ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni, qadimgi sharqda psixologik karashlarning paydo bo'lishi, antik davr psixologiyasi va jon haqidagi psixologik bilimlarning vujudga kelishi, psixologiya ilmiy maktablari va yo'nalishlari, psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi, O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi, Empirizm va assotsionizm: bilim va tajriba. Nemis klassik falsafasidagi psixologik g'oyalari, psixologiyaning mustakil fan sifatida tarkib topishi davridagi nazariy kurashlar, psixologiya tarixida psixoanaliz, yosh davrlari psixologiyasining vujudga kelish tarixi, Abu Ali ibn Sinoning psixologik g'oyalari tarixi, psixoanaliz «vorislari» va «to'sqinlik qiluvchilar»i, gumanistik psixologiya, psixologiyada tizimli yondashuv, Freydizmga tanqidiy yondashuv, U.Djeyms psixologiyasi va uning tanqidiy talqini, O'rta asr Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari, sport psixologiyasi fani tarixi mavzularni yoritishda mustaqil bajarib, taqdimot, himoya qiladilar.

### **Dasturning axborot-metodik ta'minoti**

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedya mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalilanildi.

# **MODULNI O‘QITISHDA**

## **FOYDALANILADIGAN INTREFAOL**

### **TA’LIM METODLARI**

**Interfaol metodlar** deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok

etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

**“Aqliy hujum” metodi** - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalari shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda-yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

**“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:**

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalari, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

**“Davra suhbati” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra

suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

### **Psixotrening mashg‘ulotlar.**

#### **O‘zini-o‘zi qabul qilish va o‘zini boshqalar tomonidan qabul qilinishini anglash xususiyatlari uchun mashqlar**

##### **“O‘zini- o‘zi tanqid” mashqi.**

Har bir kishining o‘zi haqida mustaqil fikri bor, u o‘zining takrorlanmasligi, nodirligi bilan boshqalardan ajratib turadi. Shu bilan birga beixtiyor savol tug‘iladi: boshqalar ham uning o‘zi haqidagi fikrlarini bilishadimi, boshqalar ham uni o‘zi ko‘rganidek ko‘radilarmi? Berilgan mashq bu savolga javob topishga yordam beradi. Ishtirokchilar qog‘oz varaqlarini oladilar va unga ishlarini yozadilar va uni uchta vertikal chiziq bilan bo‘ladilar.

**1-grafa:** “Men kimman?” 10ta epitet so‘z, javoblar tez yoziladi, miyaga kelgan fikrni qanday bo‘lsa shunday ifoda qilinadi.

**2-grafa:** “Bu savolga sizning ota-onangiz, tanishlaringiz qanday javob bergan bo‘lar edilar?” (ulardan bittasini tanlash mumkin).

**3-grafa:** Xuddi shu savolga guruhdan bir odam javob beradi. Kimligini, ishtirokchini tanlaydi.

Keyin har bir ishtirokchi o‘z varag‘ini oladi, javoblarini solishtiradi, bir-biriga o‘xshash joylarini ajratib chiqadi. Xatti-harakatini kuchli tomonlarini ajratib o‘tish mumkin, u uchchala grafada ham takrorlanadi . mos kelgan so‘zlar hisoblanadi. Mos kelgan so‘zlarning salmog‘i insonni qanchalik ochiqligini ko‘rsatib beradi.

### **“Hamkorni tasavvur qilish” mashqi.**

Guruhrar juft-juft bo‘lib bo‘linadilar (juftlikka notanish bo‘lgan insonlar birlashadilar). Besh daqiqa mobaynida har bir ishtirokchi o‘z hamkori bilan suhbatda u haqida ko‘proq axborotni olishi kerak. O‘zini-o‘zi taqdim qilishda quyidagi savollarni berishi mumkin: men o‘zimda nimani qadrlayman, men faxrlanadigan narsa, men nimani hammadan yaxshi bajaraman va boshqalar. Taqdimot quyidagicha tartibda o‘tadi: juftlikning bir a’zosi stulda o‘tiradi, ikkinchisi uning orqasida turadi, birinchi odamning yelkasiga qo‘lini qo‘yib, turgan odam o‘tirgan odam nomidan gapiradi, o‘zini sheringining nomi bilan ataydi. Gapirayotganning vazifasi o‘z taqdimotni bir daqiqa mobaynida gapirib o‘tishi kerak. O‘tirgan odamni taqdim etib bo‘lganidan so‘ng guruhdagi hohlagan odamga savol berishi mumkin, bularga esa u o‘tirgan odam nomidan javob beradi. Taqdimot qilinayotgan inson jarayonga qo‘shilishga haqqi yo‘q, uning vazifasi jim o‘tirish va eshitish.

### **“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi**

#### **“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.

2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.

4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy t’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

## **NAZARIY MATERIALLAR**

## **1-mavzu. Psixologiya tarixi modulining predmeti, maqsadi, vazifalari va uning psixika haqidagi ilmiy bilimlar tizimida tutgan o‘rni**

Reja:

1. *Psixologiya tarixi fanining predmeti*
2. *Psixologiya tarixi fanining vazifasi*
3. *Psixologiya tarixi fanining rivojlanish bosqichi*

### **1. Psixologiya tarixi fanining predmeti**

**Psixologiya tarixi** boshqa fanlar singari qiziqarli va mazmundor bilimlar sohasidan iborat.

**Psixologiya tarixi** - *insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo‘lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning astasekin to‘planib borishi tarixidir.* Insonning o‘zi haqidagi bilimlarni to‘plab hamda chuqurlashtirib borishidir. Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o‘rganishga bo‘lgan intilish kishilar hayotini har xil tarixiy bosqichlarda ularning qanday nazariy va amaliy ehtiyojlar bilan taqozo qilinganligini, ba’zi qonuniyatlari qanday ochilganligini bilib olamiz.

**Psixologiya tarixi** tarixiy hayotning bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlabki yakkayu-yagona bo‘lgan psixologiya qay tarzda taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlar sistemasi darajasiga ko‘tarilganligi haqida ham ma’lumot beriladi.

### **2.Psixologiya tarixi fanining vazifasi**

**Psixologiya tarixi** psixikaning yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradi. Psixologiya fani taraqqiyotga ko‘maklashadigan foydali ilmiy tekshirish metodlarini izlanish va yaratishda katta o‘rin tutadi.

Psixologiyaning butun tarixi davomida **idealizm** va **materializm** o‘rtasida kurash kechgan. Bu kurash psixologiya mohiyatini turlicha tushunadi, insondagi **psixik** va **fiziologik** hodisalarni o‘zaro munosabatlarini tushunishda hamda psixologiya predmetini tushunishda ifodalangan. Albatta psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo‘nalishlar bo‘lishiga qaramasdan bu fanning predmeti, ya’ni inson va hayvonga xos bo‘lgan psixika, psixik hayot bir xilligicha qolaveradi.

«Biz o‘zimizni o‘tmish bilan birga ko‘rishimiz kerak», chunki biz unga tayanamiz. Umumiyligi psixologiyaning predmet va metodlaridan farqli ravishda psixik voqelikni emas, uning rivojlanish tarixi haqidagi fikrlar turli davrlarda qanday bo‘lganligini o‘rganadi. Psixologik fikrning o‘zi o‘z tarixiga ega. Bu tarixning vazifasi psixika haqidagi ilmiy bilimlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini analiz qilish psixologik fikrlar taraqqiyoti davomida psixologiya fanning predmeti bo‘lib, avval ruh, keyin ong, keyin xulq-atvor hisoblanadi. Oxirgi fan hozirgi turgan bosqichda, avvalgi bosqichlarda ajratib tashlagan psixika, xulq-atvor va faoliyat birligi tiklandi. Umuman psixologiyada fikrlar taraqqiyoti hech qachon bir tekisda kechmagan. Ba’zi davrlarda u zigzaklar bilan xarakterlangan bo‘lsa, ba’zida ortga qaytgan yoki bir joyda turib qolgan. Har bir bosqich o‘z yutuq va kamchiliklariga ega bo‘lgan. Ebbengauz aytganidek, «Psixologiya uzoq o‘tmishga va qisqa tarixga ega».

Psixologiyaga oid bilimlarni rivojlanishini har xil davrlashtirish mumkin. Davrlashtirish ishiga xronologik jihatdan yondashilsa XVII asr psixologiyasiga, hududiy territorial jihatdan yondashilsa Meksika psixologiyasining tarixi, Amerika psixologiyasining tarixi kabilarga ajratish mumkin. Demak, har qanday davrlashtirish nisbiyidir. Shuni hisobga olib quyidagi davrlashtirish sxemasini ham navbatdagi variantlardan biri deb hisoblash kerak.

### **3.Psixologiya tarixi fanining rivojlanish bosqichi**

**Psixologiya tarixi 2 ta davrga ajratiladi.** Ular o‘z navbatida kichikroq davrlarga bo‘linish prinsipiga asosan tuzilgan.

1-davr. Psixologiya fanining falsafa tarkibida rivojlangan davri. Bu davrda Er.av. VI asrdan XIX asr o‘rtasigacha 2,5 ming yil davom etgan davrdir.

2-davr. Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida rivojlangan davri. Bu davr XIX asr o‘rtasidan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan davrdir.

Psixologiyaning falsafa tarkibidagi taraqqiyoti:

Eramizgacha VI asrdan eramizning V asrigacha. Psixika haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarining paydo bo‘lishi va ularning dastlabki taraqqiyoti.

V-VIII asrlar, Ruh(jon) haqidagi ta’limotning falsafiy ta’limotlar va tibbiy bilimlar bazasida rivojlanishi.

XIV-XVI asrlar. Ruh(jon) haqidagi ta’limotning anatomo-fiziologik bilimlar va XIV-XVI asrlardagi buyuk kashfiyotlar ta’sirida rivojlanishi.

XVII-XIX asrlar o‘rtalarida ongning psixologiya predmeti sifatida ajratilishi, psixologiya nazariy asoslarini shakllanishi.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatida taraqqiyoti.

XIX asrning boshidan XIX asrning 60-yillarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida tabiiy shakllanishi.

XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirlarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida paydo bo‘lishi va dastlabki taraqqiyoti.

XX asrning 10 va 30-yillari o‘rtalarida. Psixologiyada ochiq krizis.

XX asrning 20 - 30 yillari. Sobiq sovet psixologiyasining shakllanishi.

30-yillar oxiri 50-yillar. Psixologiyada krizisning pasayishi. Sobiq sovet psixologiyasi nazariy sohasi taraqqiyoti. O‘zbekistonda psixologiya fanining shakllanishi.

60-yillardan shu davrgacha psixologiyada yangi nazariy yondashishlarni izlash davri.

### **Psixologiyaning falsafa tarkibida rivojlanishi**

Xronologiya	Bosqichning mazmuni	Natija
Er.av. V-VI asrlar	Psixika haqidagi dastlabki ilmiy fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi	Ruh haqidagi fanning paydo bo‘lishi va unda 2 yunalish. Materialistik va idealistik yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi. Psixik jarayonlar sezgi idrok, xotira, tafakkur,

		affekt, iroda haqidagi ilk empirik bilimlarning paydo bo‘lishi. Tana va ruh munosabatiga har xil yondashish.
V-VIII asr	Ruh haqidagi fanning falsafiy ta’limoti doirasida tibbiy bilimlar asosida rivojlanishi	Tomistik psixologiyaning paydo bo‘lishi.
XV-XVI asr	Ruh haqida fanning anatomik-fiziologik bilimlar asosida rivojlanishini davom ettirish.	Tadqiqot ob’ekti sifatida ruhni inkor etish, «Psixologiya» terminini kiritilishi.

### **Psixologiyaning mustaqil fan bo‘lib rivojlanishi**

Xronologiya	Bosqichning mazmuni	Natija
XIX asr boshidan XIX asrning 60-yillarig acha	Psixologiya mustaqil fan ekanligini ta’kidlovchi ilk bilimlarning paydo bo‘lishi.	Nerv sistemasi va sezgi organi faoliyatini eksperimental metod bilan o‘rganila boshlashi psixofizika va psixogeometriyaning paydo bo‘lishi, sezish va idrok etish nazariyalarining kashf etilishi
XIX asrning 60-yillarid an XIX asrning oxirigacha	Psixologiyaning bevosita mustaqil fan sifatida rivojlanishi	Eksperimental metodlar psixologiyadan mustaqil o‘rin egallashi psixologiyada amaliy tadqiqotlarni paydo bo‘lishi fanda yangi tarmoqlarni vujudga kelishi
20 asrning 10-30-yilla ri	Psixologiyada ochiq krizis (inqiroz)	Chet el psixologiya maktablari, Bixevoirizm
30-50-yilla r	Inqirozning tugallanishi	Yangi tarmoqlar: genetik psixologiya, shaxs psixologiyasining paydo bo‘lishi, yangi maktablar, neobixevoirizm, neofreydizmning vujudga kelishi
60-yillar	Yangi nazariy va amaliy qidirish	Yangi yo‘nalish: gumanistik psixologiya, logopediya, kognitiv psixologiyaning paydo bo‘lishi, psixologiya predmetini tahlil qilinishi, ongsizlik masalasiga katta e’tibor, sotsial psixologiya masalalarini chuqurlashtirish

**Psixologik bilimlar taraqqiyotining butun tarixida psixologiya predmetining uchta ta’rifi mavjud; ruh (jon) haqidagi fan, ong haqidagi fan va xulq haqidagi fan.**

**Psixologiyani ruh haqidagi fan sifatida talqin qilish**, ruhni izohiy prinsip deb uning faoliyat doirasini nihoyatda cheklab qo‘ygan.

**Ongni psixologiyaning predmeti sifatida talqin qilish** va psixikaning ongi qismini tadqiqot ob’ektiga aylantirib, bir vaqtning o‘zida ong, ong ham predmet, ham izohiy prinsip bo‘lib xizmat qilgan.

**Psixologiya predmeti sifatida xulqning tanlanishi** ong psixologiyasi sub’ekt tizimini yengib, psixologiyani ob’ektiv tadqiqot yo‘liga olib chiqdi. **Lekin ayni paytda psixologiya psixika va ongi o‘z tadqiqot predmeti sifatida yo‘qotdi.** Keyingi taraqqiyot ong va xulq (faoliyat) birligi prinsipi asosida ong va faoliyatning tarixiy buzilgan aloqasi tiklanmoqda. Har qanday boshqa fanda bo‘lganidek, psixologiya ham murakkab, qarama- qarshiliklarga to‘la, ba’zan turg‘unlik, ba’zan voz kechilgan fikrlarga qaytish kabi bosqichlarni bosib o‘tgan.

Boshqa fanlarda ham bo‘lganidek, psixologiya tarixi fanlari ham shartli bo‘lib, u ba’zan o‘rganilayotgan muammoga, tadqiqotchining shaxsiy yondashishiga va boshqa sabablarga bog‘liq bo‘lgan.

Ilmiy psixologik bilimlar tarqqiyotining umumiy va asosiy qonuniyati bu g‘oyalar kurashidir. Bu kurash uzoq vaqt materializm va idealizm o‘rtasidagi kurash ko‘rinishida talqin qilinib kelindi.

Psixologiya fani taraqqiyotning muhim qonuniyati uning yagona nazariyani ishlab chiqishiga yo‘nalganligidir. Bu tendensiya psixologiyadagi ochiq krizis davrida yanada yaqqol ko‘zga tashlandi. Chunki bu davrda psixologiya uchun yagona izohiy prinsipning topilishi uning fan sifatida saqlanib qolishini ta’minlar edi. **Shu davrda paydo bo‘lgan barcha maktablar: psixoanaliz, geshtaltpsixologiya, bixevoirizm va boshqalar hammasi ana shu yagona nazariya o‘rniga da’vogarlik qildilar.** L.S.Vigotskiy bu holatni shunday ta’riflaydi: «Aniq sohalardagi xususiy kashfiyotlardan umumiyl prinsiplarning paydo bo‘lishiga va ularning butun psixologiyaga yoyilishiga va nihoyat falsafiy sistemaga, hatto dunyoqarashga aylanishiga da’vo qilingan bu g‘oyalar psixologiyada yagona nazariya maqomiga uncha mos kelmaydi. Psixologik g‘oyalar tarixiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchlari va sabablari hozirgi paytda ilmiy g‘oyalar u yoki bu fan taraqqiyotini belgilovchi omillar, ilmiy bilimlar determinatsiyasi haqida juda ko‘p munozaralar mavjud.

**I.Lakotos fanning «ichki» va «tashqi» tarixi atamasini qo‘llashni taklif qilgan.** Bunga ko‘ra fan faqat o‘zining ichki standartlari, ilmiylik mezonlari asosida rivojlanib boradi. Boshqacha aytganda, fanning rivojlanishiga faqat kognitiv faktorlargina ta’sir ko‘rsata oladi. **Bunday internalistik yondashishga eksternalistik yondashish qarama - qarshi qo‘yilib, unga ko‘ra fan tarixini ijtimoiy faktorlarsiz o‘rganib bo‘lmaydi, ijtimoiy faktorlardan fan tarixini nazariy qayta tiklashda foydalanishi lozim.** Shunga ko‘ra psixologik bilimlar taraqqiyoti tarixini tahlil qilish **birinchidan** tarixiy fan holatni yaxshi bilishni, **ikkinchidan** o‘rganilayotgan davrda fandagi alohida holatni hisobga olishni talab qiladi. **Boshqa fanlar matematika, fizika, astronomiya, tilshunoslik, fiziologiya, biologiya, etnografiya, logikaning psixologiya taraqqiyotiga ta’siri turlicha.** **Birinchidan** shu fanlar doirasida psixik hodisalar haqidagi bilimlar to‘plangan,

**ikkinchidan**, psixologiyada shu fanlarning metodlaridan foydalaniladi. **Uchinchidan** ilmiy metodologiyadan ham foydalanish hollari bo‘ladi. **Psixologiyaning boshqa fanlar bilan bunday aloqasi psixologiya hech qachon to‘la ajralgan holda rivojlana olmasligini ko‘rsatadi.** Lekin ayni paytda J.Piaje aytganidek, «psixologiyaning kelajagi birinchi navbatda uning o‘z taraqqiyotiga bog‘liqdir».

Tarixiy psixologik tadqiqotning bitta vazifasi dialektika bilan to‘la bo‘lmagan bilimni to‘la bilimga aylanish jarayonini ochib berishdan iboratdir. **M.T.Yaroshevskiy tarixiy psixologik metod sifatida kategorial yondashish prinsipini ishlab chiqdi.** U fanda uch qator konseptual birlik - empirik ma’lumotlar (faktlar), nazariy va amaliy kategoriyalarni farqlab psixik voqelikning har xil tomonlarini qayta tiklaydigan konkret - ilmiy kategoriyalarni ajratadi. Bular obraz, harakat, motiv, ruhiy-ijtimoiy munosabat, shaxs. Shu kategoriylar majmuining transformatsiya qilinishi psixologik bilimlar bosqichma - bosqich taraqqiyotni aks ettiradi.

### **Tarixiy psixologik tahlil prinsiplari**

**Tarixiy tadqiqotlardagi eng muhim prinsip - tarixiylik prinsipidir.** Bu prinsip tadqiqotchidan o‘rganilayotgan hodisaning shu davrning hamma o‘ziga xosliklari, ijtimoiy-madaniy aloqalari, uning butun konkret mazmuni bilan birga o‘rganib, o‘rganiladigan hodisaning qaytarilmasligi va noyobligini ko‘rsata olishni talab qiladi.

**Tarixiylik prinsipining tuzilishi prezentizm va antikvarizmda ko‘rinadi.** **Prezentizm** - tarixiy tadqiqotni o‘rganilayotgan davrdan faqatgina hozirgi zamon tasavvurlariga mos bo‘lgan ko‘rinishlarinigina ajratib olib o‘rganish bilan cheklanishdir. **Antikvarizm** - aksincha tarixiy o‘tmishni hozirgi zamon talablariga bog‘liq bo‘lmagan, qotib qolgan hodisa sifatida o‘rganadi. O‘tmish hodisalarini tasvirlashdagi har qanday bir yoqlamalik, sxematizm tarixiylik prinsipidan chekinishdir. Shu bilan tarixiy tadqiqotlar o‘rganilayotgan hodisalarining umumiy qonuniyatlarini topishni talab qiladi. Bu talabni bajarishni asosan mantiqiylik va tarixiylikning birligiga tayanish ta’minlaydi. Bu prinsipga ko‘ra tarixchi o‘tmish hodisasini shunchaki tasvirlab qo‘ymay, balki uni nazariy jihatdan tasavvur eta olishi kerak, ya’ni bu hodisalarda qandaydir doimiylikni topa olishi kerak. Tarixiy psixologik g‘oyalarni ijtimoiy, siyosiy yo‘nalishni g‘oyaviy mohiyatini aniqlashni talab qiladi. Bunday yondashish ilmiy konsepsiyalarning jamiyatdagi ijtimoiy rolidan ajratib o‘rganuvchi ob’ektivizm va sub’ektivizmdan farq qiladi.

Tarixiy psixologik tadqiqotlarda M.G.Yaroshevskiy ta’kidlaganidek, determinizm - sababiylilik prinsipi katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, tarixda determinizmning ko‘plab turlari paydo bo‘lgan. Mexanikadan oldin, mexanik, biodeterminizm, psixodeterminizm, sotsiodeterminizm. Bularning har biri psixik hodisalar o‘z - o‘zidan paydo bo‘ladi deb talqin qiluvchi indeterminizmga qarshi turadi.

### **Materializm va idealizm kurashi**

Ba’zi ta’limotlarga ko‘ra ikki dunyoqarash materialistik va idealistik dunyoqarashlar to‘qnashuviga ta’sir etadi. Psixologiya ijtimoiy fanlar va tabiatshunoslik fani to‘qnashuvida ekan, unda ana shu to‘qnashuv aniq ko‘rinadi. Ijtimoiy rivojlanishni bir davrda odamlar reflekslariga ega bo‘lishdi, o‘z xulqini analiz qila olgach, idealizm fikrini maxsus birlamchi haqiqat deb qabul qildi. Psixika

xususiyatlarini idealizm boshlang‘ich, hech nima bilan aniqlanmaydigan, boshqa hamma narsani tushuntira oladigan deb qabul qildi. Materializm ong va ob’ektiv haqiqat o‘rtasida umumiylilikni axtarib, ongni ob’ektiv haqiqatdan chiqqan deb o‘rgatadi.

### **Dialektika**

Haqiqatni o‘rganish qiyin va qarama-qarshi xarakterga ega. O‘rganish dialektikasining ko‘rinishlaridan biri krizis holati va ilmdagi revolyusiyadir. Psixologiya ham shu krizis va revolyusiyalardan o‘tdi.

Uzoq vaqt burjuaziya tarixshunoslarida ikki xil yondashish hukmronlik qilgan: «personalistik» va «kontekstik».

### **Personalistik yondashish**

Ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, adashishlar o‘z avtorlariga ega, ularni nomalarini tarix saqlab qoladi, shuning uchun faktni rivojlanishi oxirgi nuqtasi ayrim shaxslarni aql idrokiga bog‘liq, degan fikr paydo bo‘ldi.

### **Kontekstik yondashish**

Ko‘p faktlar shuni bildiradiki, ilmiy g‘oyalarning yo‘nalishi ob’ektiv qonunga tobe, yakka omil - o‘z zamonini namoyondasi, u o‘z zamonini intellektual iqlimida chegaralanib qolgan. Kashfiyot - uni tayyorlovchi g‘oyalarsiz bo‘lmaydi.

Kontekstik yondashishni tarafdarlaridan ko‘zga ko‘ringan amerikalik psixolog E.Borin, ilm-fan tarixi L.Tolstoyning «Urush va tinchlik» asarida ulug‘ qishilarni: «tarix qullari» deganini qo‘llab-quvvatlaydi. Ularni nomlari davrni, maktablarni, oqimlarni, muhim tarixiy epizodlarni farqlashda ishlatilgan tamg‘alardir. **Yana bir amerikalik psixolog «personalistik» va «kontekstik» yondashishlar bir-birini to‘ldiradi, deb hisoblaydi.** Tarixda ulug‘ kishilar bor, ammo ulug‘ voqealar ham bor. Ikkovlon bir-biri bilan chambarchas bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Ammo zamon ruhini roli katta, chunki inson qanchalik ulug‘ bo‘lmasin, zamon iqlimidan uzoqroq bo‘lsa, nom-nishonoiz yo‘q bo‘ladi. «Kontekst» konsepsiysi uning asosiy tushunchasini noaniqligidan muhim tushuntirish ahamiyatiga ega emas: «Intellektual iqlim», «Zamon ruhi», «Sotsial madaniy atmosfera» bunday noaniq determinantlarga murojaat qilish bizni na ilmiy fikr rivojlantirish harakatini va na ob’ektiv tarixiy logikani tushuntirishda olg‘a siljitadi. Bir konteksti ikkinchisi bilan almashtirish ilmiy natijani yo‘q qilib, «kontekst» yondashishdan qoniqmaslik psixologiyani o‘rganish tarixini boshqa usullar bilan axtarishni majbur qiladi.

### **«Juftlarni qarama-qarshiligi » prinsipi**

Psixologik g‘oyalar harakatini umumiyligi chiziqlarini aniqlashda sxemalarga asoslanilsa harakat qarama-qarshilikka ega deyiladi. Buni amerikalik tarixshunos «qarama-qarshilik jufti» deb atadi. Bir necha nazariyalar taklif qilindi. G.Merfi psixologik o‘rganishlarni XX asrning 10-20-yillarida to‘rt «qarama-qarshilik juft» larga bo‘ldi:

- 1. «struktura - funksiya »**
- 2. «qisman butun»**
- 3. «sifat - son»**
- 4. «eksprimental - statistik»**

**XX asrning 10-yillarida birinchisi hukmronlik qilgan, 20-yillarda ikkinchisi deb hisoblangan.** Amerika psixologiya jurnalini 50 yil davomida bosilib chiqqanini analiz qilib D.Bruner va G.Olbert nazariyalarini umumlashtirib:

- 1.«ratsional - empirik»
- 2.«teologik- mexanik»

3. «sifat - son» deb ajratdilar. Ular har juftni ikkinchi qismini vazni bosib chiqishini xulosa qildilar. Keyinchalik G.Olbert nazariyalarni ikki guruhga ajratdi:

- a) determinizm prinsipiiga amal qiluvchilar;
- b) shaxsnı kelajagiga orientatsiya qilishga aksentratsiya qilganlar.

### **Psixologik sistemalar supernazariya sifatida**

Psixologiyani rivojlantirishda olimlar bir xususiyatni aniqladilar, shuning uchun uning faktini va xarakteristikasini tasvirlash bilan birga sistemalar to‘g‘risidagi tushunchani kiritish kerak deb hisoblashdi. Psixologik sistemalar «supernazariya» (supernazariya) deb nomlanadi. Ularni paydo bo‘lishini bir qator mualliflar psixologiyani teoritik yetilmaganligi bilan bog‘laydilar. 1933 yilda amerikalik psixolog Edna Xaydbreder «Fan spekulyatsiyadan o‘zini tiyadi, fakt bilan tasdiqlanmagani kerak emas. Ammo psixologiya faniga yagona mustahkam sistemani yaratish uchun umuman faktlar yetarli emas» - deb yozadi.

40 yildan keyin bu fikrni yana eslab amerikalik psixologlar Melvin Marks va Vilyam Xilks u xali kuchdaligini tasdiqlashadi. Bu mualliflar fikricha, sistema funksiyaci «direktivdir». Bu sistema psixologga qaysi ob‘ektlar bilan va qaysi metod bilan ishslash kerakligini ko‘rsatadi. O‘z- o‘zicha sistemalarni xarakteristikasini «supernazariya» sifatida tasvirlab beradi xolos, uni kelib chiqishini, rolini ochmaydi. Qarama-qarshilik holatida sistemalarning har biri o‘z fanini tasdiqlar, o‘z ishslash usuliga ega edi. Shunday qilib o‘rganilayotgan qismalarning birligi yo‘q bo‘lar edi. Psixologiyani birlik sonida gapirish mumkin emas. Marienson tomonidan bosilgan kitoblar «1930 yil psixologiyalari», «1925 yil psixologiyalari» deb ataladi. O‘sha davrda psixologlar ko‘p edi va ularni soni ham ko‘payayotgan edi.

### **Paradigmal yondashish.**

Kun Tomas «Ilmiy revolyusiyalar strukturasi» kitobida ko‘pchilikni o‘ziga jalb qilgan ilmiy g‘oyalarni tabiiy harakati sistemasini ko‘rsatdi, unda harakat bir necha davrga bo‘lingan. Boshlang‘ich davrda ba’zi omillar chegarasi, muammosi usulida umumiyl kelgani yo‘q. Ammo fan ong yuqori yetilish darajasiga borganda paradigma paydo bo‘ladi, bu paradigmani aktual ilmiy amaliyatini umum qabul qilgan namunasi deb taniladi. Paradigma Kun Tomasning aytishicha, yetarli kuchga ega, shuning uchun uzoq vaqt olimlarni aqlini asir qiladi, olimlarni alternativ yo‘nalishlarini axtarishda adashtiradi. Pedagogika o‘zga qonunlarni, teoritik xulosalarni va ularni yangi masalalarini kiritadi. Vaqt kelgunicha shu fanda ishlamayotganlar ushbu paradigmaga amal qilib keldilar. To‘g‘ri kelmaydigan fikrlarni e’tirof etadilar yoki shu qonunga moslashtiradilar. Ammo bu faktlar uni kuchsizlantiradi va krizis yaratadi. Predparadigmal davrda o‘xshash davrda kelib qolnadi: maktablar kelishmovchilik, teoremlarini to‘qnashuvi,

«normal fan» davri tugaydi. Revolyusiya bo‘lib yangi paradigma hukmronlik qiladi. Paradigma tushunchasi ilmiy hamjamiyat bilan bog‘liq. Maktab va sistemalarni paydo

bo‘lishi, Kun Tomasning fikriga ko‘ra, hamjamiyatni va paradigmani buzilishi demakdir.

**D.Palermo** psixologiyaga Kun Tomasning analizini ishlatib uni tarixiy yo‘lini ikki paradigmaga ajratdi; «introspeksionistik» va

«bixevoiristik» degan fikrni aytdi. Biridan ikkinchisiga o‘tishi ilmiy revolyusiya demakdir. Hozir bixevoirizm krizis holatida, navbatda uni boshqa paradigma almashtiradi, ehtimol «**Xomikey**ning paradigmasi» dir, deydi. **L.Brikman** psixologiyani eng yangi tarixini bunday ta’riflashga qarshi chiqib, introspeksionizm ham bixevoirizm ham umuman olganda ilmiy darajada emas, ular psixologlar uchun tekshiruvchi praktika modeli bo‘lib qolmaydi deydi. Psixologiyani «paradigmal fan» deb atalishiga M.Marks va V.Xilkslar sabab bo‘ldi. Ular bu fanda bir necha paradigma harakat qiladi va ularni ichida amerikalik bixevoirist Skinnerning «operant shartlashish» paradigmasi oldinda degan fikrni bildirishdi. Bir asrda bir necha paradigmalarning harakat qilish g‘oyasi Kun Tomasning «normal fan» obrazini buzadi, paridigma to‘g‘risidagi tushunchani ham buzadi. Bu tushunchani mazmuni shundaki, jamiyat namunasini ajratib chiqarib uni atrofida hamma omillarni bir jamiyatga birlashtirishdir. Kun Tomas konsepsiyasida ijtimoiy-iqtisodiy omillarni fanni rivojlantirishga ta’sir qilishi hamda ilm fanning rivojlanish davrida vorislikni tan olmagani uchun haqqoniy tanqid qilindi.

#### «Buyruqlar konsepsiysi»

Robert Uotson Kunning paradigmal kriteriyasini qabul qilib psixologiyani predparadigmal fanlarga qo‘shdi, chunki psixologiya bu kriteriyalar ta’siriga chidamadi. Shu bilan birga Uotson psixologik o‘rganishni tuzilishida va dinamikasida boshqa variantlarini topishga urinib ko‘rdi.

Ba’zi psixologik sistemalarda «konsepsial fokus» degan fikrda Etan Brunevik «organizm va uni muhiti » umumiy sxemasidan chiqib kelib asosiy psixologik konsepsiyalarni klassifikatsiya qilishni taklif qildi. Bu sxemani asosiy komponentlari shundan iborat:

A- organizmning uzoq o‘tmishi;

V- organizm atrofidagi fizik moddalar; S- prokimal stimullar;

D- organizm;

E- to‘qimalar harakati;

J- organizmning muhitini o‘zgartirishi; Z- faoliyatni uzoq, keyinchalik faoliyati;

Bu umumiy sxemani **Brunevik** alohida tarixiy shakllangan yo‘nalishlar bilan moslashtiradi. **Strukturalizm** (psixologiyani vazifasini ongning asosiy elementlarini tanib ular orasidagi bog‘lanish strukturasini aniqlash konsepsiysi) va **geshtaltizm** (ongni butun o‘zgarishini tushuntiruvchi konsepsiya) proksimal stimullar-organizm munosabatlari bilan chegaralanib qoladilar.

Klassik bixevoirizm (psixologiya predmetini stimullarga harakat reaksiyasi deb hisoblovchi) «proksimal stimullar - proksimal reaksiyalar» bog‘lanish bilan chegaralanadi (a-A). Freydizm organizmni uzoq o‘tmishga bog‘liqligi bilan

chegaralanadi (S-0). Funksionalizm muhit ob'ektlarini ular bilan operatsiya qilish munosabatini nazarga oladi (v-A). Bu sxemani e'tiborga olib Brunevik har bir sanalgan nazariya butun jarayonni bir fragmenti deb hisoblaydi, ammo psixologiya tarixini anglash uchun Brunevik sxemasi talabga javob bermaydi: genetik sababi va nazariyalar buzilishini tushuntirib bermaydi.

«Sistematologiya» daniyalik olim **K.Madsen** fanni o‘zini ilmiy analiz qilish kerakligini gapirib psixologik nazariyalarini solishtirib o‘rganish kerakligini, uni «sistematologiya» qilishni taklif qiladi. Nazariya deb u shved faylasufi G.Gerneboden so‘ng «ilmiy tekst» yoki fikrlash (yozma, og‘zaki), metonazariya deb - shu tekstni teoritik analizini tushunamiz deydi. Tekstni yaratganda bir necha darajani taklif qiladi:

a) diskriptiv (tasvirlovchi); b)

gipotetik (tushuntiruvchi);

v) metastrata, bunda tekstni muallifi bilim, haqiqat, metod, model to‘g‘risida o‘z fikrini bildiradi.

**«Sistematologiya» asosiga Madsen «fikrlash ekanomikasini» qo‘ydi.** Bu adashtiruvchi ishonch, chunki ko‘z bilan ko‘rilgan haqiqatni bildiradi, haqiqat ilmiy bilimni mazmunini tashkil qiladi deb adashtiradi. Materialistik dialektika pozitsiyasidan psixologik o‘rganishni ilmiy kategorial analiz qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Kategoriylar - fikrni eng umumiy buzilmas, o‘zaro bog‘langan ish tashkilotchilari hisoblanadi. Ular haqiqatni faol tasvirlanishidir. Falsafiy kategoriylar ilmi (forma va mazmun, son, sifat va boshqalar) grammatik kategoriyalarga o‘xshab uzoq tarixga ega.

Konkret fanning kategoriyasiga kelganda bir fan sohasida ham yaxshi o‘rganilmagan. Ilmiy kategoriya usullari hali ishlab chiqilmagan. Kategorial yondashish ilmiy g‘oyalarni o‘rganish dinamikasi kelajakda keng imkoniyatlar ochadi. Fan tarixini muammolarini o‘rganishda kategorial yondashishni quyidagi antitezalarga to‘ldiruvchi sifatida tushuntiradi.

### **Mazmunan - formal.**

Olimning o‘z ulushini ilmgaga qo‘sishi qaytarilmas bo‘lganligi uchun tarixchini vazifasi bu ulushni maxsus xususiyatlarini tasvirlashdan iborat. Konkret voqealarni qaytadan o‘zgartirib tarixchi ularni boshqalar bilan solishtirmay, razryadga taqsimlamay baholay olmaydi. Bu ikki bo‘linmas tarixiy fikrni operatsiya qilish nazariyalarda o‘xshash emasliklari bilan aks ettirilgan. Nazariyalarda mazmuniga yoki «formasiga» e’tibor kuchaytirilgan. Bularda mazmun tarixiy qaytarilmas voqealarni moslashtirgan, formal esa prinsiplar va konstruksiyalar bilan moslashtirgan.

### **Individual - sotsial.**

**Ilmiy o‘rganish boshidan sotsialdir.** Shu bilan birga har bir o‘rganuvchi shaxs o‘z dasturiga ega va hech kim yetolmagan maqsadga intiladi. Ammo hammani boshqachaligini tan olish ma’nosiz bo‘lar edi, agar umum qabul qilingan hisobot sistemasi bo‘lmasa kategoriya sistemasi jamoani ijodi va boyligidir. Nazariyalar muallifini sanab borishi mumkin, ammo kategoriylar «tilga» o‘xshab nomsiz, ular butun olimlar tomonidan qabul qilinib har birini faoliyatiga rahbarlik qilib turgan prinsip tarkibiga va tushuntirish nuqtasiga kiradi.

Fan kategoriyasi tarixiy natijadir. Ularni mazmuni asrdan asrga o'zgaradi. Kategorial qurilish o'z rivojlanishida qator davrlarni o'tadi.

### Psixologiya tarixining metodlari

Psixologiya tarixidagi eng katta xavf bu tarixiy materialni tasvirlash bilan cheklanadigan empirizmdir. Tarixdagi empirizm faktlarga murojaat qilinganligi bilan emas, balki faktlar oldida ojizlik qilib, ularni sistemaga sololmaganligi, tushuntira olmaganligi, tekshira olmaganligi tufayli ularning o'z sifati, ilmiy qiymatini yo'qotib qo'yishi bilan xavflidir. Tarixiy tadqiqot metod va metodikalarining asosiy vazifasi manbalarni qidirib topish, tadqiqot mazmunini belgilash, fakt, nazariya, qonun tushunchalaridan iborat o'rganilayotgan materiallarni sistemalashtirishdan iboratdir.

Psixologiya tarixining asosiy metodi o'tmisil ilmiy sistemalarini tasvirlash va ularni tahlil qiluvchi nazariy rekonstruksiya metodidir. Nazariy rekonstruksiya ilmiy konsepsiylar, muammolar, tadqiqot metodlarini predmet mantiqiga mos ravishda tarixiy ketma-ketlikda reprospektiv qayta tiklash imkonini beradi. Tarixiy tadqiqot yo'naliشining bitta turi ilmiy maktablar hisoblanadi. Arxiv materiallarni o'rganish, izlanish, sharplash, izoh berish, yo'naltirishni talab qiladi.

Psixologiya tarixida intervyu metodidan ham foydalilanadi. Biografik va avtobiografik metodlar ham psixologiya tarixida ko'p qo'llaniladi. Ilmiy ishlardan sitatalar keltirish chastotasini tahlil qilish ham tarixiy psixologik metodlardan biri hisoblanadi. Tarixiy psixologik faktorga munosabatini aniqlash va ularga baho berish uchun anketa metodidan ham keng foydalilanadi.

### Psixologiya tarixining manbalari

Psixologiya tarixining manbalari bo'lib psixologik bilimlarni to'plashni aks ettiruvchi barcha materiallar eng avvalo o'tmisil psixologlarning faylasuflarning asarlari hisoblanadi. Tibbiyotga ayniksa, psixiatriya sohasiga oid bilimlar, shuningdek boshka fanlar tabiatshunoslik, jumladan fizika, ximiya, astronomiya, tilshunoslik, etnografiya, antrapologiya kabi fanlarning ma'lumotlari ham psixologiya tarixining manbai hisoblanadi.

Psixologik bilimlar to'planishini tarixiy jarayonini o'zida aks ettirgan har qanday material psixologiya tarixi manbai bo'la oladi. Bular o'tmisil faylasuflari va psixologlarning ilmiy ishlari bo'lishi mumkin. Psixologiya tarixining muhim manbai ijtimoiy praktika ya'ni tibbiyot, ta'lim va tarbiya, huquqiy praktika, moddiy ishlab chiqarish va hakozo hisoblanadi. Yana bir manbaa boshqa fanlar tabiatshunoslik, tilshunoslik, etnografiya, antropologiya va boshqalar hisoblanadi. Bundan tashqari xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, diniy falsafiy oqim va maktablar ham tarixiy psixologik faktorlarni aniqlashda, psixologik bilimlar tarixiy taraqqiyotini qayta tiklashda manbaa bo'lib xizmat qila oladi. Psixologik ta'limot insonga o'xshab qadimdan ma'lum. Inson o'z yaqinlarining xarakter va xulqiga moslashmay yashay olmas edi. Empirik anglashdan teoretik anglashga o'tish tabiiy sabablarga hamma nazorat qilingan holatlar tobeligi bilan bog'langan. Bu prinsip determinizm deb ataladi va psixikani tushuntirishda ilmiy xarakter bergen. Psixologik tushunchalarni birinchi sistemasi Aristotelni «jon to'g'risida» degan traktatida tasvirlangan. Ammo mustaqil fan bo'lib psixologiya yuz yil ilgari shakllangan, ilgari psixologiya fani falsafa deb o'rganilar edi. Dastlab unga boshqa nomlar ham berilgan:

- a) mental falsafa b)  
pnevmatologiya

Psixologiya o‘tmishni faqat bu nomlar ostidagi kitoblarda, ya’ni falsafadan axtarish xatodir, chunki psixologiya bilimi konsentratsiyasi insoniyatning aqliy ishlarini ko‘p tomonlarida uchratish mumkin edi. **Shuning uchun psixologiya tarixi (mustaqil fan bo‘lgunga qadar bo‘lgan davr) qalb to‘g‘risidagi falsafa ilmiga mos kelmaydi.**

Psixologiyaning o‘tmishi to‘g‘risidagi ma’lumotni faqat bir-biri bilan almashgan falsafa sistemasi saqlab qolmay, uni tabiiy fanlar ayniqsa biologiya meditsina, pedagogika, sotsiologiya kabi fanlar ham saqlab kolgan.

**XX asrda psixologiyani o‘tmishiga bir necha bor qiziqish kuchaydi. XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida qiziqish tobora kuchayib bordi. Bu yillar psixologiyaning uyg‘onish davri deb hisoblanadi.**

XX asr 10-yillarida psixologiyani o‘sha paytda hukmron bo‘lgan metod va fan sifatida o‘rganish sistemasi qattiq tanqid qilingan. **Bu fanning predmeti bo‘lib fenomenlar yoki ong aktlari, metodi esa o‘z-o‘zini eksperimental nazorat qilish to‘g‘risidagi tushunchadan iborat bo‘lgan.** XX asrning 30-yillari boshida psixologiya kapitalistik mamlakatlarda yana krizisga uchradi. Bundan oldingi davrni asosiy maktablari tarqaldi. Ammo u maktabning siniq parchalarida ko‘plab yangilari paydo bo‘ldi. Psixologik o‘rganishni metodologik muammolariga qiziqish kuchaydi va bir necha yirik tarixiy psixologik ishlar paydo bo‘ldi. Sobiq sovet psixologlarining ishlarida psixologik fikrni o‘sishi amerikalik va boshqa chet el tarixchilariga qaraganda boshqa g‘oyaviy - teoretik pozitsiyada ko‘ringan.

**Tayanch tushunchalar:** materializm, idealizm, tendensiya, bixevoirizm, internalistik, eksternalistik ijtimoiy faktor, kategorial yondashish.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. **Psixologiya tarixi fanining vazifalari**
2. **Psixologiya tarixi fanining davrlarga bo‘linishi**
3. **Psixologiya tarixi fanining prinsiplari**

#### **2-mavzu. Qadimgi sharqda psixologik qarashlarning paydo bo‘lishi Reja:**

1. Qadimgi Sharq mamlakatlarida jon haqidagi ta’limotlar.
2. Qadimgi Hindistonda Vedalar maktabi.
3. Xitoyda psixologik fikrlarning paydo bo‘lishi.

4. Eramizdan avvalgi V-VI asrlarda psixika haqidagi tasavvurlar.

### **1. Qadimgi Sharq mamlakatlarida jon haqidagi ta'limotlar**

Eramizgacha bir necha ming yillar oldin Sharqda Misr, Hindiston, Xitoy kabi buyuk sivilizatsiyalar paydo bo'ldi va aynan shu yerlarda boshlangan g'oyalar taraqqiyoti, hozirgi zamon ilmiy tizimining shakllanishiga olib keldi. Aynan shu mamlakatlarda jonning o'lmasligi, vujudni tashlab xohlagan tomonga yo'l olishi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keldi.

Dastavval vujudga kelgan ruh haqidagi tasavvurlardan biri tirik vujud tashqi muhitga bog'liqdir, jonning faoliyati esa o'z navbatida vujudning hayoti bilan bog'liq degan tasavvurlar edi. Eramizgacha IV ming yillikning oxirida Misrda yaratilgan "Memfis teologiyasi yodgorliklari"da psixik faoliyat mexanizmlari quyidagicha tasvirlanadi: butun dunyoning yaratuvchisi xudo Ptax odamlar nimani o'ylashmasin va nimani so'zlashmasin, ularning yuraklari va tillarini U idora qiladi. Lekin U bunday boshqarishni vujuddagi organlar tizimi orqali amalga oshiradi. Sezgi organlarining ahamiyati shuki, "Xudolar ko'zning ko'rishini, qulquning eshitishini, burunning nafas olishini yurakka xabar yuborishlari uchun yaratishgan". Yurak esa ongning har qanday turini paydo qiladi. Boshqacha aytganda, aynan shu davrdan boshlab ongli faoliyatning markazi yurak degan dastlabki tasavvurlar paydo bo'la boshladi.

Odamlarning bilish faoliyati markazini aniqlash uchun yuqori darajadagi empirik tadqiqotlar kerak bo'lgan. Shu bilan birga "Yodgorliklar"da so'z xaqida aytilgan fikrlar ham diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, qadimda so'z buyumning egizagi sifatida tasavvur qilingan, so'zga ega bo'lish, buyumga ega bo'lish bilan tenglashtirilgan, so'zning ilohiy qudrati borligi haqida tasavvurlar mavjud bo'lgan.

Lekin "Yodgorliklar"da "til - yurak o'ylagan narsani takrorlaydi" deyiladi. Bundan shunday mazmun chiqadiki, til so'z orqali yurakka xabar beradi, yurakning o'ylagan narsasini takrorlaydi. Bunday sababiy bog'lanish "periferik-markaz" tushunchasini aslida organizmning ichki tuzilishi bilangina izohlaydi. Izohlashning ushbu shakli esa qadimgi Sharq meditsinasini yutuqlari bilan bog'liqdir.

So'zning ilohiy qudrati haqidagi fikrlar keyinchalik turli diniy tasavvurlar doirasida yanada kengaydi. Masalan, nasroniyarning muqaddas kitobi "Injil", musulmonlarning muqaddas kitobi "Qur'oni Karim"ning Tariq surasining 13-oyatida buni ko'rishimiz mumkin. "Shak-shubhasiz u (Qur'on haq bilan botilni) ajratuvchi so'zdir" deyiladi. Hech kimga sir emaski, ijtimoiy muhitning shakllanayotgan inson shaxsiga ta'siri, ta'lim- tarbiya tizimi ham asosan so'z yordamida amalga oshiriladi.

Hamma qadimgi Sharq mamlakatlarida, keyinchalik qadimgi Gresiyada ham faoliyatning asosi sifatida qon aylanishi va undagi havo tarkibiga alohida e'tibor berilgan. Qadimgi Misr meditsinasida odam jon ato qiluvchi pnevmadan quvvat oluvchi jonzot deb ta'riflanadi.

Xitoy meditsinasining manbai hisoblanadigan "Ichki a'zolar haqida" deb nomlanuvchi kitobda aytiladiki, vujudning hokimi mutlaqi yurak bo'lib, hayot faoliyatini, shuningdek psixik faoliyatni ham ta'minlovchi quvvat havosimon birikma

SI hisoblanadi. SI insonga o'ylash qobiliyatini va hissiyotni ato qiladi. O'ylash yurak funksiyasi, hissiyot esa jigarda joylashgandir.

Hind va Xitoy tabiblari temperamentni uchta asosga ko'ra farqlaganlar: havosimon birikma (pnevma yoki SI), safro va shilliq modda. Xitoy meditsinasida shunga ko'ra uchta tipdagi odamlarni ajratishgan:

1. Safro yoki qoni ko'p odamlar - kuchli va yo'lbarsdek jasur.

2. SI ko'p odamlar-harakatchan, tez yig'lab, tez kuladigan o'zini tuta olmaydigan, xulq chegarasi bo'yicha maymunga o'xshaydigan.

3. Shilliq moddasi ko'p odamlar - kam harakatli, jur'atsiz.

Hindiston va Xitoyda falsafiy yo'nalishlar eramizgacha birinchi ming yillikning o'rtalarida paydo bo'la boshlagan.

Hindiston uchun falsafiy fikrlarning asosi sifatida Vedalar xizmat qilgan. Vedalarda jon muammosi birinchi navbatda axloq nuqtai-nazaridan muhokama qilinadi. Insonning o'z-o'zini kamolotga yetkazib, to'g'ri xulq orqali komillikka yetishishi jon muammosining asosiy mag'zini tashkil qiladi. Jonning ko'chishi haqida Vedalarda atroficha fikr yuritiladi.

Hindistonda Jaynizm va Buddizm kabi diniy ta'limotlar shu yo'sinda shakllangan. Jaynizm vujudni jon erksizligining manbai deb bilsa, Buddizm jonni alohida mavjudlik deb tan olmaydi. Ularning ta'limotiga ko'ra psixik holat bu bir-birini takrorlamaydigan daqiqalar oqimi, bir- birini almashtiruvchi holatlardan iboratdir. Keyinchalik paydo bo'lgan Sankxaya, Vedanta, Yoga, Mimansa, Vaysheshika kabi falsafiy maktablarda ham jonni o'rganish asosan metafizik - axloqiy masalalarga bog'lanadi.

Vedanta ta'limoti bo'yicha "men"- alohida intuitiv ongdir, unda ob'ekt va sub'ekt yo'q, u cheksiz fazoviy ong, dunyoning asosidir.

Yoga maktabi esa ilohiyot bilan bevosa muloqotda bo'lish uchun psixik faoliyatning hamma shakllaridan foydalanish kerak deb ta'lim beradi. Yoga ichki psixik aklarni va vujud funksiyasi (vujudning fazodagi holati, nafas va boshqalarni) boshqarishni o'z ichiga oluvchi usullar tizimini ishlab chiqdi.

Psixik faoliyatni talqin qilishdagi axloqiy yo'nalish Xitoy falsafiy maktablari: daosizm asoschisi Lao-Szi va konfutsiychilik asoschisi Konfutsiy (eramizgacha 451-479 y.) maktablarida ham yaqqol ko'rindi.

Daosizm inson o'z xulq-atvorini dao postulatlari asosida ko'rishi kerak deb ta'lim bersa, konfutsiychilik - urf-odat, an'ana, axloqiy tushunchalarga e'tibor beradi. Konfutsiy birinchi marta inson psixologiyasidagi tug'ma va o'zlashtirilgan xususiyatlar muammosini ko'tardi. Uning fikricha bilim va psixik sifatlar tug'ma bo'ladi. Inson o'z tabiatiga ko'ra mehr-shafqatli bo'ladi, uni tashqi muhit buzadi. Demak muhitning zararli ta'sirini yo'qotish uchun inson fikrini jamlashi, o'z-o'zini takomillashtirishi kerak. Shu fikrni Konfutsiyning izdoshi Min-Szi (eramizgacha 372-289 y.) ham himoya qilgan. Lekin keyinchalik boshqa shu yo'nalish vakili Sun-Szi (eramizgacha 298-238 y.) kamtarlik mehr-shafqatlilik kabi ijobiy axloqiy sifatlarning tug'maligini rad etib, inson o'z tabiatiga ko'ra shafqatsiz, faqat tarbiyagina uni mehr-shafqatli qila oladi deydi. Uning fikricha, agar inson tabiatan xushfe'l bo'lsa, unda tarbiyaning nima keragi bor? Sun szi inson xarakteri kulol loydan yasagan ko'zaga o'xshaydi, deb ta'kidlagan.

Axloqiy masalalardan tashqari Hind va Xitoy falsafiy ta'limotlarida bilish faoliyati haqida ham e'tiborga sazovor fikrlar shakllangan.

Hind falsafiy adabiyotida idrokning noaniq va aniq turlari ajratiladi. Birinchisi predmetning organga bevosita tegishi natijasida yuzaga keladigan sensor-idrok bo'lsa, ikkinchisi so'zda ifodalangan, bo'laklarga bo'lingan idrokdir.

Buddistlar aniq idrok aql ta'siri bilan buzilganligi, substansiya, tur kategoriylariga amaliy maqsad ko'zlab kiritilganligi tufayli ham endi idrok bo'lmay qoladi, deb hisoblashgan.

Hind psixologik ta'limotlarida idrok illyuziyasi, gallyusinatsiyalar, tush ko'rish, shuningdek yuqori sezuvchi idrok masalalari alohida o'rin egallagan. Mimansa matabining vakili Bxatta ta'limoticha, obraz realligi va illyuziyasi tashqi ob'ekt bilan sezgi organi o'rtasidagi munosabatlar xarakteridan kelib chiqadi. Agar munosabat buzilsa illyuziya paydo bo'ladi. Buzilish periferik (sezgi organida) bo'lsa illyuziya markaziy bo'lsa gallyusinatsiya paydo bo'ladi. Tush esa ong ostidagi xotiralarning jonlanishidir.

Qadim zamonlardan beri turli madaniyatlar o'rtasida g'oyalar ayirboshlash mavjud bo'lgan, shuning uchun u yoki bu ilmiy tasavvur aynan qaysi xalq tomonidan yaratilganini aniq tasavvur etish qiyin. Psixologik g'oyalar taraqqiyoti qonuniyatlar Sharqda ham, G'arbda ham bir hil. Hamma yerda ilmiy tasavvurlarning tug'ilishi va evolyusiyasi organizmni tabiatning bir bo'lagi sifatida, tajriba yo'li bilan o'rganishdan boshlangan. Hamma yerda bu tasavvurlar g'oyaviy kurashning qiyin bosqichlarini bosib o'tgan.

Idealizm (fr. idealisme) – idealizm: falsafaning bosh masalasi – ongning borliqqa munosabati masalasida materializmga qarama-qarshi o'laroq ong, ruh birlamchi, moddiy dunyo, borliq esa ikkilamchi, ong sezgi, tasavvur va tushunchalarning mahsulidir deb da'vo qiluvchi g'ayri ilmiy falsafiy oqim.

Idealistlar materialistlarga qarama-qarshi o'laroq, psixika tan bilan yashirin yo'sinda birlashgan, inson o'lgach, tanani tashlab «narigi dunyoga», g'oyalar dunyosiga ketib, u yerda abadiy yashaydigan moddiy bo'lмаган qandaydir ilohiy substansiya yoki mohiyatning namoyon bo'lishidir deb tushunadilar.

Materializm (lot. materialis – moddiy) falsafasidagi ikki asosiy oqimdan biri, ya'ni idealizmga qarama-qarshi o'laroq, birdan bir ilmiy, tarixan progressiv dunyoqarashdir. Falsafa tafakkurning borliqqa munosabati haqidagi bosh masalasini hal qilishda materializm dunyo o'z tabiatiga ko'ra moddiyidir, materiya, tabiat, borliq, inson ongidan tashqari unga bog'liq bo'lмаган holda mavjuddir, materiya birlamchi hamda sezgilarning manbайдир, ong esa ikkilamchi, hosila narsadir, dunyoni va uning qonuniyatlarini to'liq bilish mumkin, deb ta'lim beradi.

Materializm falsafiy oqim sifatida eramizdan bir qancha asrlar avval qadimgi Hindiston, Xitoy va Gresiyada paydo bo'lgan.

Eramizdan avvalgi bir necha ming yillar ilgari Sharqda qadim sivilizatsiyalar – Misr, Hindiston, Xitoy sivilizatsiyasi tarkib topgan. Ulardagi g'oyalar asosida zamonaviy fanlar rivojlanadi.

Miloddan avvalgi bir necha ming yillikning o'rtalarida Hindiston va Xitoyda 2-ming yillikda paydo bo'lgan «Veda» matnlariga asoslanadi. Vedalarning yakuni

sifatida keyinchalik er.av 1-ming yillikda Upanishadalar paydo bo‘lgan. Ularda ruh muammosi ko‘proq etnik muammo sifatida shaxsni yetuklikka erishishining nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Shu asosda er.avvalgi 3-asrda jaynizm va buddizm dini ta’limotining mazmuni shakllandi hamda ruhiy hodisalarning tana bilan bo‘lgan munosabatiga doir o‘z qarashlarini ifoda etdi. Jaynizmda tana ruh erkinligini sababchisi deb ta’riflangan bo‘lsa, buddizmda umuman ruhni alohidaligini inkor etgan. Keyinchalik paydo bo‘lgan Sanya Vedanta, Yoga, Mimansa falsafa maktablari ham ruhni o‘rganishga metafizik etik tomondan yondashdilar. Vedantada Upanishadagi idealistik g‘oyalar ilgari surildi. Ularda Ataman va Braxman haqida fikr yuritildi. Bu fikrga ko‘ra ruh doim tananing intilishlari va hissiy kechinmalari ortida yashiringan bo‘ladi. Qat’iy intizom orqali ruh bulardan xalos bo‘lib, abadiy Braxman darajasiga yetadi. Yoga ta’limotida esa haqiqiy yuksaklikka erishish uchun psixik faoliyatga to‘sinqinlik qilayotgan tomonlarni bartaraf qilish kerak bo‘ladi deyiladi. Buning uchun yogalar maxsus 8 olamni: avval tana harakatlarini (nafas olish gavda harakatlari, keyin psixik aktlar) diqqat tafakkurini boshqarish uslublarini ishlab chiqqan. Yogalar tomonidan ishlab chiqilgan sezgi chegaralarida narsalarni idrok etish, ko‘rish, gallyusinatsiya, idrok illyuziyasi hindlarning psixologik ta’limotida katta o‘rin egallagan.

Psixik hayot davomida o‘tish davrlari muammosi G‘arbiy Yevropa faylasuflarini ko‘proq qiziqtirgan. Hech kimni hindlar kabi «men» muammosi bunchalik ko‘p o‘ylantirmagan. Masalan, Lakata ma’lumotida umuman «men» muammosi inkor qilinadi. Ular shunga asoslanadiki, sezgi a’zolarimiz bizga «men» haqida hech narsani ma’lum qilmaydi. Xulosa chiqarish yo‘li bilan olingan ma’lumotlar esa noto‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin.

Xitoydagagi materialistik oqimning yirik namoyondasi Van Chun edi. U o‘zining mashhur «Tanjidiy mulohazalar» nomli asarida tabiatshunoslik va meditsinaning o‘sha davrdagi yutuqlari asosida diniy teologik g‘oyalarni tanqid qiladi. Tabiat qonunlari inson ruhiyatini bilishda birdan bir usul ekanligini xitoylik mutafakkir Fan Chjen ham o‘z davrida ilgari surgan. U ruhning abadiy emasligi, aksincha moddiy tananing funksiyasi bo‘lgani uchun ajralmasligi va u bilan birga yo‘qolishi haqida o‘z traktida yozgan. «Tana – deb yozadi u, – ruhning materiyasi, ruh tananing funksiyasidir. Materiya uchun ruh pichoqdek o‘tkirdir, o‘tkirlik bu pichoq emas. Pichoq mavjud bo‘lmay o‘tkirlik bo‘lishi mumkin emas. Xuddi shunday ravishda tana o‘lib ruh qolishi mumkin emas» – deb ta’kidlaydi Fan Chjen. Shu bilan birga u ruh faqat ma’lum tarzda tuzilgan materiyaga xos ekanligini aytib o‘tgan.

Ma’lumki, er.av. 4-5 asrlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jamiyatning tabaqalanishi va quidorlik davlatlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu davlatlarda ruhning abadiyligini, u tanani tark etib bemalol harakatlanib yurishi mumkinligini ta’kidlovchi diniy ideologiya hukmron edi. Shu bilan birga bizgacha yetib kelgan manbalarda nafaqat diniy balki tabiiy bilimlarning asoslari ham ta’riflangan. Narsa va hodisalarni teologik, mifologik jihatdan tushuntirishga harakat qiluvchi tasavvurlar asta-sekin ratsionalizatsiyaga uchrab yangi tushunchalar bilan almasha boshladi. Xudo hali ham oliy hukmron bo‘lib hisoblansa-da, odam hayotiga o‘tkaziladigan ta’siri haqidagi qarashlar avvalgidan o‘zgarib borgan.

**Tayanch tushunchalar:** "Memfis teologiyasi yodgorliklari", pnevma yoki si, Sankxaya, Vedanta, Yoga, Mimansa, Vaysheshika, Daosizm, Lao-Szi, Konfutsiychilik.

Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik qarashlarning paydo bo'lishi.
2. Qadimgi Hindiston va Xitoydagi psixologik fikrlar.
3. Yoga, Mimansa falsafa maktablari

### **3-mavzu. Antik davr psixologiyasi. Jon haqidagi psixologik bilimlarning vujudga kelishi**

**Reja:**

1. Antik psixologiya haqida tushuncha
2. Buyuk allomalarni antik psixologiyaga qo'shgan hissalar
3. Antik dunyoda jon haqidagi tasavvurlar

#### **1.Antik psixologiya haqida tushuncha**

Qadimdan madaniy fikr va ruhiyatlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lган va rivojlangan. Shuning uchun qadimiya grek-rimliklar rivojlanishini Sharq xalqlaridan ajratib alohida o'rganib bo'lmaydi. Inson ongi rivojiana borgan sari turli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Sekin- asta ishlab chiqarish revolyusiyasi bo'ladi. Sekin-asta shahar qishloqdan, hunarmandlar qishloq xo'jaligidan ajray boshlaydilar. Insonning hayot tarzi o'zgarishi, qullarning ko'payishi, daryo yo'llarining ochilishi qadimiya greklar ongini bir necha barobar o'stiradi. Qadimiya afsonalarga ishonish, bir necha tabiiy fanlar (matematika, geografiya, astronomiya, tibbiyot) bilan tanishishi ular ongining o'sishiga, fikr yuritishiga turtki bo'ladi.

Materialistik fikrlaydigan bir necha faylasuf va olimlar yetishib chiqqan. Bularga Demokrit, Gippokrat, Anaksimanlarni misol keltirish mumkin. Ularning izlanishlari katta ahamiyatga egadir.

Eramizdan avvalgi V asrda falsafiy fikrlar markazidan biri Afina edi. Shu vaqtarda donishmandlikka o'rgatuvchi o'qituvchilar, sofistlar yo'nalishi rivojlangan. Turli muassasalarda sofistlar odamlarni donolikka, bilimdonlikka, o'z so'zlarini o'tkazishga o'rgatishar edi. Ular o'z darslarida insonning psixologik syujetlarini, insonni boshqa insonlarga munosabatlarini muhokama qilar edi. Ularning fikriga qarshi Suqrot o'z fikri bilan chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Platon va Aristotellar ilmiy asarlarida falsafiy psixologik fikrlar sistemasi inson fikrini o'sishiga katta ta'sir qilishi haqida yozganlar.

Platon Yevropa idealizmini boshlovchisi ham hisoblanadi.

Aristotel falsafasidagi psixologik fikrlarda biologik yo'nalishlar bor edi. Aristotel dunyonи aqliy fikrlari alohida insonlarda yer yuzida bo'ladigan hodisalarda yuzaga keladi deb tasdiqlaydi.

Ellistik yo'nalishi grek madaniyati bilan Sharq halqlari madaniyatini yaqinlashtiradi. Ellistik yo'nalishi falsafasiga ko'ra jamiyat turmush tarzini o'zgartirib yuboradi. Inson o'zini shaxsiy o'rnini jamiyatda topib oladi. Bir necha

madaniyat markazlari yuzaga keladi. Fanlar, texnika, tibbiyotning rivojlanishi psixologiyani fan sifatida rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Lukresiy va Galen kabi buyuk allomalarini ta'siri katta bo'lgan. Tarixda paydo bo'lgan xrestian dini insonlarni ilmiy qarashlariga qarshi chiqishda ekspluatator sinfga katta qurol vazifasini bajargan.

Psixik tabiatga oid qarashlar.

Ruh haqida afsonaviy tushunchalar hukmronlik qilgan. Har bir konkret narsalarni 2 ta yoki undan ortiq ruhi bor deb tushunilgan. Insonni atrofidagi olam shu ruhlar bilan bog'liq. Ruh haqidagi fikrlar psixologik tarixga emas, balki butun tabiatga qarashlar bilan bog'liqdir. Sekin-asta tabiatga ilmiy qarashlar orqali psixologik fikrlar ham o'zgardi va rivojlandi. Insonlar dunyoni tushunishda afsonalardan voz kecha boshladi.

Eramizdan avvalgi VI asrga kelib tabiat va insonni tushunish psixologik faoliyatda katta burilish yasadi. Qalb haqidagi greklar ta'limoti, psixologik qarashlar va ular haqidagi bilimlar juda qiziqarli edi. Qadimgi faylasuflar ruh haqidagi afsonalarga boshqacha yo'l bilan tayanishar edi.

Geraklit qalbni ta'riflashi bo'yicha: havodagi namlikni xuddi sharob ichgan odamni qalbiga o'xshatadi. Qanchalik qalbi quruq bo'lsa u kuchlidir va aqllidir. Geraklit birinchi bo'lib psixologiya tarixida organizmdagi ruhiy holatning o'zgarishini aniqlab beradi. Ruhiy holat o'zida ichki tushunishi va o'ylash, shu bilan birqalikda tushunish chegarasini, haqiqiy hayotni tushunishini belgilab beradi.

Geraklit izlanishlari nafaqat yangi hayot mazmunini, balki insonni rivojini tushuntirib beradi. Anaksagor (er.av. 500-428) olamni bir necha sifatlari har xil qismlardan tartibga solinadi deb hisoblar edi va bular ong tomonidan tartibga solinadi deb ta'kidlar edi. U inson va tabiatni o'z- o'zini boshqarishiga e'tibor beradi.

Anaksagor ongni, aqlni narsalardan tashqari yoki fazodan tashqari harakat qiladi deb ta'kidlagan. Lekin bunga Platon qarshi chiqqan. U -

«Anaksagor ong haqida gapirganda boshqa yo'lga kirib qolyapti» deb aytgan. Lekin Anaksagorning ilmiy asarlarida bunday chekinishlar yo'q. Anaksagor shunday hisoblar edi: qanchalik inson tanasi rivojlangan, to'liq bo'lsa shu organizmda aql - ong mukammal bo'ladi.

U «Inson jonzotlar ichida eng aqli hisoblanishiga sabab uni 2 ta qo'li borligidadir» deb aytib o'tgan. Lekin bu ta'limotga Aristotel qarshi chiqqan. Anaksagor fikricha, «aql», «ong» o'zida tanani ko'rsatadi. Shuning uchun qalb materialistik tomonidan ikkinchidir. Anaksagor determinizm prinsipini to'liqroq tushuntirib bergen.

Demokrit (er.av.460-370) Levkippdan keyin olamning atomistik modelini yaratdi. Butun koinotda, kenglikda, butun olamda

o'zgarmas qonunlarga binoan sharsimon bo'linmas o't atomlari harakatdadir, qaysiki ular qalbni yaratadi. Shunday qilib qalb moddalar ichida uning birturidir.

Tarqalish, yo'qolish haqidagi fizik qonun tanaga tegishlidir, shunga ko'ra Demokrit qalbning barhayotligini tan olmaydi.

Bu yo'naliishlarga qarshi qalbni barhayotligini yoki boshqa qalbga aylanishini afsonaviylikka yaqinligini yoqlab bir necha maktablar chiqdi. Qadimgi Rimda ikki maktab Pifagor va Platon maktablari. Bu maktablar qalbni doim barhayotligini, doimo

aylanib yurishini, ya’ni diniy tomondan ham ta’kidlashar edi. Bularni fikricha qalb tanaga bir jazo sifatida mahkamlab qo‘yilgan. Olamni yaratilishi Pifagor tomonidan shunday ta’riflanadi: olam narsalardan emas, balki arifmetik-geometrik strukturaga ega. Yer yuzida barcha narsalar - harakatdagi narsalarni hammasi raqamli holatlarni, qiyofani ko‘rsatadi. Qalb ham-garmoniya-tanacha qarama- qarshilik garmoniyasidir. Pifagor maktabi 200 yil yashadi. Bu maktab fikrlovchilar son yoki raqamni narsalardan ajralmas deb hisoblar edilar. Lekin sonlar narsalardan alohida ajraldi.

## **2.Buyuk allomalar ni antik psixologiyaga qo‘sghan hissalar**

Suqrot (er.av. 470-399 ) u ko‘chadami, bozordami qanaqa vaqt bo‘lishiga qaramay, insonlarni qiziqtirgan savollariga javob berardi. Suqrot boshqa faylasuflardan farq qilib, bergen maslahatiga pul olmas edi. Uning muxlislari turli kasb egalari boy yoki kambag‘al sinfidan edi. Suqrot faoliyatida suhbatdoshiga o‘zi tanlagan bir necha savollar bilan murojaat qilar va savollarga aniq to‘g‘ri javob berishga yordam berar edi.

Suqrotni shiori «O‘zingni o‘zing o‘rgan, bil» bo‘lgan, lekin bu fikri bilan Suqrot psixologiyada birinchi bo‘lib tan olish metodikasiga tayangan emas. O‘z ta’limotiga ko‘ra Suqrot o‘z ichki his-tuyg‘ularni bilishga emas, balki inson o‘z qilmishlarini o‘z yurish-turishini analiz qilishni tushuntirib berishni tushungan edi. Suqrot fikriga ko‘ra, insonni o‘z-o‘ziga munosabati intellektual axloqiy sifatlarni namoyon qiladi.

Platon (er.av. 428-348) qalbni yangicha talqinini yaratdi. Platon materializmga qarshi qarashlari falsafiy qarashlarida siyosiy tus olgan. Yoshlar materializmdan xudosizlikka yo‘liqdi va jamiyat darz ketadi deb ta’kidlar edi. Platon haqidagi bir necha asarlar to‘lig‘icha yetib kelmagan. Platon asos solgan falsafiy g‘oya boshqa zaminda rivojlandi.

Platon akademiyasiga kirishda shunday so‘zlar yozilgan edi. «Geometriyani bilmaydigan bu yerga kirmaydi». Geometrik figuralar bir tomonda seziladi, his qilinadi va ko‘riladi. Platon o‘z ustozni Suqrot o‘limidan keyin Suqrot yurtiga Janubiy Italiyaga sayohat qildi. Suqrot maktablarida bo‘lib dialektik metod suhbat qilishni o‘rgandi.

G‘oyalar birinchidan qaysiki inson yashayotgan voqealikda, ikkinchidan real emas. G‘oya-inson aql - zakovati mevasi emas, balki aql - zakovati g‘oyaga taqlid qiladi. Platon fikricha: g‘oyalar, fikrlar fazoviy ongga qarashlidir, qalb olami esa bularni hammasini - g‘oyalar va materiyalarni birlashtiradi.

Aristotel (er.av. 384-322) Platonning shogirdi bulgan. U Kichik Osiyo shaharlarida ilmiy ishlar va o‘qitish bilan shug‘ullangan. Aristotel biologiya bilan shug‘ullanar edi. U organizmga biologik, genetik yondashdi va tabiatni psixik tomonidan tushundi. Aristotel «qalb» haqida shunday fikrga keldi: qalb tirik jonzotlarning boshlanishi, tanani hayotga tayyorligini belgilaydi. Uni talqini bo‘yicha «qalbni tanadan ajratib bo‘lmaydi». «Qalb-bu to‘liq ishlovchi organizmdir». Aristotel «Qalb haqida», «Hayvonlar qismi haqida» asarlarida va kichik psixologik insholarda «xotira haqida», «tush ko‘rish haqida» o‘zini psixologik tushunchalarini yozib ko‘rsatdi.

Uni fikricha, ruh hayot prinsipi sifatida birinchi o‘rinda turadi. Ruh orqali boshqariladigan organik hodisalar, noorganik dunyoga qarama-qarshi qo‘yildi. Boshqa qutbda esa qaysiki hodisalar ulkan qobiliyat, ya’ni idrok aqlga qarama-qarshi

qo‘yilgan edi. Bu ikki yo‘nalishni birligini tiklamoq uchun Aristotel izdoshlari kurashishdi. Bu izlanishlar qadimgi Rimda falsafiy-psixologik ta’limotlarda katta ishlar qilinishiga sabab bo‘ldi. Eng katta yutuqlardan biri psixologik hodisalarni tushuntirishda Aristotel biopsixologiyasi katta yutuqqa egadir, qaysiki u o‘zida uchta yo‘nalishni birlashtirdi: Geraklit, Demokrit, Anaksagor. Aristotel jonli tabiatni organizmni turli darajada rivojlanishiga o‘xshatdi. Demokritni shogirdi, izdoshi Epikur Demokritga tushuncha, qalbni, umumbiologik hodisadan psixologik hodisalarni bir-biridan ajratib berdi. Qalb 4 elementdan tashkil topgan. Ularni har birini o‘z vazifasi bor.

Olov-issiqlik manbai  
Bug‘lanish-harakat

Shamol-sovuqqonlik  
Nomsiz element-qalb

Bular hammasi psixologik faoliyatni namoyon qiladi. Epikur shogirdi Lukresiy nomsiz materiyani nomlash uchun termin topdi. Bu-ruh qalbdan farq qiladi. Bu tushunchani Lukresiy «Ayollar tabiatini haqida» asarida harakat turini, farqini bir butun «atomli» dunyoda tushuntirib berdi. «Qalb» Lukresiy ta’rifi bo‘yicha: aktiv faoliyatli tanani o‘ziga bo‘ysundira oladi uning bundan idrok kelib chiqadi.

Keyingi qadamlardan biri bu «ong» tushunchasining kelib chiqishi. Rimlik vrach Galen ong tushunchasini har tomonlama tushuntirib berishga harakat qildi. Nerv-psixologik faoliyatni analizida bizga tanish «pnevma» bo‘ladi. Stoiklar (ta’sirida tarbiyalangan Galen) pnevmani 2ga ajratishar edi. «Psixik» va «o‘suvchi» sezgi organlariga ta’sir organidagi «psixologik pnevmani» holatini o‘zgartiradi, lekin bu shaxsni o‘z-o‘ziga hisob berishiga kamlik qiladi. Qalb yuqoriga xudoga yoki pastga material dunyoga yo‘nalmaydi, balki o‘ziga-o‘zi, o‘z qobiliyat faoliyatini qabul qiladi deb ta’kidlagan edi Platon.

Avgustin fikri ham Platon fikriga yaqin turadi. Uning fikricha, qalbni mustaqil harakati badandan tashqari, lekin uni quroli sifatida qo‘llanilishi psixik tana bo‘lishidir. Qadimgi vaqtida qalb haqida bir necha katta izlanishlar bo‘ldi. Qalb-bu olov, havo raqam harakatlanuvchi. Qalb deganda inson yashash uchun kerakli narsalar emas, balki butun tirikchilik, hayot tushuntirilgan. Hozirgi zamon tili bilan gapirganda psixologiya fizikani bir qismi deb tushunilgan. Insonni fazo bilan uzlusiz bog‘liqligi quyidagi tushunchani aniqlar edi.

Psixika-ong-idrok.

Xotira zehn emas, bu estaliklar xolos, balki qalbni oldingi o‘zini harakatlarini eslashdir. Lekin qalb bajargan harakatlarni eslashga ega emas. Qalbga hozir bajariladigan vazifalar, sezish va intellektual harakatlar ham xosdir. Shu bilan birga Platonning fikricha, afsonalar biz uchun qimmatlidir.

Bizga psixologiya tarixi kursidan ma’lum bo‘lishicha, qadimgi grek- rimliklar hayot tarzi sekin-asta ishlab chiqarish revolyusiyasi munosabati bilan ularni ongi rivojlana borgan sari turli o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Afsonalarga ishonish esa bir qator tabiiy fanlar bilan tanishish ularni ongini yanada o‘stirishdir. Har bir davrning o‘ziga xos faylasuf va olimlari bo‘lgani tufayli, mana shu davrda Demokrit, Gippokrat, Anaksimanlar izlanishlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bundan tashqari Platon va Aristotel ilmiy asarlarida falsafiy psixologik fikrlar sistemasi inson fikrini

o'sishiga fikrlari alohida, aniq insonlarda yer yuzida bo'ladigan hodisalarda yuzaga keladi degan fikrlar mavjud edi.

Har bir olimni «qalb» haqida bergan tushuntirishlari har birimiz uchun qimmatlidir. Chunki psixologiya tarixida faqat «ruh», «qalb», «ong» talqinlarigina o'rganilmagan, balki o'sha qadimgi davrdan to biz yashab kelayotgan davrimizgacha insonlar hayotida qanday psixik (ruhiy) holatlar sodir bo'lganligi bayon etilgan. Bizning vazifamiz esa mana shu psixologiya tarixiga asoslangan holda bundan ham ko'proq izlanishlar olib borish deb o'ylaymiz.

«Psixologiya fan sifatida ruh haqidagi ta'limotdan boshlanishi kerak edi. Ruh haqidagi ta'limot odamzot tomonidan ilgari surilgan birinchi ilmiy gepoteza»dir deb yozadi L.S. Vygotskiy. Anita - ruh haqidagi qarashlar ibtidoiy jamoa davridayoq mavjud bo'lган bo'lsada er. av. asrda tabiat va inson haqidagi tasavvurlar tub burilishga uchrab, antik olamda dastlabki ruh haqidagi ilmiy farazlar paydo bo'la boshlaydi. Ilmiy psixologiya va undagi barcha muammolarning boshi shu yerdadir.

«Qaysi yo'llar bilan bormagin, baribir ruhning chegarasiga borolmaysan» degan aforizm bilan efeslik Geraklit (er. av. 530-470) individual ruh va koinot birligi g'oyasini ilgari surdi. Unga ko'ra barcha narsa asosida olov yotarkan. Organizmdagi olov uchquni psixologiyadagi - ruhdir. U «olovli va nam» holatda bo'ladi va mast odam qaerga ketayotganini bilmaydi, chunki uning psixikasi namdir» - deb yozadi Geraklit. Uning ta'kidlashicha ruh namin umumiy logos qonunlari bilan belgilanadi. Bu fikr bilan Geraklit barcha psixik hodisalar moddiy dunyo qonunlariga buysunishini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Determinizm prinsipini juda sodda ko'rinishda ta'riflamoqchi bo'ladi. Lekin uning g'oyalari psixik hayotni hamma eshiklarni ochishga kalit bo'la olmas edi. Geraklit o'zidan oldin o'tgan milet maktabi faylasuflari Fales, Anaksimandr, Anasimenlarning ruh bo'linmasligi to'g'risidagi fikrlarini izdoshi xisoblanadi.

Geraklitedagi ruh uchqunlari keyinchalik Demokrit (er.av.400-370)ning ta'limotida «olovli atomlarga» aylandi. Demokrit va uning ustozи Levkipp (er. av. 500-440) atomik materializm nazariyasini ilgari surdilar. Unga ko'ra barcha narsalar 2 ta asosdan - bo'linmas harakatchan, sharsimon va yengil atomlardan va bo'shlisolardan paydo bo'ladi. Bu atomning eng harakatchanlari, ya'ni olov atomlari ruhni hosil qiladi. Yana bir grek mutafakkiri Anaksagor (er. av. 500-428)ning barcha narsalar gameomeriy nomli mayda moddalardan tashkil topganligi va ularning aql bilan va ya'ni ruh bilan boshqarilishi to'g'risidagi fikri ham Demokritning atomik qarashlariga o'xshaydi. Sochilib ketishidan iborat fizik qonunni tana uchun ham taalluqli deb hisoblab, Demokrit ruhning abadiyligini inkor etadi. Demokrit ruhning tana harakatining sababi deb biladi. Uning yozishicha, ruh og'ir tanaga kirib harakatga keltiradi. Tana o'lgandan keyin esa u fazoda tarqalib ketadi. Biz nafas oлganimizda ruhni tashkil etuvchi atomlarni yutib nafas chiqarganda ruhimizni bir qismini tashqariga chiqarib yuboramiz. Shu tariqa ruhimiz doimo yengillashib turadi, deb hisoblaydi Demokrit. Uning fikricha hamma narsaning hatto o'likning ham ruhi bor, faqat juda kam. Demokritning bunday fikri panpsixizmga yaqinlashib qoladi. Tanadan tashqari ruh bo'lishi mumkin emas, degan umumiy hukm chiqardi. U nafaqat tana va ruh birligi balki ruhning o'zi tana ekanligini ta'kidlaydi. «Agar ruh tanani harakatlantirsa, demak uning o'zi tana qismi» deb yozadi. Demokrit, Epikur, Lukresiy, kabilar Demokrit ruh haqidagi tasavvurlarni rivojlanishini davom ettirdilar.

Lekin Epikurga ko‘ra ruh atomlardan emas, o‘zgarmas 4 elementlardan: olov - issiqlik asosi, bug‘ - harakat asosi, shamol - sovish, nomsiz 4-element - ruhdan iborat. Epikurning nomsiz elementini Lukresiy

«A», deb atadi. Shuningdek, Epikurning fikricha faqat sezish xususiyatiga ega narsalardagina ruh bo‘ladi.

Ruhni qanotli arava izvoshchiga o‘xshatish mumkin. Izvoshchi va otlar o‘rtasidagi munosabat, tana va ruh o‘rtasidagi munosabat kabitdir. Platonga ko‘ra inson ruhining 3 ta asosi bor: 1. Hayvonlar va o‘simliklarga xos aqlsiz asos. U tufayli tirik mavjudot o‘zining tana ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Ruhning mana shu qismi bilan odam sezadi, ochlik va tashnalikni sezadi. Bu asos inson ruhining katta qismini tashkil etadi. 2. Asosning intilishlariga qarshi chiqadi. 3. Asos azob va qiyinchiliklar asosidir. Bu qism bilan “odamning jahli chiqadi, g‘olib chiqish uchun qiyinchiliklarga tayyor bo‘ladi”. Platon fikriga ko‘ra, doim mana shu asoslar o‘rtasida kurash kechib, uning oqibatlari tushlarda namoyon bo‘ladi. Platonning tushlarni tushuntirishi ko‘p jihatdan zamonaviy fikrlardan biri freydizmga o‘xshab ketadi. Chunki Platon ham ularning asosida mayllar shu jumladan haqiqiy mayllar yotishini ta’kidlagan. Platon ruh tana o‘lgandan keyin ham hayot bo‘ladi deb fikr yuritadi. Uning yozishicha: "Agar ruh abadiy bo‘lsa, unda ruh haqida nafaqat bu dunyoda balki keyingi uning hayoti haqida ham qayg‘urish kerak. Platonning ruh haqidagi g‘oyasining yetakchi qismi hissiyotlardir. Unda Platon birinchi o‘rinda odamlar uchun rohatlanish hissi turmasligini aytadi. Qoramol, ot va boshqa hayvonlar uchun shundaydir, lekin odam uchun 1-o‘rin u yoqda tursin, 2-o‘rinda ham turmaydi, xatto 3-o‘rinda ham emas. Platon o‘zining «Filef» dialogida rohatlanish, azoblanish va har ikkisining bo‘lmasligi ruhning 3 xil holatidir deb aytib o‘tadi.

Antik psixologiyaning eng yuqori cho‘qqisi Aristotelning ruh haqidagi mashhur ta’limoti hisoblanadi. Mashhur faylasuf Gegel aytganidek, «biz psixologiyada ega bo‘lgan yaxshi narsalar - bu Aristoteldan olgan narsalarimizdir. Aristotel «O dushe» ya’ni «Jon haqida»» nomli traktida ruh muammosini sistemali o‘rganishga bag‘ishlangan o‘z g‘oyalarni yoritib beradi. Shimoliy Gresianing Stariga shahrida tabib oilasida tavallud topgan Aristotel 17 yoshda Platonga shogird bo‘lib tushgan. Ammo Platonning qarashlari yo‘lidan bormagan. Aristotelga ko‘ra, ruh organik tananing shakli. Bu tanani Aristotel quyidagi metafora bilan tushuntiradi: «Agar ko‘z alohida tirik mavjudot bo‘lsa, ko‘rish qobiliyati uning ruhi bo‘lar edi. Ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan ko‘z aslida ko‘z bo‘lmaydi, u faqatgina ko‘z degan nomni saqlab qoladi, xolos. Bunday nomni chizilgan yoki biror narsadan yasalgan ko‘zga ham berish mumkin. Tiriklik ruhsiz bo‘lmaydi. Ruh tanani tirik qiladi. Tananing barcha xususiyatlari o‘sish, nafas olish, fikrlash asosida ruh turadi. Boshqacha aytganda tana va boshqa organlar ruh xizmatidagi quroldir. «Tana ruh uchun mavjuddir», deb yozadi. Aristotel ruhni tanadan ajratib bo‘lmaydi» degan qat’iy xulosaga keldi. Aristotel barcha ruhning xarakter va xususiyatlarni «entelexiya» degan maxsus tushunchaga birlashtiradi. Ruh harakat qilmaydi, tana harakat qiladi, lekin bunday tana ruhlidir. Shu tariqa Aristotel Platonning tana va ruh ajralishi, ruhning qismlarga bo‘linishi haqidagi g‘oyasini o‘tkir tanqid qiladi.

### **3.Antik dunyoda jon haqidagi tasavvurlar**

Materializm g‘oyalari antik psixologiyada anatomiya va meditsinadagi yutuqlari bilan mustahkamlab qo‘yiladi. Er.av. 6-asrda yashagan tabib va faylasuf Olkmson

Krotonskiy fan tarixida bиринчи bo‘lib, fikrlarning bosh miyada tug‘ilishi to‘g‘risidagi taxminni ilgari surdi». «Meditsinaning otasi» Gippokrat (er. av. 460-377) Likseон kabi tafakkur va sezgi organi miya ekanini ta’kidlaydi. Uning yozishicha mana shu qism bilan biz fikrlaymiz, yaxshi va yomonni ajratamiz, tanamizning mana shu qismi bilan ko‘ramiz. Miya sog‘ holatda bo‘lgandagina biz sog‘ fikrlaymiz». Gippokratning ishlari orasida eng katta shuhrat keltirgani temperament haqidagi ta’limotdir. Unga ko‘ra, inson temperamentini organizmdagi 4 xil suyuqlik: miyadagi shilimshik modda, jigmoidi safro, qora taloqdagagi qora safroning nisbatini belgilab beradi. Qonning ustunligi - sangvinik temperamentiga (lot. - qon), shilimshiq modda ustunligi - flegmatik temperamentiga (grek - shilimshiq modda), safro ustunligi - xolerik temperamentiga (grek - safro, o‘t), qora safro ustunligi melanxolik temperamentiga (grek - qora safro, o‘t) to‘g‘ri keladi. I. P. Pavlovning aytishicha,

Gippokrat son-sanoqsiz variantlar ichida inson xulqini tushuntiruvchi kapital nazariyaga asos soldi. Aleksandriyada ma’lum vaqtgacha o‘liklarni yorib o‘rganishga ruxsat berilishi Aleksandriyadagi 2 ta yirik tabib olim Gerofil

va Erazistrantning yangi kashfiyotlariga sabab bo‘ldi. Ptolemyning shaxsiy tabibi Gerofil bиринчи bo‘lib, nervlar, paylar va bog‘lamlar o‘rtasidagi farqni aniqladi, ko‘zning tuzilishini batafsil tariflab berdi. Erazistrat bosh miyaning tuzilishini ta’riflab, katta yarim sharlardagi egri va bugriliklarning ko‘pligidan odam aqliy jihatdan hayvonlardan ustun

turadi degan fikrga keldi.

Bu barcha anatomo-fiziologik ma’lumotlarni rimlik tabib Klavdiy Galen (er. av. II asr) umumlashtirdi va yangilari bilan boyitdi. Uning asarlaridan 17 asrgacha keng foydalanildi. Har xil muskullarga boruvchi nervlarni kesish bilan Galen xulosaga keldiki, tananing nervsiz birorta qismi yo‘q, birorta harakat, birorta hissiyat ularning ishtirokisiz kechmaydi.

Eksperimentlar orqali Galen orqa miyaning funksiyalarini ham aniqladi. Agar orqa miyani ko‘ndalang kessa, kesilgan joydan pastda joylashgan barcha tana qismlari harakatchanligi va sezuvchanligini yo‘qotadi, degan xulosani olim asoslab berdi. Galen Gippokratning temperament ta’limotini yanada rivojlantirdi. U barcha narsalarning 4 xil holati – iliq, sovuq, quruq, va nam va 4 xil suyuqlik 13 ta temperamentni keltirib chiqaradi, degan fikrda edi. Shu temperamentlarning bittasi normal bo‘lib, 12 tasida normadan chetga chiqish mavjudligini Galen tushuntirmoqchi bo‘ldi.

Ko‘rish idrokini o‘rganishga afinalik tabib Aleksandr Vfrodiyskiy (139-211) katta hissa qo‘shdi.

Antik mutafakkirlar tomonidan to‘plangan ruh haqidagi ta’limot keyinchalik fanning shakllanishi uchun zamin yaratdi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Antik davr mutafakkirlarinnig psixologik qarashlari?
2. Aristotel asarlaridagi psixologik qarashlar?

### 3. Gippokratning temperament haqidagi ta'limoti?

## 4-MAVZU. PSIXOLOGIYA ILMIY MAKtablARI VA YO'NALISHLARI

**Reja:**

1. Psixologiya ilmiy maktablari va yo'nalishlari.
2. O'rta asr mutafakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari
3. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining psixologik qarashlari

### 1.Psixologiya ilmiy maktablari va yo'nalishlari.

Asrning eng yetuk namoyandalaridan biri, shveysariyalik olim **Albert Galler** (1708-1777) edi. Uning "Fiziologiya asoslari" asari (1757) tarixchilar tomonidan "Bu zamonaviy fiziologiya o'tmishdagi hammasidan chegara chizig'i vazifasini bajargan" deb baholandi. Galler Dekartdan o'zining fiziologiya va tibbiyotning rivojlanishdagi asriy tajribasi bilan farq qilardi. Dekart o'zining "nerv mashinasini" ko'rayotganda, Galler butun organizmni yaqqol tushuntirishga harakat qilgan. XVII asrdayoq muskul va nervlarni o'rganish, miyaning ayrim qismlarini olib tashlash, amaliyat - hammasi Dekart sxemasini tasdiqlab, uning ko'p bo'limlari haqida ikkilantirishga olib keldi. Nerv-muskul «mashinasining ayrim qismlari bir - biridan ajratib olingandagina, ishni qila olishi mumkin». Dekartning bu narsaga qo'shilishi, ular o'zining birligi bilan shu narsaga qodirdir, deb izoh berilgan. Gallerda muskul kuchi maxsus kuch deb yuritilgan. Bu mustaqil kuchdir, lekin u boshqa kuch - nerv kuchi bilan bog'liqdir. Bu fikr asosida nerv muskul tolalarini faoliyatiga undaydi degan xulosaga kelish mumkin. Bu ikkala kuch ham moddiydir va ular tabiatdagi boshqa kuchlar kabi birgalikda shunday harakat qiladi. Determinatsion ruh ta'siridan Galler, faqatgina nerv hodisalariga e'tibor beribgina qolmay, balki psixik hodisalarga ham e'tibor berish kerak deb hisoblaydi. Uning qarashlariga binoan bu hodisalar murakkab harakatlarda va boshqa voqealikda bevosita ishtirok etadi.

Galler bu murakkab harakatlarni "tuban idrok" deb yuritgan. Bu psixik hodisani Galler hayotning harakat kuchi emas, balki nerv mexanizmini ishslash elementi, tabiiy qonunlarga bo'ysunuvchi deb talqin qilgan. Gallerning fiziologik sistemasi nerv psixologik hodisalarga materialistik qarashlarning rivojlanishida bir butun muhim zvenoni tashkil etgan. Tabiat hodisasi bo'lgan inson tanasini tushuntirib, unga taalluqli bo'limgan faktorlar bilan emas, u Dekart sxemasining yangi elementlari bilan to'ldirdi. Gallerning jon mashinasini Dekartning tashuvchi kuchidan farqliroq va avtomatlashmagan sifatlarini namoyon qiladi. Bu narsa tabiiy fanlarning psixologik g'oyalari to'g'risidagi muhim siljish bo'ldi. Psixika tashkil etilgan materiya singari tushuncha degan fikrga o'tildi. Mexanika emas, balki biologiya ongning determinizmi bo'lib qoldi.

Biologiyada bu qayta yo'nalish refleks haqidagi tasavvurlarning yangi boshlanishidagi rivojlanishga sharoit yaratdi. Bu holat agar Dekart va Gartlida ko'ringan bo'lsa, u holda chex fiziologi Proxazka Gallerning yo'nalishini rivojlantirishda biologik asoslanishga erishdi. Tana faoliyati bilan psixik faoliyatni bog'liqlikda ifodalaydigan g'oya va ommaviy fiziologik tasavvur bo'lib, "umumiy sezgi"dagi miya qismlarini his qiladigan sezgi haqidagi ta'limot ko'p asrlar cho'zilgan

edi. Bu tanada «sezgi» davomli miyada rang-barang tanada, qavariq tanada, to‘rt unsurli tanada va boshqa tanalardan izladilar.

Bu qidiruvlarda Dekart fikri shu haqida aks etdiki, keng bo‘lmagan qalb uchun uncha katta bo‘lmagan miya bo‘lagi kifoya etadi, bu uni o‘z faoliyatini yurgizishga yetarlidir. Proxazka "Muskul qisqarishidagi hissiy ta’sirlarni o‘tish prinsipi bo‘yicha harakatga keltiradigan markaziy nerv sistemasining bir bo‘limi bu termin bilan ifodalanadi.

Proxazka tabiatning hamma hodisalariga xos bo‘lgan to‘g‘rilik va zaruriyat bilan paydo bo‘lgan nerv akti qonuniyati kabi refleks xarakteristikasi bilan chegaralanmaydi. U shundan kelib chiqadiki, reflektor harakatining qonuniyati oddiy fizik aks ettirishga aynan bir biriga o‘xshamaganligi uchundir.

Refleks Proxazka bo‘yicha har qanday tashqi qo‘zg‘ovchi bilan chaqirilmaydi. Balki faqat his qilishga asoslangan qo‘zg‘ovchi bilan chaqariladi. His qilish hamma joyda bilish akti bo‘ladimi, yo‘qmi faqat va faqat bitta umumiy ma’noga "hayot kompasiga" ega bo‘ladi. Bilish bilan kuzatiladigan his qilish va bilish bilan kuzatilmaydigan sezish bizga hayot ehtiyojlarini ko‘rsatib beradigan hayot kompassi bo‘lib xizmat qiladi va zaruriy ta’sirlarni keng tushunish imkoniyatini beradi. By yo‘nalishni rivojlantirib, Proxazka nafaqat his qilish, balki psixik qonuniyatni bir muncha murakkab formasini organizmni moslashtirishni hayot shartlariga bo‘ysundiradi.

Proxazka o‘zining "Fiziologiya" yoki inson haqidagi ta’limot asarida refleks haqidagi tushuncha butun nerv sistemasini butunligicha tushuntirishi zarurligini tasdiqladi. By yerda uning sxemasi bilan to‘qnashdi. Organizmning tashqi olam bilan uzlusiz bog‘liqligi dastlab mexanistik dunyoqarash prinsipidan kelib chiqdi.

Dekart o‘zining harakatlari miqdorini saqlash prinsipiga asoslandi. Bu qonun universal xarakterga zid kelmas edi. Qachonki, agar tirik tana o‘zidan quvvat ajratib chiqarmas ekan, u Dekart bo‘yicha ularni paydo qilmaydi, balki, o‘z xulqida tashqi tanaga so‘zsiz tobe bo‘ladi. Proxazka shuningdek, organizmning tabiatga bog‘liqlik g‘oyasi va u bilan chambarchas bog‘liqligiga asoslanadi. Unday bo‘lsa ham bu bog‘liqliknini asosi sifatida va bog‘liqlik harakat miqdorini saqlash qonuni emas, balki tashqi muhit taassurotiga tanlab olingan reaksiyalarni ro‘yobga chiqarish sharoitida bajariladigan tirik tanani o‘z-o‘zini himoya qilish qonuni namoyon bo‘ladi. Bu turdagि reaksiyalarni o‘z navbatida tashqi olam xususiyatini farqlash qobiliyatni va ularni organizm ehtiyojiga munosabati bo‘yicha baholash deyiladi.

Bunday qobiliyat Proxazka bo‘yicha psixik qobiliyat deb ataladi.  
Fransiyada materialistik psixologiya.

Fransiyada eng avvalo Volter (1694-1778) va Kondelyak (1715-1780) tajribali bilimlar metafizika va sxolastikaning o‘tkir tanqidchilari tomonidan fikr yuritilgan. Kondelyak o‘zining “His qilish haqidagi traktat”ida (1754) o‘z oldiga har xil hal qilingan shu vazifani qo‘ydiki, u sezgilar bilishga sof qobiliyatning dastlab boshqa narsani o‘z ichiga olmaydigan haykal modelini taklif qildi. Haykal birinchi bo‘lib his qilishni oladi. Bir hid boshqasi bilan almashadi va bu hamma narsani bilishga yetarli bo‘ladi. Dekart o‘zining qalb aktlarida tug‘ilgan g‘oyalar hisobiga munosabatda bo‘ldi, Lokk esa refleksiya hisobiga, kuchli va kutilmagan his qilish diqqatni paydo qiladi: bu his qilish yana takrorlansa, bizning oldimizda xotira paydo bo‘ladi. Ikki his

qilish solishtirish, farq, muhokama va shu kabi intellektning murakkab harakatigacha bo‘lgan yaqinlikni beradi. Har bir his qilish sezish toniga ega. U yoqimli va yoqimsiz bo‘ladi. Ijobiy va salbiy yo‘nalishdagi iroda impulsi paydo bo‘ladi.

Kondelyak haykali Dekartning jonli mashinasidan shunisi bilan farq qilardiki, uning tanasi psixik yo‘nalishlari uchun hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Kondelyak sensualizmi fenomenalistik xarakter kasb etdi.

Fransiyaning jamoatchilik hayoti sekin - asta materialistik dunyoqarashni eski tartiblarini buzishga yo‘naltirilgan xulosalarni talab qildi.

Fransuz vrachi Lametri (1709-1751) sensualizmni Dekartning jonli tanani mashina shaklidagi xulqi haqidagi ta’limoti bilan birlashtirdi. U tasdiqladiki, ikki substansiysi Dekart tomonidan bo‘linish teologlari aldash uchun o‘ylab topilgan "stilistik ayyorlik" ekanligini jon haqiqatdan ham mavjud, faqat uni tanadan ajratish mumkin emas, tana qanchalik mashina bo‘lsa, u holda odam ham uni jonli qobiliyatlar bilan bir butunlikda his etadigan, fikrlaydigan huzur-halovatga intiladigan qurilmadir. Mashina so‘zi ostida moddiy determinatsiya ko‘rinishdagi sistema ko‘zda tutilgan.

1748 yil Londonda ingliz olimi Sharkaning "Odam-mashina" deb nomlangan va o‘z nomi bilan chaqiriq sifatida yangragan traktati bosmadan chiqdi. Bu narsa go‘yo kitoblar atrofida bo‘ron ko‘tardi. Lametri traktati Fransuz filosofo-psixologik fikrlarni rivojlantrishga jangovar materializmga aylanma burilish namoyish etdi. Nerv - muskul fiziologiyasi tadqiqotlari falsafiy materializm uchun bekorga ketmadi hamda butun odam psixikasini mashina shakllilik prinsipini yoyib Lametri "portizm bilim" tana substansiyasiga olib kirdi. Lametri o‘z mehnatini Gallerga tasodifan bag‘ishladi. Materiya Lametri fikri bo‘yicha o‘zining tuzilish quvvatida fikr yuritish qobiliyatidir. Tuzilish haqidagi tushuncha determinizm prinsipi umumiy siljishda muhim siljishni simptomi bo‘ladi.

Empirizm tajribani, hissiy irodani bilishning birdan bir vositasi deb hisoblab, mantiqiy analiz va nazorat umumlashtirishning ahamiyatini kamsituvchi ta’limot.

Empirik psixologiya mavhum psixologiyaga qarama-qarshi bo‘lib, tajribaga asoslangan psixologiya hisoblanadi. Empirik psixologiyaga ko‘ra psixologiyaning predmeti ong hodisasadidir. Psixologiyaning metodi esa o‘z- o‘zini kuzatishdir. Empirik metodga ko‘ra ong hodisalarini eksperimental ravishda o‘rganish mumkin emas.

Empirik ong hodisalarini faqat assotsiatsiyalarning, eng oddiy elementlarning qo‘shilishidan iborat deb hisoblanadi.

Assotsionalizm psixik faoliyatining barcha qonuniyatlarini faqat assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi va yuzaga chiqib ketishi degan qoidani ilgari suruvchi oqim XVIII asrda Angliyada paydo bo‘lgan. Bunda materialistik oqim asoschisi Gobbs, idealistik oqim asoschisi Berkli bo‘lgan.

Olimlarning assotsiatsiya haqidagi fikrlari yangi mexanikaning ildiziga borib taqaladi.

Berkli va Yungning assotsiatsiyaning xossalariiga aylantirishga bo‘lgan urinishlarini olimlarning tartib va psixik hodisalarini moddiy-ma’naviy ilmiy dunyoqarashidan kelib chiqishi bilan isbotlamoqchi bo‘ldilar.

Ongli ravishda bir faktordan ikkinchi bir faktorga qonuniy o‘tish neyrodinamika bilan aniqlanib, bu ilmiy qarashga ideologik dunyoqarash, ijtimoiy kuchlarini ko‘tarilishini ifodalash, moddiy jihatdan psixik qo‘llashga qiziqish kiradi.

XVII va XVIII asrlarda nerv mexanizmining hech qanday real fiziologik tayanchga ega emas edi. XIX asrda fizioliyiya keskin o‘zgara boshladi, inson onging shu kungacha o‘rgangan bilimlari Dekart va Nyutonning fizikadagi yangiliklardan so‘ng keskin o‘zgaradi.

Gartliochilarining fikricha, inson miyasining psixologik to‘qimalari psixik hayotning «simfoniya»sini yaratishda real hayotning o‘zgarishi katta ta’sir ko‘rsatadi. Lekin Gartli va uning tarafdarlarini fikrini olimlar real hayotini inson o‘zining aqlidroki bilan o‘zgartirishi mumkinligi bilan inkor etadilar.

Shunday qilib, o‘tgan asrda sodir bo‘lgan hodisalar inson tanasini emas, balki inson miyasidagi aqlni natijasidir.

Buning isboti sifatida Tomas Braunning (1778-1870) “Inson ongi falsafasi haqida leksiyalar” traktatini misol qilish mumkin.

Tomas Braun asli kasbi vrach, Edingburg universiteti professori shotland falsafa mакtabiga hurmat bilan qaraydi. Braun ma’ruzalarida shotland maktabining assotsiatsiyaning yo‘nalishlari bilan sug‘orilgan bo‘lib, Ridning psixologik qiziqishlari va Berkli hamda Yungning ideologik assotsionizmidan yuqori qo‘ygan.

Shotland maktabi tarafdarlari bilan birgalikda ideologik assotsiatsiya tarafdarlari ongning psixologik o‘zgarishi faqat tashqi faktorlarga emas, balki ichki faktorlarga ham bog‘liqligini isbotlashdi. Shu faktorlar Braunning tendensiyani ikki xil yo‘nalishda sintez qilishiga sabab bo‘ladi.

Braunning assotsiativ psixoliyiya tarafdarlari tomoniga o‘tishi, uni shotland maktabi tarafdarlaridan ongning qobiliyatga, aqlga yoki kuchga qarab o‘zgarishini isbotladi.

Braunning shotland maktabi tarafdarlari idealizmga sodiq holda D.Yumning skentitsizmi va solipsistik qarashlariga qarshi borishdi.

Ular Braunning fikricha hayotni real tushunishga harakat qilishgan. «Assotsiatsiya» termini materialistik dunyoqarash ifodalaganligi uchun Braun bu terminni «sunestiya» so‘zi bilan ifodaladi.

Braun argumentatsiyasiga tanqidiy nazar bilan qaralganda, uning asosiy roli bu g‘oyalar makon va zamonni birgalikda bir-biriga bog‘lashdir.

XVIII asrning klassik assotsionizmi Nyuton mexanikasidagi kuchlarni tushuntirish hisobiga olingan. Nyutonning fizika qonunlari bilan birgalikda intellektual ishlarini tushuntirish mumkin emas edi.

Yerga tushayotgan olma haqidagi Nyuton fikrlariga bog‘lab, olmani tushuntirishda Braun assotsiatsiyani sunestiya bilan tushuntiradi. Braun assotsiatsiyani sunestiya qonunlarini birlamchi va ikkilamchi qonunlarga ajaratadi.

Birlamchi qonunda ular tajribalarga emas, balki o‘zaro ongning tafakkuriga hamda o‘zaro munosabatga bog‘liqligini ifodalaydi. Assotsiatsiyaning birlamchi qonuni zarur, ammo buning kamchiligi shundaki, kuchlarni psixik fenomenini ongda paydo bo‘lishini tushuntira olmaydi.

O'tgan asrning 20-yillarida, ya'ni Braunning ma'ruzalari chiqqan paytda Jeyms Milliyaning «Inson ongini fenomenlarining analizi» nomli kitobi 1829 yilda nashrdan chiqdi. Jeyms Milliya assotsiatsiyasi ongning tafakkuriga bog'liqligini analiz qilishni introspeksiyalash deb hisoblar edi.

Germaniyada assotsiativ psixologiya g'oyalari Gerbart (1776-1841) konsepsiyalarda ifodalangan. Bu mamalakatda Buyuk Britaniyaga nisbatan o'zgacha g'oyaviy dunyoqarash hukmron edi, bunga sabab uning tarixiy rivojlanishi edi. Shuningdek falsafiy an'analar ham asosiy rol o'ynaydi. Leybnisdan Kantgacha hamda Gegelning nemis falsafasi sub'ektning boshlang'ich aktivligi, qarama-qarshiliklar hamda uning xarakterini shaxsiy hayotga qarashini ifodalab berar edi.

Yosh avlod Fixte Shilling va Gegelning falsafiy sistemasida ilmiy dunyoqarashning ilmiy tajribalar asosida yuzaga kelishiga ishonganlar. Ko'pchilik yoshlar bu g'oyalarni inson hayotini hamda tabiatini o'zgartirishda foydalanishga harakat qiladilar.

Lekin nazariy jahatdan nemis klassik idealizmidan yuz o'girdilar. Ammo tanqidchilar bundan javob tariqasida Germaniyadagi Gerbart konsepsiyasining pedagogik tajribalari va Benekkening falsafiy xulosalarini misol qilish mumkin.

Gerbart mashhur psixologik qobiliyat egasi Kristian Volfga hamda Kantning falsafiy qarashlarga qarshi chiqib ularning g'oyalarni transsensual appersepsiya, ongning akti va hokazo bilan nomladi. Gerbart avvalgi avlodni o'qitish va tarbiyalashda yosh avlodga bemaqsad, tushunarsiz g'oyalarni o'rgatishda ayblaydi hamda qobiliyat, qiziqishga qarab psixologiyasini o'zgartirish mumkinligini tushuntiradi.

Gerbartning asosiy mehnati «Metafizika, tajriba va matematikaga asoslangan psixologiya» (1816) deb nomlangan.

Bu asrda Gerbart ruhining fanga ma'lum bo'limgan tomonlarini va bu inson ongi va psixikasiga ta'sir etishni yoritib beradi. Shuningdek, Gerbart psixodinamikadagi o'zaro qarama-qarshilikni va komplikatsiyani ifodalab beradi.

Har qanday falsafaning buyuk asosiy masalasi tafakkurning borliqqa, ruhning tabiatga munosabati masalasidir.

Gerbart har doim qanday bo'lmasin biron tarzda din bilan bog'liq bo'lgan idealizmni qat'iy suratda rad qilish bilan birga, o'sha vaqtida tarqalgan Yum va Kant nuqtai-nazarini, turli tusdagi agnostitsizm, kiritizm ham rad qildi.

Olamning birligi uning borligida emas, uning moddiyligidadir. Bu moddiylikni falsafa va tabiiyot ilmining uzoq va qiyinchilik bilan taraqqiy qilishini isbot qilib kelmoqda.

Harakat materianing borliq formasidir, hech qaerda va hech vaqt harakatsiz materiya, materiyasiz harakat bo'lgan emas va bo'la olmaydi.

Agar tafakkur va bilish nima, ular qaerdan olinadi degan savolga javob, ularning kishi miyasining mahsuli ekanini va odamning o'zi esa tabiat mahsuli bo'lib, ma'lum tabiiy sharoitda u bilan birga rivojlanganligi ko'rish mumkin. Shunga binoan o'z-o'zidan tushunarli, kishi miyasining mahsuli ekanini va odamning

o‘zi esa tabiat mahsuli bo‘lib, ma’lum tabiiy sharoitda u bilan birga rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Shu g‘oyalarni T.Braun, Jeyms Milliya va Benekke tasdiqlagan.

Assotsiatsiya haqida fikr yuritilganda ingliz psixologlari Yum va Gartlini alohida ta’kidlash joiz. Chunki ular XVIII asrdayoq har xil psixik hodisalar va elementlar ideal-tasavvurlarning yaxshi bo‘lib birlashishini asosiy qonun sifatida assotsiatsiyalar haqidagi ta’limotini ilgari surdilar. Assotsiatsiyalar haqidagi bunday ta’limot bir vaqtida ham idealistik, ham materialistik yo‘nalishda paydo bo‘ladi.

Idealistik yo‘nalishning vakili bo‘lgan David Yum ongning barcha murakkab hodisa va mahsullar o‘zining «meni» ekanligini (o‘z-o‘zini) anglash, o‘zaro tashqi bog‘lanishlar assotsiatsiyalar bilan bog‘langan «tasavvur birikmalari» dir xolos, degan ta’limotni ilgari suradi.

Materialistik aqlning vakillari David Gartli (1705-1757) va uning shogirdi Jozef Pristli (1733-1804) edilar. Ular assotsiatsiya tasavvurlarini miyadagi fiziologik bog‘lanishlarga tenglashtirib qo‘ydilar. Gartli psixologiyaga ruhning fizikasi deb qaradi.

Assotsiatsiyalar va ularning inson psixik faoliyatini tarkibidagi muhim roli haqida ta’limot XIX asrda juda keng tarqaldi. Empirik psixologiyaning «Assotsiativ psixologiya» deb atalgan alohida oqim paydo bo‘ladi. Bu oqim XIX asrning uch choragi mobaynida mavqeni egallab qoldi.

Assotsiativ psixologiya vakillari barcha murakkab psixik jarayonlar (xotira, tafakkur, nutq, xayol, iroda) bir xil birlamchi psixik element bo‘lgan sezgilardan va ularning nusxasi bo‘lgan tasavvurlardan hosil bo‘ladi deb da’vo qiladilar. Ayrim sezgi va tasavvurlarning assotsiativ qonuniga binoan o‘zaro mexanik bog‘lanishlar bilan birlashadilar. Masalan: xotira jarayonlari - assotsiatsiyalarga tenglashtirib qo‘yiladi, ya’ni esda qoldirish yangi assotsiatsiyalar hosil qilishdir, esga tushirish esa avval mustahkamlangan assotsiatsiyalarning jonlantirishdir.

Assotsiativ psixologiya vakillarining xizmatlari shundan iboratki, ular ongning yuksak murakkab jarayonlarini, ya’ni tafakkur, nutq va ideallarning tajriba asosida (asosan o‘z-o‘zini kuzatish bilan) o‘zgarishini diqqat markazida tutdilar.

Biroq keyinchalik assotsiativ psixologiya vakillari va boshqa psixologlarning bu ta’limoti amalda o‘zining yaroqsizligini ko‘rsatadi. Psixik hayotning murakkab hodisalarini faqat assotsiativ jarayonlarga tenglashtirib qo‘yish mumkin emasligi ma’lum bo‘ldi.

Assotsiativ psixologiya tarafdarlari sifatida angliyalik Jeyms Mill (1773-1836), Aleksandr Ben (1818-1903), Gerbert Spenser(1820-1903), germaniyalik Teodor sigen (1862-1950), Ebbingua(1850-1909)ni aytish mumkin.

AQSh dagi psixologik inqiroz mamlakat rivojlanishining ichki sharoiti davrida avj oladi, ya’ni bir paytda rivojlangan kapitalistik davlatga aylanayotgan sanoat rivojlanishining o‘sishi, raqobatning kuchayishi odamlarning hayot tarzini keskin o‘zgartirib yuboradi. Mazkur holatda esa hamon Bibliya konsepsiysi gullab yashnamoqda edi.

1890-yillarda ko‘plab Amerika universitetlarida tarbiyaviy psixologiya laboratoriylari vujudga kela boshladi. Amerika psixologlaridan eng yirik

namoyandasasi Jems Kettel bo‘lgan. 1892 yil bir vaqtning o‘zida AQShga ikki Yevropa psixologgi E.Titchener va G.Myunsterberg keladi.

Amerika psixologiyasi o‘z miqyosi va xilma-xilligi bilan Yevropa psixologiyasini siqib chiqara boshlaydi. AQShdagi psixologiya fanini rivojlanishi jarayonini to‘g‘ri baholash uchun Yevropa mamlakatlari va Amerika kontinenti g‘oyaviy sharoiti orasidagi farqni hisobga olish kerak edi, Yevropa mamlakatlarida psixologiya falsafadan ajralib chiqayotgan bo‘lsa, Amerikada bir vaqtning o‘zida ham falsafadan, ham diniy e’tiqoddan mustaqil bo‘la boshladi.

Funksiyaning strukturaga qarama - qarshi qo‘yilishi.

Eksperimental psixologiya avvalo "Vundt" dasturi bo‘yicha ishlab chiqildi. Birinchi bo‘lib elementlarga bo‘lish va strukturaga munosabatlarini topish talab qilinar edi. Bu strukturaga funksiya qarama- qarshi qo‘yilgan edi. Bu qarama-qarshilik Yevropada ham, Amerikada ham katta isyon, qarshilikka sabab bo‘ldi.

Yangi psixologiyaning metodlarini o‘rgangan yoshlari hammasi funksionalistlar edilar.

### **Vilyam Jeyms.**

Vilyam Jeyms ta’limoti yangi psixika ta’limotiga o‘tishda salmoqli xissa qo‘shdi. Rodjerning fikriga asosan Jeyms qarama-qarshi turdi. Uni shaxsning kuchli psixofizik bog‘lanishlari qiziqtirar edi.

Jeyms 1870 yillardayoq psixologiyaga murojaat qildi. U Garvard universitetida dars berish davomida fiziologiyaning psixologiyaga ta’siri haqida ma’ruzalar o‘qidi. 1880-yillarda u jurnallarda psixofiziologik savollar bilan chiqdi 1890 yilda esa unga katta shuhrat keltirgan "Psixologiya negizlari" kitobi nashrdan chiqdi. U psixologiyaning o‘quv dasturiga aylandi. Jeyms o‘qituvchilar bilan psixologiya haqidagi suhbatlarida Vundtning mifikabini tanqid qildi. U o‘zining fiziologiyaning psixologiyaga ta’siri kursini Vundt fikri bo‘yicha emas, Spenser fikri bo‘yicha o‘qidi. Uning ta’kidlashicha, psixika funksiyasining qimmati faqat evolyusion ta’limotining (o‘qishning) negizidagina ko‘rinishi mumkin. Vundt psixologiyani alohidalik ob’ekti bilan qo‘shib ko‘rsatdi. Jeyms esa sub’ektni ajratish yo‘llarini axtardi. Jeymnsning diqqat markazida shaxsning integratsiyasi, o‘zini tutishi irodaga bog‘liq xususiyatlari kiradi.

Ongdan tashqari, individ organizm bilan mujassamlashgan. Jeyms “Emotsiya nima bu?” maqolasida emotsiya - bu odam o‘zini-o‘zi his qilishideb aytadi. Keyinchalik hamma ong motorlidir deb xulosa qiladi. Bu xulosa "progratizm" bilan bog‘liqdir.

### **Mistitsizm**

Jeyms boshqa bir tomondan mistik tajribani o‘rganadi. Uning ta’limoti bo‘yicha ong aniqlangan paytda shaxs bilan birga bo‘ladi.

### **Ongning yo‘qolishi va neorelizmning paydo bo‘lishi**

Ong alohida hisoblansada, unga bog‘liq bo‘limgan ob’ektdan ajralgan holda emas, Jeyms individual ongning turliligi, uni qaytarilmasligini tushunib yetgach, ong to‘g‘risidagi "obrazlar yig‘indisi joylashgan bir idish" degan g‘oyani rad etadi.

Xo‘sh, "Obrazlar yig‘indisi" qayoqqa yo‘qoldi? Bu savolga Jeyms 1904- yil “Ong mavjudmi?” degan maqolasida javob berdi. U o‘z maqolasida ong ichida

mavjud deb hisoblangan narsalar undan tashqarida ekanligini tushuntirib berdi. Ong ob'ekt bilan muomalada va aloqada bo'lishi mumkin, lekin ular bundan hech narsa olmaydilar ham, yo'qotmaydilar ham. Ong alohida mavjud narsadir.

Neorealizm tushunchasini yuzaga keltirgan Jeyms sub'ektivizm ustidan g'alaba qilishiga, ongning realligini isbotlashga va bu bilan fenomenlar ma'lumotlarini tugatishga urindi. Bu urinishlar ongning realligiga shubha bilan yakunlandi.

Jeyms dunyoqarashi traditsiyasi juda idealistik edi. Uning ongni real ekanligi, unga, predmetga, shaxsga qaragandek qarash kerakligini isbotlash uchun qilgan harakatlari zoe ketdi, u fenomenalizm doirasini yenga olmadi. Jeymsning psixik tushunchalar izlanishi ikki yo'nalishda bordi, ya'ni tabiiy ilmiy va mistik yo'nalishlarda ko'proq izlanishlar olib bordi.

Funksional psixologiyaning tarafdarlaridan biri Djon Dpyuidir. U o'zining "Psixologiyada reflektor akt haqida tushuncha" nomli maqolasi bilan taniladi. Amerika psixologiya tarixi adabiyotida bu maqolani funksional psixologiyaning Vundt Titchener struktural maktabi bilan chegara uchun sabab qilib ko'rsatiladi.

Lekin qanday qilib reflektor akti haqidagi tushuncha strukturalistlar bilan kurash va turli qarashlar uchun asos bo'la oladi? Axir strukturalizmning dohiylari Vundt va Titchener nerv hodisalari haqida bilim psixologiya uchun foydali, lekin u psixologik hodisalar haqidagi bilimni kengaytira olmaydi deb hisoblaydilar. Ular Dpyui o'z maqolasida

«elementalizm» butunlikni ayrim bo'laklarga bo'lib tashladi, deb tanqid qiladilar.

Dpyui o'z maqolasida psixologik faoliyat u oqimdir, lekin ong emas, aktivlik esa butun organizmni uning nerv strukturasi bilan va muhit bilan ekanligini ko'rsatib beradi, deydi

Dpyui aniq faktlar asosida izohladiki: harakatdan sezish bog'liqligi va sezishdan harakat bog'liqligini mavjuddir. Harakat haqiqatdan ham sezgingining rivojlanishida bevosita ishtirok etadi. Lekin obraz va qo'zg'ovchi ob'ekt bir xil emas.

### Muhit va koordinatsion sub'ekt prinsiplari

Konkret psixologik analiz ob'ekti axloq hisoblangan bir paytda psixologiya rivojlanishidagi ushbu qurilish bilan Dpyuning fikri bog'liqdir. U refleks to'g'risidagi deterministik tushuncha psixologik reallikni o'rGANISHGA to'sqinlik qilishini isbotlab berda.

Boshqa bir tomondan Dpyui bu reallikni Titchenerdan boshqacha tushundi, ya'ni uniig ostida "materiya"ni emas, boshqa sub'ekt kechinmasini, kordinatsiya jarayonida esa sub'ekt va muhitni tushundi.

Dpyui sub'ektiv idealizmni taraqqiy etgan ilmning yangi pog'onasiga ko'tardi, qachonki turli o'zgaruvchi qarashlarni psixologik funksiyalarini sharhlab berish zarur bo'lgan bir paytda ular dunyoda yaratgan tushunchalardan, ya'ni individning his etishida, harakati to'g'risidagi tushunchalarni isbotladi.

### Chikago maktabi.

Jeyms va Dpyuilar funksional psixologiyaning Chikago maktabi dasturini tayyorlashadi. Bu dastur 1906 yilda D.N. Enjelo tomonidan Amerika psixologiya

assotsiatsiyasiga taqdim qilinadi. Unda funksional psixologik jarayonlar haqida belgilanadi. Jarayon ehtiyoj bilan muhit o‘rtasidagi birlamchi vazifani bajaradi. Ongning asosiy belgilanishi "yangicha nisbatan akkomodatsiya"dir. Organizm psixofizik butunlik sifatida harakat qiladi. Shuning uchun psixologiya ong bilan chegaralanib qolmaydi. Bu sohada Enjelo struktural psixologiyaga hujum qiladi.

Agar Titchener psixologiyani boshqa fanlardan qat’iy chegaralanishini talab qilsa, funksionalistlar uning nevrologiya, sotsiologiya, antropologiya bilan hamkorligini tarafдорлари bo‘lishdi. Chikago mактабида mushaklar tuzilishi va ehtiyoj faktoriga katta ahamiyat berilgan.

Ongning va xulqning faoliyatini o‘rganuvchi psixofizik tartib Amerika funksionalizmida tabiiy-ilmiy bo‘yoqqa ega bo‘lib Yevropa yo‘nalishidan keskin farq qiladi. Lekin ularni umumiylit tomonlari ko‘p bo‘lgan.

Qisqa vaqt mobaynida gullab yashnagan funksional maktabning teologizmi strukturalizm singari parchalanib ketdi, boshqa oqimlar tomonidan siqib chiqarildi. Shu oqimlar funksionalizm muammolarini "yutib" yuboradi.

Funksionalizmning falsafiy loyihibalarining bir narsa ekanligini ko‘rsatdi.

### Psixologik maktablar

XIX va XX asrdagi psixologiya - bu asosan empirik psixologiyadir. Psixologiyada XVII asrda paydo bo‘lgan bu yo‘nalish XIX va XX asrning boshlarida o‘z taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisiga erishdi. Uning yutuqlariga erishuviga sabab eksperiment metodining tatbiq qilinishi edi. Uning predmet doirasi juda kengaydi. Yuqorida aytilganday, psixologiya fanining maxsus o‘z vazifalari va metodlariga ega bir qancha shaxobchalari maydonga keldi.

Empirik psixologiya bir butun narsa emas edi. Bu psixologiyaning ichida bir qancha yo‘nalish va oqimlar mavjud edi. Psixologiya tarixida bulardan ancha mashhur va muhimlari assotsionizm, intellektualizm, volyuntarizm, geshtaltpsixologiya va freydizmlar edi.

Intellektual psixologiya - bu psixikaning asosiy elementi va psixologik faoliyatning asosiy funksiyasi aql-intellektdir deb hisoblaydigan yo‘nalish. Intellektualarning fikricha, turli-tuman psixik jarayonlar, shu jumladan emotsiyal va iroda jarayonlari ham sezgi, tasavvur va tushunchalarning qo‘shilishidir deb tushuntiriladi. Assotsiativ psixologiyaning vakillari ham intellektualistlarga kiradi, chunki ular ham birlamchi va asosiy element tasavvurlardir deb hisoblaganlar. Psixologiya va pedagogikada intellektualizmning eng ko‘zga ko‘ringan vakili Gerbart hisoblanadi.

Volyuntaristik psixologiya, intellektualizmdan farq qilib psixik hayotning asosi sifatida shaxsning irodasini, aktivligini, faolligini ilgari suradi. Barcha murakkab psixik jarayonlar, xususan, tafakkur ham insonning irodaviy aktivligi deb talqin qilingan.

Volyuntaristik psixologiyaning vakillari G.Linne (1889-1941), G.Myunsterberg (1863-1916) edilar. Vilgelm Vundt ham garchand irodaning asosiy hislardir deb hisoblagan bo‘lsa ham volyuntarist edi.

Freydizm - bu o‘z nomini avstriya nevropatologi va psixologgi Zigmund Frey (1856-1939) nomidan olgan bo‘lib, psixologiya va nevropotologiyadagi alohida yo‘nalishdir.

Freyd ta’limotiga ko‘ra, shaxs psixologik hayotining asosi jinsiy lazzat olishga qaratilgan, tug‘ma ongsiz mayl(instinkt)dir. Lekin tarixan tarkib topgan odat, axloqiy prinsiplar tufayli, ijtimoiy «senzura»ning mavjudligi tufayli bu mayl to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘siladi. Shuning uchun ham ba’zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayl bilan anglab turilgan vaziyat o‘rtasida ichki ruhiy konflikt (to‘qnashuv) paydo bo‘ladi. Bu to‘qnashuvlar ba’zan asab kasalligiga (nevrozga) olib keladi.

Kishilik jamiyatida ko‘pchilik kishilarning hayoti va taraqqiyoti jarayonida bu tabiiy ongsiz mayl energiyasi mehnat faoliyatiga aqliy va ijodiy faoliyatga qaratiladi va sarf etiladi. Hayotning yuksak sohasiga energiyaning shu tariqa ko‘chirilishini sublimatsiya deb ataladi. Freydning ayrim shogirdlari uning ta’limotiga ba’zi bir o‘zgarishlar kiritganlar. Masalan, Adolf Adler (1870-1937y.) fikricha, psixik hayotning asosini seksual (jinsiy) mayl emas, balki ustunlikka, hokimiyatga, boshqa kishilar ustidan hukumronlik qilishga bo‘lgan tabiy mayl tashkil qiladi.

Geshtalt psixologiya yoki boshqachasiga struktura, yaxlit psixologiya. Bu yunalishning asosiy vakillari X.Erenfels (1859-1932), V.Keller (1887- 1967), K.Kofka (1886-1941) lardir. ”Geshtalt” tushunchasini fanga Erenfels kiritgan. Bu psixologlar barcha murakkab psixik jarayonlar elementlar hodisalardan-sezgilardan tarkib topadi deb hisoblangan assotsiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Geshtalt psixologiyaning vakillari bu ta’limotga qarama-qarshi o‘laroq, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig‘indisiga nisbatan mazmundorroq hamda boyroqdir. Ayrim element va qismlarning yig‘indisi butunning mazmunini belgilamaydi, balki, aksincha, butun (yaxlit struktura)qism elementlarning hususiyatlarini belgilab beradi.

Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo idrok faktlari, asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok - bu sezgilarning yig‘indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta’kidlanardi. Psixik mahsullar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi bu ta’limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi.

Bu alohida-alohida yo‘nalish va oqimlar, bir qancha umumiyl Hususiyatga ega bo‘lgan holda «Empirik psixologiya» degan umumiyl nom ostida birlashdilar.

Psixologiyaning predmeti va metodlarini bir xilda tushunish bu barcha oqimlarning birlashuviga sababchi bo‘ldi.

Empiriklar psixologiyani ruh haqidagi fandir deb emas, «ruhiy hodisalar» yoki «ong hodisalari» yoki bo‘lmasa faqatgina ong hakidagi fandir deb ta’kidladilar. Bu «ruhsiz» psixologiyadir (N.N.Lange), «hech qanday metafizikasiz psixologiyadir» (A.I. Vvedenskiy).

Empirik psixologiyaning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning vakillari ilmiy jihatdan o‘rganish predmeti sifatida ruhni inkor qildi. Bu holatni psixologiyaning metafizik va idealistik qarashlardan xoli bo‘lish yo‘lidagi katta qadami deb hisoblash mumkin.

Yuqorida aytilganiday, empirik psixologiyaning asosiy metodi kuzatish, tajribadir. Lekin tabiat fanlaridan psixologiya sohasiga ko‘chirilgan bu metod ichki metod ichki tajriba sifatida boshqacha tus oladi.

Empirik psixologiya ob’ektiv kuzatish metodidan ham, eksperiment metodidan ham foydalangan: psixik hodisalar har xil maxsus asboblar yordami bilan maxsus labaratoriyalarda o‘rganildi; materiallarni tekshirish va yakunlashda matematik statistika (korrelyatsiya) metodlaridan foydalanildi.

Empirik psixologiyaning psixologiya fani tarixidagi ikkinchi katta xizmati tajribadan foydalanishdan, psixologik eksperimentlar o‘tkazishning metod va texnikasini ishlab chiqishdan iborat.

Psixologiya tomonidan eksperimentning tadbiq qilinishi tufayli inson psixologiyasi sohasida boy materiallar to‘plangan. Bu materiallarning ko‘pchilik qismi hozirgacha ham ahamiyatini yo‘qotmagan (masalan, Vundt va Ebbingauzning eksperimental ishlari) empirik psixologiya aniqlangan ma’lumotlar va ishlab chiqqan eksperimental metod va usullar amaliyotda ham, masalan, meditsina va pedagogika sohalarida foydali bo‘lib chiqdi.

Platon bilan Aristotel yaratgan ruh haqidagi ta’limot o‘rtalarda Sharqda ham, G‘arbda ham hukmron bo‘lib qoldi. Psixologiyadagi bu oqim keyinchalik (XVIII asrda) metafizik yoki ratsionalistik psixologiya deb nom oladi.

Psixologiya shuning uchun ham metafizik deb ataladiki, uning tekshirish predmeti bo‘lgan – ruh psixik jarayonlar – fizik hissiy dunyo chegarasidan taqqarida mavjud mohiyat, g‘ayri jismoniy bir narsa deb tushuntiriladi; shuning uchun ham ratsionalistik deb ataladiki, uning tekshirish metodi tajribadan ajratilgan faqat quruq mulohazadan iborat edi.

O‘rtalarda mutafakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari, asosan, ruhning mohiyati haqidagi, uning kuchi, qobiliyatları va kelib chiqishi haqidagi, uning tana o‘lgandan keyingi taqdiri haqidagi, ruhning tanaga bo‘lgan munosabati haqidagi masalalarga qaratilgan edi.

Ruhning mohiyati haqidagi masala, odatda, Platon va Aristotellarda qanday hal qilingan bo‘lsa, xuddi shunday hal qilinar edi. Ruh o‘z tabiatiga ko‘ra barcha moddiy va jismoniy narsalarga qarama-qarshi qo‘yilar edi. Ruh o‘z tabiatiga ko‘ra alohida qobiliyatlarga egadir, deb fikr yuritilardi.

Shuningdek, o‘rtalarda mutafakkirlari iroda masalasiga ham alohida e’tibor berdilar.

Masalan, Avgustin Ipponskiy (353-430 y.) birinchi bo‘lib kishining boshqa ruhiy qobiliyatları orasida irodaning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritgan. Irodaning ustunligi haqida, ayniqsa, Duns Skott (1265-1308 y.)ning ta’limoti juda yaqqoldir. Uning aytishicha, iroda aqldan ham yuqori turadi.

Butun o‘rtalarda tarixi mobaynida, undan keyingi vaqtarda ham, falsafa va psixologiyada iroda erkinligi haqidagi tortishuv juda katta o‘rin egalladi. Bu masala bo‘yicha V asrdayoq ikkita oqim – determinizm va indeterminizm paydo bo‘lgan.

**Deterministlar** (lat. determinare – belgilamoq) inson irodasi dunyodagi hamma narsalar singari sababiyat qonuniga bo‘ysunadi, binobarin, insonning barcha irodaviy

harakatlari ham erkin emas, balki zaruriyat bilan, o‘z sabablari bilan belgilanadi deb ta’lim beradilar.

**Indeterministlar** aksincha, inson irodasi va uning xatti-harakatlari har qanday sababiyatdan xoli hamda zaruriyatga bog‘liq emas, deb ta’lim beradilar. Indeterminizm sof idealistik ta’limot edi. Determinizmda esa idealistik tendensiyalar ifodalangan edi.

Umumiy va mavhum tushunchalar haqidagi masala ham iroda erkinligi haqidagi masaladan kam tortishuvlarga sababchi bo‘lmaydi. Bunda ikki oqim – realistlar bilan nominalistlar o‘rtasida tortishuv ketadi.

**Realistlar** – umumiy tushunchalar («universallilar» o‘sha vaqtida shunday deb atashardi) real, ob’ektiv holda mavjuddir va inson aqlida yakka narsalarga bog‘liq bo‘limgan holda aks etadi, deb da’vo qildilar. Shunday qilib, realistlar faqat Platonning narigi dunyo ideya (g‘oya)lar dunyosi haqidagi, har bir kishi aqlidagi bu g‘oyalarning tug‘ma ekanligi haqidagi ta’limotini takrorladilar, xolos.

Anzelm Kenterbenskiy (1033-1109 y.) va Shampolik Vilgelm (1121-1170 y.) lar realizmning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari edi.

**Nominalistlar** (lat. nominale – nom, ot) umumiy tushunchalarni faqat predmetlarning nomlaridir, deb hisoblaydilar. Realistlarga qarama-qarshi o‘laroq, nominalistlar faqat individual sifatlarga ega bo‘lgan alohida- alohida narsalargina real mavjuddir deb da’vo qilganlar. Umumiy tushunchalar esa faqat biz butunlikka kiramidan predmetlarning hammasiga tatbiq qilinadigan so‘zlardir. Nominalistlarning ta’limotlarida ba’zi bir o‘rta asr mutafakkirlarining materialistik tendensiyalarida ham ifodalangan. Nominalizmning eng ko‘zga ko‘ringan vakillari I.Rosselin (1050-1125 y.), Duns Skott (1265-1308 y.), Vilyam Okkam (1200-1349 y.)lar edilar.

Ayrim psixik jarayonlarni tushuntirishda ham ba’zi bir psixologlarda materialistik element va tendensiyalar namoyon bo‘ldi. Masalan, O‘rta Osiyolik shifokor va faylasuf Ibn Sino (980-1037 y.) va arab mutafakkiri Ibn Rashid (1125-1198 y.)lar Aristotelga ergashib, «sezuvchi ruhning harakatlanuvchi va jozibador kuchlarini» o‘rganish uchun harakat qildilar. Ular sezgilarni keltirib chiqargan qo‘zg‘ovchilardan farq qilish zarurligi haqidagi masalani qo‘yadilar, ong faoliyati bilan fiziologik jarayonlar o‘rtasida yaqin aloqa va bog‘lanishlar o‘rnatishga intiladilar.

Qadimgi Rossiyada kitob madaniyati boshlanishi bilan (X-XI asrlarda) psixologiya sohasida G‘arb va Sharq mutafakkirlarida qanday tarkib topgan bo‘lsa, xuddi o‘sha holda fikr va bilimlar tarqala boshlaydi.

Bu bilimlarning eng muhim manbai Vizantiya mutafakkirlari Iogann Damaskinning (673-777 y.) grek tilidan slavyan tiliga tarjima qilingan «Dialektika» va «Haqiqiy imon haqida» nomli asarlari edi.

I. Damaskin ta’limotiga ko‘ra, ruh alohida ilohiy substansiyadir. U so‘z, aqlidrok hamda erkin irodaga ega bo‘lgan g‘ayri jismoniy, oddiy, tirik va abadiy mohiyatdir. Ayni vaqtida ruh inson tanasi bilan birikib bitta mavjudotni tashkil qiladi. Uni insonning o‘sish va ko‘payish kabi funksiyalaridan ajratish mumkin emas. Ruh tana organlaridan o‘z qurollari sifatida foydalananadi va xulq hamda xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Damaskin ruh tanaga bog‘liq: masalan, u biologik o‘sishga va boshqa tashqi sabablarga qarab o‘zgaradi deb ta’kidlaydi.

Biroq Damaskin ruh va tananing birligini yashirin, qanday birlashganligi sirli bir hodisa va insonning aqli buni bilishda ojizlik qiladi, deb hisoblaydi. Bu fikrlarda Aristotelning ta’siri va hissasi ko‘rinib turibdi.

Ratsionalistik psixologiya fan taraqqiyotidagi bosqichlardan biridir. Hozirgi vaqtida bu psixologiyani bilish tarixiy jihatdan qiziqarli, xolos. Bu psixologiya qandaydir ilmiy yoki amaliy ahamiyatga ega emas. Shu psixologiya negizida ishlab chiqilgan terminologiyaganiga undan qolgan meros deb hisoblash mumkin.

O‘rta asrlarda psixologiya falsafaning bir qismi edi. Falsafaning esa mustaqil ahamiyati yo‘q edi: u yoteologiyaning – dinning xizmatkori deb hisoblanardi. Psixologik ta’limotlar ham shulardan kelib chiqqan edi, chunki faqat mulohaza qilish yo‘li bilan dinning ba’zi qonun-qoidalalarini – ruhning abadiyligi, odamning kelib chiqishi, narigi dunyodagi hayot va hokazolarni asoslash mumkin edi.

Binobarin, kapitalizm taraqqiyoti va shu munosobat bilan ilmiy metodlarning kelib chiqishi mukammallashuvi tufayli sxolastik falsafa bilan birga ratsionalistik psixologiya ham o‘z o‘rnini va ahamiyatini yo‘qotgan.

VII asrning oxirlarida Movaraunnahr xalqlari asta-sekin arab xalifaligi qaramog‘iga o‘ta boshlaydi. Islomning har jihatdan mustahkam joriy etilishi esa asosan IX asrning I choragida boshlangan. Shuning uchun ham Movaraunnahr allomalari arab musulmon madaniyati bilan faqat IX asrning boshidan tanisha boshlaganlar. Chunonchi, Muhammad al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg‘oniy Bag‘dod akademiyasi «Dorul hikma»ga IX asrning 16-20 yillarida kelganlar. Shu vaqtidan boshlab O‘rta Osiyo fani, falsafasi, adabiyoti va madaniyati tarkibida mustahkam bosqich sifatida, ya’ni O‘rta Osiyo mahalliy madaniyatining yangi bosqichi sifatida shakllana boshlagan edi. Demak, arab madaniyati va islomning O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatiga, ruhiyatiga ta’siri haqida ham xuddi mana shu vaqtidan boshlab gapirish mumkin.

Bu muammoni bir qancha xarakterli yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rish mumkin. Bular: Movaraunnahr xalqlarining islomga qadar bo‘lgan madaniyati va unga islomning munosabati, bu xalqlar madaniyatiga islomning kirishi, keyin shakllangan islom ruhiyati, madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari, maorif, ta’lim, tarbiya, dunyoviy fanlar, ilohiyot, falsafa, adabiyot, axloqiy-huquqiy hayot va uning islom qoidalari asosida boshqarish, me’morchilik va boshqalardan iborat. Bularning hammasida islom ijobji rol o‘ynaydi. Busiz u jamiyatda o‘z o‘rnini va ko‘p asrlar davomida kishilarning turmushi, ruhiyati va ongiga ta’sirini saqlab qola olmagan bo‘lar edi. Islomning tarqalishi xalqlarning islomga qadar bo‘lgan madaniyati, diniy mafkurasi, otashparastlik, buddiylik, mazdakiylik, moniylik bilan bog‘liq bo‘lgan dunyoqarashlari yo‘q qilingan edi.

### Abu Nasr Forobiyning psixologik qarashlari

Abu Nasr Forobi Yaqin va O‘rta Sharqda ilg‘or ijtimoiy-falsafiy oqimning asoschilaridan biri bo‘lib, «Sharq Aristoteli» degan unvonga sazovor bo‘lgan mashhur mutafakkir. Forobi (873-950) dunyoqarashining asosi, ya’ni dunyoning tuzilishi haqidagi tushunchasini «panteistik» degan fikr tashkil etadi. Mayjudot yagona boshlang‘ichdan pog‘onama-pog‘ona vujudga kelgan, yakkalikdan ko‘plikka, rang-

baranglikka borgan. Uning dunyoqarashidagi asosiy maqsadlardan biri ilmiy-falsafiy usulning mustaqilligini nazariy jihatdan asoslab berishga, uning inson tafakkuriga, aqliy bilimiga asoslanganligini isbotlashga intilishdir.

Forobiy bilishning ikki shakli bosqichini - hissiy va xayoliy, aqliy bilishni bir-biridan farqlaydi. U sezgi roliga to'xtalib, besh turga bo'ladi. Forobiy sezgini bilishning manbai deb hisoblagan, uning qarashlari Aristotelning «sezmagan odam hech narsani bilmaydi ham, tushunmaydi ham»

degan qarashlariga o'xshab ketadi.

Forobiy inson (ruh) jonining bir tandan boshqasiga o'tib, ko'chib yurishi mumkinligini inkor etadi va uni balki tan kabi individual

«substansiyasining birligi» sifatida tushunadi. Uning fikri izchil emas edi. Bunday ikkilanish Aristotelga ham xos bo'lган.

Forobiyning ruhiy jarayonlar, ularning bilish va mantiq tizimi haqidagi ta'limoti o'rta asrlar falsafasining katta yutug'i edi.

#### Al Xorazmiyning psixologik qarashlari

Abu Abdulloh al Xorazmiy ham O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlaridan biri hisoblanadi. Abu Abdulloh al Xorazmiy dunyoqarashining muhim tomoni, uning keng bilimi, ilmning ko'p jabhalari masalalarini tushunishga ob'ektiv yondashishga qaratilgan. Xususan, uning tib, odam anatomiyasi va fiziologiyasi sohasidagi bilimi hissiy sezgining moddiy asoslarini qidirishga yordam beradi. «Shaxsiy ruh - u miyada bo'lib, undan badan a'zolariga asab orqali tarqaladi» deydi. O'rta asr Sharq **peripatetiklari** uchun aql bilimning yana bir manbaidir. Ular aqlni ikki turga - tug'ma va orttirilgan aqlga ajratishadi. Xorazmiy aqlni odam nafslarining kuchlaridan biri deb hisoblaydi.

Umuman olganda, Abu Abdulloh al Xorazmiyning psixologik falsafiy qarashlari o'z davri ilmiy dunyoqarashining rivojiga katta hissa qo'shgan.

#### Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlari

Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) psixologik - falsafiy qarashlari, ilmlar tasnifi, ta'rifi va tarkibi haqidagi fikrlari uning «Tib qonunlari» asarida inson fiziologiyasi va psixologiyasi asosida talqin etiladi. Ibn Sino sezgini tashqi va ichki sezgilarga ajratadi. Tashqi sezgi insonni tashqi olam bilan bog'laydi, ular 5 ta: ko'rish, eshitish, ta'm - maza bilish, hid va teri sezgisi. Bular insonning ma'lum organlari - teri, ko'z, og'iz, burun va quloq bilan uzviy bog'liq.

Ichki sezgilar - bu umumiyl, chunonchi, tahlil etuvchi, ifodalovchi, eslab qoluvchi (xotira), tasavvur etuvchi(xayol) sezgilardir. Ibn Sino miyani barcha sezgilardan boruvchi nervlar markazi, umuman inson nerv sistemasining markazi ekanligi haqidagi ta'limotni olg'a surgan. Inson tana va jondan tashkil topadi, miya insonni boshqarib turuvchi markazdir.

Ibn Sinoning ilmiy psixologik - falsafiy fikrlari noyob oltin xazina bo'lib hisoblanadi.

#### Abu Rayhon Beruniyning psixologik qarashlari

Abu Rayhon Beruniyning (973-1043) fikricha, inson hayvondan aql bilan farq qiladi. Lekin insonning hayvondan tubdan farq qiladigan bu xususiyati qanday bo‘lganligini tushuntirganda Ollohga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan deydi.

Beruniyning ruhiy va moddiy ehtiyojlarning roli haqidagi fikri o‘sha davr uchun nihoyatda qimmatli fikr edi. U jamiyat yuzaga kelishida kishilarning moddiy ehtiyojlari rolini ko‘ra oladi.

Beruniyning fikricha, aql, mehnat, erkin tanlash insonning hayotini va ijtimoiy holatini belgilaydi. Inson o‘z ehtiyojlarini mehnat tufayli qondiradi, deydi.

**Rudakiy** (IX asrning 50-60 yillari - 941) ruh bilan materiyaning munosabati masalalarida idealistik mavqeda turadi. Ruhni «ota»ga qiyos qiladi, moddiy narsalarni «ona»ga o‘xshatadi. Uning fikricha, barcha narsalarni yaratuvchi birinchi sababi Ollohdır. Moddiy narsalarni ham inkor etmaydi. Moddiy narsalar asosida tuproq, olov, suv va havo yotadi. Rudakiy inson aql va idrokini ulug‘laydi.

**Umar Xayyom** (1040-1123) bilish nazariyasi uning tabiiy va ilmiy qarashlari bilan uzviy bog‘langan. Umar Xayyomning materializmi, uning dinga qarshi ateistik mulohazalari bilan mushtarak. Ma’lumki, idealistlar va islom dini peshvolari, shu jumladan G‘azzoliy ham zo‘r berib yerdagi hayot ahamiyatini inkor etishga, u dunyo, jannat va do‘zax to‘g‘risidagi fikrlarni olg‘a surishga intildilar. Umar Xayyom esa islom dinining narigi dunyo, jonning o‘lmasligi, jannat va do‘zax to‘g‘risidagi ta’limotlarni rad etdi.

VIII asrda islomda turli yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bulardan mutakallimlar, ularning psixik ta’limotiga ko‘ra hissiy bilishning ahamiyatini, bilimlarimizning vogelikka muvofiq kelishini inkor etishdir. Ular nimaiki o‘zlari uchun nomaqbul bo‘lsa (hissiy bilish bilan bog‘liq bo‘lgan sezgi ma’lumotlari va bilimni inkor etish yordamida) hammasini inkor etadilar va ularga nimaiki tasdiqlash lozim bo‘lsa, hamma tasavvur qilish mumkin bo‘lgan narsaga yo‘l qo‘yish yordamida hammasiga yo‘l qo‘yish mumkin deb hisoblaydilar.

**Mutazzaliylar** ta’limotida muhim masalalardan biri - inson irodasining erkinligi to‘g‘risidagi masaladir. Inson o‘z hatti harakatlarida erkindir. Insonning erkin irodasi haqidagi fikr xudoning «oliy qudrati» to‘g‘risidagi diniy aqidalarga zid keladi. Mutazzaliylar taqdirning avvaldan belgilab qo‘yilganligi to‘g‘risidagi ta’limotni - tavakkul ta’limotini inkor etadilar.

So‘fizm ta’limotida butun odam xudoning mujassamlanishidan boshqa narsa emas. Xudo hamma ko‘rinadigan narsalarda mavjud. Narsalar esa o‘z navbatida xudoda mavjud. Dunyo - ruh shaklida butun olamga tarqalgan xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, ertami kechmi u bilan qo‘shiladi. Bu qo‘shilish xudoga yaqinlashishning asosiy bosqichi - shariat, taraqqiyot, ma’rifat va haqiqat olib keladi. So‘fizmga ko‘ra xudo bilan qo‘shilishning o‘zi - eng oliy rohat. So‘fizm xudoga aql yordamida ishonish emas, balki unga ichki hissiyot orqali yaqinlashishga katta e’tibor beradi.

**Tayanch tushunchalar:** determinizm, indeterminizm, ratsionalistik psixologiya, so‘fizm.

1. O‘rtalik mutafakkirlarining psixologik qarashlari.
2. Determinizm va indeterminizm oqim tarafdarlarining fikrlaridagi farq.
3. Ratsionalistik psixologiya.

## **5-mavzu. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish bosqichi**

### **Reja:**

1. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi
2. I.M.Sechenovning psixika haqidagi yangicha tasavvurlari

### **1.Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi**

Psixologiyaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga tabiat hodisalarining tajribalari va determinik tadqiqot muvaffaqiyati orqali zamin tayyorlangan.

Psixologiya tarixchisi Nordenshel aytishicha, o‘sha paytda ko‘p organik hodisalarga yangi tushunchani qo‘llashga shoshilishar edi. Shu yangi tushunchani ma’nosи shunday iborat ediki, butun borliq jonlimi, jonsizmi-bitta yagona sodda aniq bir sabab bog‘lanishidir, bunga tayanib murakkab hayotiy ko‘rinishlarini soddaga aylantirish mumkin, deb aytgan.

40 - yillarda vitalistik qarashning tarafdori I.Myullerning boshchiligidagi yosh olimlar guruhi o‘z ustoziga qarama-qarshi chiqishdi. Shu o‘quvchilar, jumladan Gelmgols va **Dyuba Reyman** tomonidan «yashirinchalik kollej» tashkil qilindi, keyinchalik u tarixga fizika-ximiyaviy mакtab deb kiritilgan edi.

Bu mакtabning dohiylari - Gelmgols, **Dyuba Reyman** va boshqalar psixologiyani tajribali fan qilib ko‘rsatdi.

Gelmgols, Dyuba Reyman va boshqalar ongni materiya sabablari orqali tushuntirib bo‘lmaydi, degan fikrga kelishgan.

«Bu jarayonda insonning aqli» jahon siriga duch kelib, uni hech qachon yengib bo‘lmaydi” -dedi Dyuba. Tabiat hodisalari ustidagi juda ko‘p izlanishlar va muvaffaqiyatli tajribalar psixologiyaning alohida fan bo‘lib ajralib chiqishiga katta omil yaratadi. Psixologiya fanining rivojiga har xil fanlar, yo‘nalishlar olimlarning hissasi juda kattadir. Masalan: tabiiy hodisalarga fizikaviy matematiklar ko‘zi bilan qarash, ya’ni energiyani saqlanish qonuni hech qanday o‘zgarishsiz tirik organizmga tadbiq qilishni avvaldan fan tasdiqlab bergen bo‘lsa, keyinchalik undan voz kechildi, bunga sabab Darwin ta’limotlarini psixologiya faniga qo‘shtigan hissasi va boshqalardir.

Darvin 1970 yilda o‘zining «Odamning paydo bo‘lishi» nomli asarida odamdagagi va hayvondagi emotsional holatlarni taqqoslab ko‘rdi va bu holatlardagi harakatlar mimikani kelib chiqishi va bularni ma’nosи haqida fikr yuritdi.

Darvinni fikricha, bu harakatlar va mimikalar insoniyat tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kerak bo‘lgan, ya’ni hayotiy zaruriyati bo‘lgan hayvonlar o‘jasiga tashlanishdan oldin og‘izlarini katta ochib o‘kiringani singari odam ham ov paytida bu harakatlari bilan o‘zini himoya qilgan va hokazo. Darvin hozirgi turli

mimika va harakatlarni ana shu ibtidoiy odamdan qolgan rudimentlar deb fikr bildirgan.

Bularga odam o'rganmaydigan, balki insonga instinct sifatida tabiat tomonidan beriladi, deb aytgan. Bu bilan Darwin odamning emotsiyal holatini hech qanday odam psixologiyasiga bog'lamay, balki uni hech qanday hissiz, fikrlamasdan bajariladigan bir fiziologik harakat deb ta'riflaydi. Bu bilan Darwin katta xatoga yo'l qo'ygan edi. Insondagi bu harakat va mimikalar, intonatsiya bu - jamiyat rivojlanishining mahsulidir. Jamiyat rivojlanishi bilan biologik formalar ham o'sib, rivojlanib boradi.

Bora-bora refleks haqidagi ta'limotlar ham o'zgardi. Masalan, Xoll va Myuller reflektor yoyini hech qanday o'zgarmaydigan yo'llarini bog'lanish deb odamdag'i turli reaksiyalar tashqi muhit o'zgarishida ongning ta'siri deb tushuntirganlar. Ular reflektor harakatlarida psixik ta'sirni umuman inkor etdilar va bu harakatga faqat fiziologik ma'no berdilar, xolos. Ularning bu ta'limotini 1853 yili nemis fiziologi Aflyuger inkor etdi, buning uchun u bitta baqani boshini olib, unga ta'sir qilganda uning qolgan qismi xuddi bir butun organizm, psixologik jarayon ekanligini tasdiqlab berdi.

Myullerning fikricha, har bir sezgi organi bu alohida maxsus energiya bilan zaryadlangan apparatdir. Sezish esa ma'lum bir harakat sababli bu energiyaning apparatdan chiqishi bilan hosil bo'ladi deb ta'kidlaydi. Gelmgols esa buni ya'ni sezishni psixologiya bilan bog'laydi. Shunday qilib, psixologiya fani juda ko'p tortishuvlarga sabab bo'ldi.

Psixofiziologiya deb nom olgan yo'nalishda esa hamma psixik hodisalar ma'lum bir qonuniyatga bo'ysunadilar va buni matematik hisoblash yo'li bilan o'rganish mumkin deyiladi. Bu yo'nalishda nemis olimi Gustav Fexner ish olib bordi. U 1820-1830 yillarda Leypsigda fizika fanini olib borar edi va elektr sohasida ko'p tajribalar o'tkazar edi. Shunda u psixologiya bilan qiziqib qoladi. Uning fikricha, ong butun koinot bo'ylab sochilib tarqatilgan, koinotdagi turli jismlarga esa jon berilgan, materiya esa psixikani teskari tomoni, aniqrog'i soyasi xolos deydi. Buni esa matematik hisoblashda tasdiqlashga harakat qilgan.

XIX asr o'rtalariga kelib nerv harakatlari juda ham katta tezlikda o'tadi, hatto yorug'lik tezligiga teng deb hisoblanar edi va buni hisoblash mumkin emas deb kelinar edi. Lekin 1850 yilda Gelmgols bu muammoni yechdi. Hisobiga ko'ra, bu harakat uncha katta emas, sekundiga bir necha o'n metr edi xolos. Bu tadqiqotiga ko'p olimlar hatto Gelmgolsning o'z ustozи Myuller ham ishona olmadidi. Gelmgols tajribasi faqatgina fiziologiya bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki psixologiyaga ham taalluqli edi. Bu bilan u nerv sistemasidagi jarayonlar fiziologik jarayonlar kabi ma'lum.

Psixologiyaning alohida fan sifatida ajralib chiqishida faqatgina fiziologik tajribalar sababchi bo'lmasdan, balki falsafaning ham roli kattadir. Bu yo'lda ingлиз faylasuflari Djon Mill, Spenser va boshqalar ko'p tadqiqotlar olib borganlar. Ota-bola Millar «psixologik ximiya»,

«psixologik fizika» yo'nalishlarini yaratdilar. «Psixologik ximiya» yo'nalishida ongni bir necha mayda elementlarga bo'lish mumkin deb hisoblar edilar. Ongni sintez qilib xuddi kimyoviy reaksiyalaridan yangi modda olingani kabi, yangi natijalarga erishish mumkin deb hisoblanar edi. Ongni mayda atomlarga bo'lib, kimyoda Mendeleev

jadvalidagi kabi yangi atomlar olish mumkin. Millning bu yo‘nalishi keyinchalik psixologizm deb nom olgan.

Aleksandr Ben o‘zining ko‘p yillar mobaynida mashhur bo‘lgan ikki asarida ya’ni «Emotsiyalar va erk», «Sezgi va intellekt» asarlarida psixologiya bilan fiziologiyani yaqinlashtiradi. U o‘zining bu asarlarida psixologiyani ko‘zda ko‘rinarli tomonlari: reflekslar, instinctga va odatga ko‘proq e’tibor berdi. Refleks organizmning tashqi muhit ta’siriga stereotiplar bilan javob beradi, xulq-atvor turlitumanligini tushuntirishga javob bera olmas edi. Harakatning xohishi va erki bilan Ben o‘zining ta’limotida ongni faoliyatini organizm faoliyati bilan yakdil deb biladi, psixologiya va shunga o‘xshash boshqa yo‘nalishlarni inkor etadi.

Biologik evolyusiyani psixologiya bilan bog‘lash davr talabiga aylanib bordi. Gerberd Spenserning «Psixologiya asoslari kitobi» bunga javob edi. Lekin bu asar ko‘p vaqt e’tibordan chetda qoldi. Darvinning evolyusiya ta’limotidan keyin esa Spenser evolyusion psixologiya asoschisi deb e’lon qilindi. Uning fikricha, ong bu yashash uchun kurashning muhim quroolidir.

Psixologiya bu ichki hodisalarni o‘zaro munosabati yoki tashqi hodisalarni o‘zaro munosabati emas, balki bu ikki harakat hodisaning ta’siridir. Shunday qilib, psixologiya fanining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga, uning rivojlanishida hech qaysi fan yo‘nalishi chetda qolgani yo‘q. Psixologiya alohida fan sifatida o‘rganilayotganligiga yuz yillar bo‘ldi. Ungacha uzoq vaqt davomida bu falsafa, diniy bilimlar qatorida edi. Psixologiya boshqa nomlar bilan ham o‘rganilar edi. Masalan: pnevmatologiya, mental falsafasi va hokazo.

Psixologiya tarixini biz faqatgina falsafada emas, balki yuqorida aytganimizdek biologiya, meditsina, pedagogika, sotsiologiyada ham ko‘rishimiz mumkin.

## **2. I.M.Sechenovning psixika haqidagi yangicha tasavvurlari**

1873 yilda Sechenovning psixologiyani qayta ishlab o‘rganishni ob’ektiv fan sifatida taklif etadigan «Psixologik etyudlar» asari nashr qilindi. Bu asarning asosini materialistik metodologiya tashkil etar edi. Sechenov pomeshchiklar oilasida katta bo‘lgan. U Peterburgdagi harbiy injenerlar bilim yurtini tamomlab, oliy texnika injeneri ma’lumotini olgandan so‘ng Moskva universitetining meditsina fakultetiga o‘qishga kirdi. III kursdan boshlab falsafa fanining tarkibida bo‘lgan psixologiya bilan shug‘ullana boshladi. Uning ta’biricha, «falsafaga moskvachasiga ishtiyoq» ijodida keyinchalik muhim rol o‘ynaydi. Universitetni tamomlab, Germaniyadagi Gelmgols Dyuba-Reyman laboratoriyasiga ilm o‘rganish maqsadida bordi.

1860 yilda Germaniyadan vataniga qaytgan Sechenov Peterburgda medika-xirurgik akademiyasining 1-rus fiziologik maktabini tashkil qildi. Bu maktab fizika-kimyoviy yo‘nalishda edi. Bu davrda kelib Rossiyada eski iqtisodiy taraqqiyot yemirilayotgan, sinflar orasidagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar rivojlanayotgan edi. Bu ziddiyatlar bilan bir paytda odam tanasining tuzilishi, uning organizmi va psixik funksiyaning o‘zgarishi masalasi ham mavjud edi. Sechenov va Chernishevskiyning asosiy raqiblaridan biri bo‘lgan P.D.Yurkevich shunday yozgan edi: hozirgi zamonda fiziologlari kundalik hayotidagi o‘zgarishlarni hamda bu o‘zgarishlarni paydo bo‘lishi va sabablarini ortiqcha o‘rganmoqda. P.D.Yurkevich va uning tarafдорлари fikrini «Sovremenik» jurnali xodimlari qoralashib chiqdilar. Ular fiziologik va psixologik hodisalarning materialistik dunyoqarash nuqtai-nazaridan

yoqlab chiqdilar. I.M.Sechenov revolyusion- demokratik intellegensiya bilan yaqin aloqada bo‘lib «Nima qilmoq kerak?» asarini yaratgan.

Jon haqidagi bahslar keskinlashgan paytda Sechenov miya ustida olib borgan ekperimentlarida tormoz markazlari, ya’ni harakat aktivligini ushlab turadigan qo‘zg‘alish, «lokalizatsiya» qilingan nerv markazlarini ochib beradi. Bu buyuk kashfiyot edi.

Bu bilan u nafaqat bosh miya fiziologiyasida yangi bo‘lim ochdi, balki bu organizmning funksiyalari haqidagi tasavvurlarni umuman o‘zgartirib yubordi. Bu kashfiyot fiziologik ongga tormozlanish haqida yangi tushuncha olib kirdi. Olim bu bilan esa tormozlanish va qo‘zg‘alish o‘rtasidagi o‘zar munosabatga aloqador bo‘lgan neyrodinamik muammolarning keng kompleksini ochib berdi. Lekin bu keyinroq sodir bo‘lgan edi.

O‘sha vaqtida Sechenov uchun muhim narsa shu ediki, u tajriba yo‘libilan miya moddasini kichkina bir bo‘lagidan chiqayotgan iroda asrlar bo‘yi yurakdan chiqadi deb hisoblanib kelinayotganligi noto‘g‘ri ekanligini isbotlab berish kerak edi. Ya’ni inson irodasi faqat ruhga emas, balki inson organizmining bir bo‘lagi hisoblangan miya faoliyatiga bo‘ysunishini isbotlashi kerak edi. Axir iroda fe’l-atvorning eng ishonchli belgisi qo‘zg‘ovchilarga qarshi tura olishni bilish, shartsiz impulslarni ushlab qolish edi. Bu belgilarning hammasi eksperiment guvohlik bergani kabi markazdan miyaga tortiladi. Bu kashfiyotdan foydalaniib, Sechenov 1863 yil «Sovremennik» jurnaliga o‘zining «Inson miyasining reflekslari» nomli birinchi psixofiziologik traktatini yozadi. Sechenov maqolasidagi g‘oyalar rus zamini bo‘ylab uzoqlarga tarqaldi.

Sechenov 1866 yilda «Nerf sistemasining fiziologiyasi», 1867 yilda «Sezgi organining fiziologiyasi» nomli asarini yozdi. Sezgi organining fiziologiyasi ustida ish olib borish jarayonida Sechenov psixologiyaga ham to‘xtalib o‘tdi.

Kavelinning asariga javobida hamda «Kim va qanday psixologiyani o‘rganadi?» (1872) nomli maqolasida Sechenov psixologiyani maxsus fan sifatida tan oladi. Uning fikricha, psixologyaning fiziologlar yaxshi o‘rgana oladilar.

1870-yillarning boshlari hali psixologiya fan sifatida tan olinmagan edi, shuning uchun faylasuflarda uni tushunadigan g‘oyalar yurar edi.

Inson psixikasi haqida Sechenovga Leybnis, Shopengauer, Gelmgols va boshqalar o‘z fikrlarini bildirgan edilar.

Sechenov ta’limotiga binoan psixika yuksak darajada tashkil topgan materianing xususiyati yoki miyaning mahsulidir. Odatta psixika tashqi dunyoning sezgi organlari orqali insonning miyasida bevosita ta’sir etish asosida vujudga kelib, bilish jarayonlari, shaxsning xususiyatlari, holatlari, diqqati, his-tuyg‘usi, xarakter xislatlari, qiziqish va ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi.

Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo‘zg‘atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat bog‘lanishlarni psixik hodisalarining fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta’sirining natijasida hosil bo‘ladi. Muvaqqat nerv bog‘lanishlari nerv jarayonlarining **irraditsiyasi**, konsentratsiyasi hamda o‘zar induksiyasi qonunlari zamirida ro‘y

beradi. Bu qonunlar yig‘indisidagi muvaqqat bog‘lanishlar assotsiatsiyalari qanday yuz berayotganini, qanday shart-sharoitda tormozlanishi muvaqqat bog‘lanishlarning yo‘qolayotganini yoki paydo bo‘layotganini tushuntirish imkonini beradi.

Psixofiziologik qonuniyatlariga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog‘lanishlarining birlashishi mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta’sirida hosil bo‘ladi. Psixikani tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o‘rganishdir.

Sechenov ham o‘zining «Bosh miya reflekslari» asarida o‘scha zamon fiziologiyasining ilg‘or yutuqlariga va shaxsiy tekshirishlariga asoslanib turib, odamning psixik faoliyati qandaydir moddiy bo‘lmagan ruhning namoyon bo‘lishi emas, balki faqat miyaning faoliyatidir xolos, deb dadillik bilan aytadi. Sechenov psixik jarayonlarning asosi bosh miya reflekslaridir, degan ta’limotni ilgari suradi. «Ongli va ongsiz psixikaning barcha harakatlari, - deb yozadi u, - o‘zining kelib chiqishi jihatidan reflekslardir». U ilmiy psixologiyaning asosiy vazifasi bosh miya funksiyalari bo‘lgan psixik jarayonlarning kelib chiqishini o‘rganishdan iborat deb hisoblaydi. U yana shunday deydi: «Psixik hodisalarining ilmiy jihatdan haqiqiy analiz qilib berishning kaliti fiziologiyaning qo‘lidadir».

Sechenovning psixik jarayonlarni mohiyatini tushuntirib beradigan asosiy qonun - qoidalari mana shulardan iborat edi.

**Tayanch iboralar:** fiziologiya, vitalizm, “yashirin kollej”, parallelizm, “emotsiya va erk”, bosh miya reflekslari, refleksologiya.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi
2. Psixologik jarayonning oddiyidan murakkabga qarab o‘sishi
3. I.M.Sechenovning psixika haqidagi tasavvurlari

### **6-mavzu. O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi va hozirgi holati**

**Reja:**

1. O‘zbekistonda pedagogik va psixologik laboratoriylar ochilishi
2. O‘zbekistonda psixologiya rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlar

#### **1.O‘zbekistonda pedagogik va psixologik laboratoriylar ochilishi**

Dastlabki pedagogik va psixologik markazlar 1918 yili Toshkent va keyinchalik Chimkent shahrida tashkil qilingan. Pedagogik muzey va pedagogik laboratoriya universal o‘quv tarbiya muassasasi bo‘lib ta’lim tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan hamma vazifalarni qamrab oladi. Buning yordamida ta’lim metodlari ishlab chiqarilgan, shu yerning o‘zida sinalgan va respublikaning boshqa o‘quv muassasalariga tarqatilgan. Ishning bunday tashkil qilinganligi tadqiqot qilishga imkon bergan. Pedagogik

laboratoriya haqida nizomda shunday deyilgan: bu joy pedagogik fikr va ishning markazi bo‘lishi lozim. Shuning uchun pedagogik ishning har bir yangilagini o‘qitishda laboratoriyada to‘plangan boy tajribadan foydalanish imkoniyati berilishi kerak, bu imkoniyat bevosita maktablarga berilishi lozim. Boshqa laboratoriya va kabinetlar bilan bir qatorda pedagogik laboratoriya va pedagogik muzeyda eksperimental psixologik laboratoriyasi ham mavjud bo‘lib, bu yerda turli xil psixologik tajribalar amalga oshirilgan. 1919 yili 1 aprelda Kavman Xorvat maorif komissariga xat yo‘llab, davlat ko‘zi ojiz, gung, ruhiy kasal va psixik taraqqiyoti hamda psixikasi muvozanatsiz bolalarni o‘z tarbiyasiga olishi zarurligini ta’kidlagan. Xuddi shu maqsadda butun bir maxsus muassasalar tizimini tashkil etishni taklif etgan. Xorvatning taklifi bir necha yo‘nalish bo‘yicha diqqatga sazovordir. Birinchidan, bu kompleks xarakterdagи ish bo‘lib, biron bir psixonevrologik kasallik nazardan chetda qolmagan. Ikkinchidan, bu rejada qattiq ketma-ketlikning bir necha bosqichi nazarda tutilgan.

1. Kasallik diagnostikasi (tadqiqot darajasi);
2. Kasallarni davolash (amaliy tibbiy darajasi);
3. Kasallarni tarbiyalash va ta’lim berish (amaliy ta’lim darajasi).

Birinchi darajani psixologik laboratoriya, ikkinchi darajani maxsus davolash muassasasi, uchinchi darajani maktablar amalga oshirishi ko‘zda tutilgan. Turkistondagi muassasalardan biri «o‘zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti», hozirgi Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti 1929 yili tashkil qilingan bo‘lib, hozirgi kunga qadar bu institut o‘qitishning pedagogik konsepsiyanini, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida ta’lim-tarbiya nazariyasini yaratuvchi yagona markaz hisoblanadi. 30-yillar boshlarida institut tarkibida quyidagi kabinetlar mavjud bo‘lgan:

1. Sotsial gigiena.
2. Iqtisod.
3. Pedalogo pedagogik.
4. Psixologik laboratoriya.

Institut tashkil bo‘lgan vaqtidan boshlab yerli xalq xususiyatlari va ijtimoiy muhitni chuqur tadqiq qilish, bolalarning psixologik ijtimoiy-madaniy xususiyatini hisobga olgan holda darslarni yaratish bilan shug‘ullandi. Institut faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat edi:

1. Ilmiy eskpeditsiyalar uyuştirish;
2. Bolalar xarakterini o‘rganish;
3. Pedagogik kadrlar tayyorlash.

Ushbu institutning faoliyati Bendrikov, Zavarova, Yusupov, Tokanaev, Debenzov, Mirsharipov, Muhiddinov kabi olimlarning nomlari bilan chambarchas bog‘liq. 30 yillarda bu institutda jahon psixologiya faniga katta hissa qo‘sghan olimlardan biri Aleksandr Romanovich Luriya ishlagan. U institut doirasida o‘tkazgan tadqiqotlari asosida keyinchalik “Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida” degan asarini nashr qildi. O‘zbekistonda psixologiya fanining shakllanishiga katta hissa qo‘sghan olimlardan yana biri P.Ivanov hisoblanadi. 1927 yil Samarqanddagi o‘zbek pedagogika institutida (pedakademiya) eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil qilgan. 1940 yilda u pedagogika institutlari talabalari uchun psixologiyadan birinchi o‘quv qo‘llanmasini nashr qilgan. Keyinchalik 1934 yili Samarqand pedagogika institutining o‘zbek davlat universitetiga aylanishi munosabati

bilan Ivanov o‘z laboratoriysi bilan Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ko‘chib o‘tadi. Pedagogika o‘quv muassasalarida ilmiy pedagogik potensialning yetishmasligi tufayli dastlabki psixologiya darslari tarjimonlar yordamida olib borilgan keyinchalik bu tarjimonlarning o‘zlari mustaqil ravishda psixologiyadan o‘zbek tilida ma’ruzalar o‘qiy boshlashgan. Aliasqar Usmonov, Toxiriyyxon Askarxo‘jaev, Bayburova, Rahmatova va boshqalar psixologiya o‘qituvchilari bo‘lishgan. Ivanovning (1891-1968 yillar) psixologiyadan 75 dan ortiq ilmiy ishlari nashr qilingan. Uning 1927 yilda nashr qilingan

## **2.O‘zbekistonda psixologiya rivojiga katta hissa qo‘shtgan olimlar**

«Umumiy pedagogika» bo‘yicha qisqa ocherk, «mактабшунослик» tarbiyaning umumiy metodlari 40-yillar va 54-yillarda «Umumiy psixologiya», 62-yilda

«Ta’limning psixologik asoslari» kabi asarlari O‘zbekistonda psixologiya fani rivojlanishiga juda katta hissa qo’shdi. Sh.A. Bayburova, Usmonov kabilar bevosita uning rahbarligida faoliyat ko‘rsatishdi. 1959 yil uning rahbarligida M.G.Davletshin, Bekboev, Muzaffarovlar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi. 1963 yil O‘zbekistonda psixologiyadan birinchi bo‘lib Krasnoboev Ilya Berovich (1896-1963) Toshkent Davlat universiteti filologiya fakulteti logika va psixologiya kafedrasи mudiri

«Yuqori sinf o‘quvchilarida e’tiqod, axloqiy tushunchalarning shakllanishi» mavzusidagi doktorlik ishini himoya qilgan. Krasnoboenvning ilmiy faoliyati 20-yillarda O‘zbekistonda tadqiqotlar bilan bog‘liq. Uning rahbarligi ostida logika va psixologiya kafedrasи a’zolari: 3.Mo‘minova, V.Ya. Maros, A. Abdusattorov, V.I.Sofe, A. Gulyamov, R.V. Gulyamovlar turli xil ob’ektlarda psixologiya va logika bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar. Bu tadqiqotlar O‘zbekistonda xalq ta’limi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga yordam berdi. M.Vohidov (1927-1989 yillar) 1955 yilda Leningradda nomzodlik ishini himoya qilgan. U dastlab Andijonpedagogika institutida, so‘ngra Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy tadqiqotlar institutida ishlagan. 1966 yil Toshkent Davlat universiteti psixologiya kafedrasи mudiri etib saylangan. Zinin, L.I. Sofe ishtirokida va markazning iste’dodli olimlari yordamida bu yerda o‘quv eksperimental laboratoriya tashkil qilingan. M.Vohidov tomonidan maktabgacha pedagogika bilim yurtlari uchun, pedagogika institutlari uchun darsliklar yozilgan, oxirgi yillarda M.Vohidov, A.Petrovskiyalar tahriri ostidagi «Umumiy psixologiya» darsligi tarjima qilingan va ayni paytda milliy va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga oлган holda o‘zbek tilida darslik yaratish bilan mashhur bo‘lgan.

Davletshin Muhammad Gabdulgalimovich 1923 yilda tug‘ilgan. Toshkent Davlat Universitetining psixologiya kafedra mudiri, psixologiya fanlari doktori, 1957 yilda ««5» va «7» sinf o‘quvchilarida texnik qiziqishlarning shakllanishi» mavzusida nomzodlik, 1971 yil «O‘quvchilarni texnik qobiliyatlar psixologiyasi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. M.G.Davletshin rahbarligida, uning bevosita maslahatlari yordamida O‘zbekistonda 100 dan ortiq nomzodlik va doktorlik ishlari himoya qilingan. O‘zbekistonda turli xil muammolar bo‘yicha umumiyl, yosh psixologiyasi, sotsial psixologiya bo‘yicha F.S. Ismoilova, D.Z. Zaynobiddinov, Majidov, I.Mahmudov, L.K. Saitov, M.I. Musaeva, V.G. Gorobes, D.D. Sharipov, R.K. Shohnazarov, J.U. Mavltonov, V.Majitova, M.I.Sagatov, D. Egamberdieva, G. Abdusamatov, K. Sobirov, A. Sindarov va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib

borganlar. Bundan tashqari turli mavzularda 25 ta ish himoya qilingan. Bulardan nutq psixologiyasi bo'yicha 7 ta ish: (P.P Zamin, N.N. Nigmatov, A.I. Arjonova, X. Ochilova va boshqalar), xotira psixologiyasi bo'yicha 4 ta ish: (P.I. Ivanov, M.V. Voxidov, X.M. Gafurova, V.P. Ivanova); diqqat bo'yicha M.X. Rahmonova; ta'limtarbiya bo'yicha 14 ta ish (G'oziev, Qodirov, Rasulov, Usmonova, Krasnoboev, Tokareva va boshkalar);

Mehnat psixologiyasi bo'yicha 4 ta ish (Turg'unov, Sotiboldiev, Yeliseev, Xolmatov); shaxs mavzusi bo'yicha 3 ta ish (G'ofurov, Saidullaev, Shakovolov); differensial psixodiagnostika bo'yicha 1 ta ish (Madmarov); yuridik psixologiya bo'yicha 2 ta ish (Ibragimova, Zapryagaev); sport psixologiya bo'yicha 3 ta ish (Gapparov, A.Gaynutdinov, R.Gaynutdinov); neyropsixologiya bo'yicha

1 ta ish (Bobojonova); psixologiya tarixi bo'yicha (S.Raximov) sotsial psixologiya bo'yicha 3 ta ish (Karimova, Abdumominov, Tursunov) va boshqa turli psixologiyani bo'limlari bo'yicha ko'pgina olimlar ish olib borib, O'zbekistonga psixologiya fanini olib kirib, to'laligicha ochib berdilar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda psixologiya tarmoqlari kuchayib, unga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi yetishib chiqqan barcha olimlarimiz O'zbekistondagi psixologiyani chet mamlakatlar psixologiyasi kabi yuqori cho'qqiga chiqishida katta hissa qo'shishga intilmoqdalar. Odamlar ongiga esa milliy psixologiya asosida, ya'ni milliylik ruhida tarbiyalab, ularni ongiga psixologiyani sindirmoqdalar. O'zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoli ilgarigidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni o'qitish bo'yicha muassasa tayyorlov kurslari va markazlar ochilib kishilar ongiga yetib

bormoqda. O‘zbekistonda psixologiya fanini rivojlanishida B.Qodirov, G‘.Shoumarov, V.Karimova, M.Vohidov, M.Davletshin, E.G‘oziev va boshqa olimlarning hissasi katta. Hozirgi kunda psixologiya fani ham o‘z tarmoqlarini rivojlantirmokda. Xulosa qilib aytganda, psixologiya fanini rivoji odamlar hayotiga ya’ni yashash tarziga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

**Tayanch tushunchalar:** pedagogik-psixologik markazlar, eksperimental laboratoriylar, psixonevrologik kasallik

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O‘zbekistonda psixologiya fanining hozirgi holati.
2. O‘zbekistonda psixologiyaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar.
3. O‘zbekistonda birinchi eksperimental laboratoriya haqida gapiring.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali Ibn Sino. «Tib qonunlari asari». Toshkent – 1992 y.
2. G‘oziev E.G‘. «Tafakkur psixologiyasi» Toshkent – O‘qituvchi – 1990y.
3. G‘oziev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T. 2002.
4. G‘oziev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. T., 1990.
5. G‘oziev E.G‘. Umumiyl psixologiya. T., 2010.
6. G‘oziev E.G‘. Xotira isixologiyasi. T., 1994.
7. Davletshin M.G. «Psixologiya tarixi» dastur. T.-1996 y.
8. Davletshin M.G., To‘ychieva S.M. Umumiyl psixologiya. Toshkent. 2002.
9. Iskandarov B. «O‘rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar.» Toshkent. «O‘zbekiston». –1993 y.
10. Karimova V. Psixologiya.O‘quv qo‘llanma,- T.: A. Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. 2002.
11. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. T., 2002.
12. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: O‘qituvchi. 1994.
13. Nishonova Z.T. «Psixologiya tarixi» T-2002 y.
14. Petrovskiy «Umumiyl psixologiya» Toshkent – «O‘qituvchi» – 1992 y.
15. Xayrullaev M.M. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar». Toshkent -1995 y.

Internet saytlari

1. <http://www.psychology-online.net>
2. <http://flogiston.ru/>

## **IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

### **1-mavzu. Antik davr psixologiyasi va jon haqidagi psixologik bilimlarning vujudga kelishi.**

Ushbu mavzu bo'yicha tinglovchilarga: Antik davr psixologiyasida jon haqida materialistik ta'limotlarning asosiy holatlari. Antik materializm cho'qqisi, atomistik materializm. Demokrit va uning ustozи Livkipp dunyoqarashlari (mill.avv.U asr). Antik materializmda «jon» haqidagi ta'limotlar. Demokritning jon haqidagi tushunchasi. Epikurning jon haqidagi tasavvuri. Jonning 8 qismi haqidagi stoiklar tasavvurlari. Lukresiy jon va ruxning ajratganligi.

Ong haqida ta'limotlar. Stoiklarning affektlar ta'limotiga qo'shgan hissalari va ularning affektlar bilan kurashishga oid tavsiyalari. Iroda va xarakter muammosi. Stoiklarda ozodlik tushunchasi. Aflatun psixologiya haqida. Aflatun ta'limotida ruhning o'limdan keyingi hayoti xaqidagi tasavvurlar. Arastu ta'limotida - jon tushunchasi. Jon klassifikatsiyasi: o'simlik, hayvon, inson kabi tushunchalar mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi. Ong psixika mezoni sifatida alohida belgilanishi. Dekart ta'limotining asosi. Psixika inson ichki dunyosi sifatida. Dekart ta'limotida «jon» va «tana» tushunchasi. Dekart dualizmi (1596-1650).

Spinoza psixologiyasi (1632-1677). Spinozaning monistik ta'limoti. Falsafiy ta'limotlarda (XVII) empirik psixologiyaning yuzaga kelishi. F.Bekon - empirik psixologiya asoschisi. T.Gobbs (1588-1679) ta'limotining asosiy g'oyalari. Djon Lokk (1632-1704) empirik psixologiyaning otasi. Uning nazariyasi mohiyati. Lokk tomonidan 3 xil sifatning ajratilishi: birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi. D.Lokk karashlarida ong muammosi. G.Leybnis (1646-1716) psixofiziologik muammosi. Assotsionistik psixologiyaning vujudga kelishi va D.Berkli (1685-1753). D.Yum (1711-1776) «Inson tabiatni xakida traktat» (1739) va «Inson bilishini tadqiq etish» (1748) asarlarida assotsiatsiya tushunchasining rivojlantirilishi. D..Gartli (1705-1757) qarashlari. Uning psixologiyasida xoxish (istak) muammosi asosiy, xal qiluvchi urin egallashi. XVIII asr fransuz psixologiyasida empirik yo'nalishning paydo bo'lishi. Buyuk fransuz empirik mutafakkirlari - faylasuf olimlari: J.Lametri, K.Gelvesiy, D.Didro, P.Golbax, F.Volter, E.Kondelyak, Sh.Monteske, J.J.Russo. XVIII asrda Rossiyadagi psixologik fikrlar. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida nemis klassik falsafasidagi psixologik g'oyalar.

XIX asrning birinchi yarmida nemis empirik psixologiyasining paydo bo'lishi. I.F.Gerbart (1776-1841) psixologiyasida ruhning 2 ta asosda tashkil topishi. Gerbart shogirdlari: T.Vayts (1821-1864), M.Kasarus (1824-1903) va G.Shteyntal (1823-1899). 19 asrda assotsiativ psixologiyaning rivojlanishi. Djeyms Mill (1773-1836), Aleksandr Ben (1818-1903), Gerbert Spenser (1820-1903). Rossiyada psixologik fikrlarning rivojlanishi.

### **2-mavzu. Psixologiya ilmiy maktablari va yo'nalishlari.**

Ushbu mavzu bo'yicha tinglovchilarga: G.Ebbingauz (1850-1909)ning xotira haqidagi ishlari. Myuller G.Yu. (1850-1934) Ebbingauz ishlarining davomchisi ekanligi.

## Umumiy psixologiya

Psixologiyada inqiroz. Inqirozning pozitiv mohiyati. Bixevoirizm. AQShda bixevoirizmning vujudga kelishi. Dj.Uotson (1878-1958) talqini. «Psixologiya bixevoirist nuqtai nazari bo‘yicha» (1913) asari. Neobixevoirizm asoschilari E.Tolmen (1886-1959).

Geshtaltpsixologiya. «Geshtalt» tushuncha X.Erenfels tomonidan kiritilganligi (1890). Berlinda geshtaltpsixologiya maktabi vujudga kelishi; M.Vertgeymer, K.Koffka (1986-1941), V.Keller (1887-1967), K.Levin (1890-1947). Tadkikotlarda iroda, affektlar, extiyoj, tafakkur, idrok masalalari ifodalanishi. Psixoanaliz maktabi. Z.Freyd (1856-1939) psixoanaliz asoschisi sifatida. Ong, ongosti, ongsizlik tushunchalarini va ularning bugungi kun fanida o‘rganilganlik holati. A. Adler (1870-1937) va K.Yung. Psixikaning ongga boglik bulmagan xolda mavjudligi. Neofreydizm. K.Xorni, E.Fromm, G.Salliven g‘oyalari.

Fransuz sotsiologik maktabi. E.Dyurkgeym (1858-1917). Ibtidoiy tafakkur konsepsiyasining vujudga kelishi. V.Diltey (1833-1911) hayot falsafasining asoschisi sifatida. Chet el psixologiyasini rivojlanishining hozirgi holati va uning muhim tendensiyalari. Kognitiv psixologiya - hozirgi zamon psixologiyasining keng tarqalgan yo‘nalishlaridan biri ekanligi. Kognitiv psixologiya manbaida Dj.Bruner, T.Saymon, P.Lindsley, D.Norman, D.R.Anderson, X.Festinger, F.Xayderlar yirik namoyandalar ekanligi. U.Nayser, D.Brodbeng, D.Payonolar ta’limoti vujudga kelishida informatsion yo‘nalishning ta’siri. Logoterapiya - hozirgi zamon ta’sirchan yo‘nalishlaridan biri sifatida. Avstriyalik psixolog V.Frankl (1905) va uning haet mazmuni tug‘risidagi g‘oyalari hamda uning psixologiya uchun ahamiyati kabi tushunchalar mohiyati bayon qilinadi.

### 3-mavzu. O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga: M.Voxidovning psixologiya faniga qo‘sghan hissasi. M.G.Davletshin maktabi. E.G‘.G‘oziev komil inson konsepsiysi. G‘.B. Shoumarov, V.M.Karimovalarning ijtimoiy va etnopsixologiya maktabi, B.R.Qodirov psixofiziologiyani, R.Z.Gaynutdinov, A.Jabborovlarning yosh va pedagogik psixologiya sohasini, Sh.Baratov, Z.T.Nishonovalarning psixologik xizmat ko‘rsatish sohasiga qo‘sghan hissasi O‘zbekistonda psixologiya fani bo‘yicha ilmiy izlanishlar yo‘nalishlari.

L.Ye.Lebedyanskaya, P.A.Rudik, Z.G.Gapparovlarning sport psixologiyasini rivojlanishiga qo‘sghan hissasi kabi tushunchalar mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

## V.TESTLAR BANKI

**“PSIXOLOGIYA TARIXI”**

# Umumiy psixologiya

## moduli bo'yicha

### "Sport psixologiyasi" qayta tayyorlash kursi uchun test

#### 1. Psixologiya fani nimani o'rgatadi?

Psixik jarayonlar va shaxsning individual psixologik xususiyatlarini umumiy qonuniyatlari namoyon bo'lish mexanizmlari va faqatlarni o'rganadi;

Kishiga ta'lif tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganadi;

Turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to'umrining oxrigacha psixik rivojlanish jarayonini shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi;

Odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlarini natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarni o'rganadi.

#### 2. Psixik jarayonlar va shaxsning individual psixologik xususiyatlari, umumiy qonuniyatlari, namoyon bo'lish mexanizmlari va faqatlarini psixologiyaning qaysi tarmog'i o'rganadi?

Umumiy psixologiya;

Pedagogik psixologiya

Yosh davrlar psixologiyasi

Ijtimoiy psixologiya

#### 3. Psixologiyaning predmeti qaysi bandda to'g'ri keltirilgan?

Aniq bir shaxs uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli ichki kechinmalari amallari va faoliyatlarini o'ziga xos tarzda ongi tomondan aks ettirilishi;

Shaxsning jamiyatdagi xulq-atvori va turli ichki kechinmalari;

Shaxs amal va faoliyatlarini o'ziga xos tarzda ongi tomondan aks ettirilishi;

Aniq bir shaxs;

#### 4. Psixologiyaning alohida fan sifatida ajralib chiqishiga nima asos soldi?

Arestotel tomonidan «Jon haqida»gi asarining yaratilishi;

1879 yilda nems olimi Vilgelm Vunt Leybnits universitetida eksperimental psixologik laborotoriyaga asos solishi;

XIX asroxirda Bixevoirizm oqimining paydo bo'lishi

XVIII asrda frantsuz olimlari tomonidan psixika miyaning funktsiyasi ekanligi haqidagi ta'limotning yuzaga kelishi

#### 5. Inson ongingin tashkil etuvchi sodda elementlarni ajratib olishdan iborat maqsadning qo'yilishi asosida psixologiyada qaysi yo'nalishga asos solindi?

Strukturalizm

Geshtalt psixologiyasi

Freydizm

Bixevoirizm

#### 6. Nafaqat ong tizimi elementlari, balki ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan faoliyat natijalariga asoslangan belgilar asosida ham inson xulq-atvoriga baho berish mumkinligini psixologiyada qaysi yo'nalish namoyondalari isbotlaganlar?

Funksionalizm

Freydizm

Geshtalt psixologiyasi

Bixevoirizm

## Umumiy psixologiya

**7. Bixevoirizm yo'nalishi namoyondalari qaysi bandda ko'rsatilgan?**

**E. Torndayk, D. Uyutson**

E.Tetchener, V.Jeyms

Z.Freyd, K.Yung

V.Vunt

**8. Geshtaltpsixologiya yo'nalishi namoyondalarini ko'rsating?**

**V.Kener, K.Kofka**

E.Tetchener, V.Jeyms

Z.Freyd, K.Yung

E. Torndayk, D. Uyutson

**9. Odamlarning jamiyattdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarni psixologiyaning qaysi tarmog'i o'rghanadi?**

**Ijtimoiy psixologiya**

Pedagogik psixologiya

Yosh davrlar psixologiyasi

Yuridik psixologiya

**10. Jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojlar individual, yoshga oid xususiyatlarini aniqlash va haridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini o'rGANISH modalar psixologiyasi kabi masalalarni psixologiyani qaysi tarmog'i ko'rib chiqadi?**

**Savdo psixologiyasi**

Harbiy psixologiya

Muhandislik psixologiyasi

Pedagogik-psixologiya

**11. Sportchilar shaxsi va faoliyatining psixologik xususiyatlarini, ularni psixologik jihatdan tayyorlashning shart-sharoitlari va vositalarini, sportchining tashqi chiniqqanligi va safarbarlikka tayyorligining psixologik mezonlarini, musobaqalarii tashkil etish va o'tkazish bilai bog'liq psixologik omillarni psixologiyaning qaysi tarmog'i o'rghanadi?**

**Sport psixologiyasi**

Yosh davrlar psixologiyasi

Savdo psixologiyasi

Muhandislik psixologiyasi

**12. Psixika turmush tarzi bilan belgilanishi va turmush tarzi o'zgarishlariga qarab o'zgarishi psixologiya fanining qaysi printcipiga xos?**

**Determinizm printsipi**

Ong va faoliyat birligi

Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi

Psixikani tadqiq etish insonning ongli faoliyatini o'rGANISHdir

**13. Ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi emas, lekin ular bir-biriga aynan o'xshash ham emas, ammo birlikni tashkil etadi. Bu psixologiya fanning qaysi printcipini ifodalaydi?**

**Ong va faoliyat birligi**

Determinizm printsipi

Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi

# Umumiy psixologiya

Psixikani tadqiq etish insonning ongli faoliyatini o'rganishdir

14. .... yuksak darajada tashkil topgan materi, ya'ni miyaning xossasi bulib, bu xossa ob'ektiv borlikni, sub'ektiv aks ettirishdan iborat. Nuqtalar o'rniiga kerakli so'zni qo'ying?

**Psixika**

Faoliyat

Ong

Xulq-atvor

15. Tashqi muxitning ta'sirini qabul qiluvchi apparatni tashkil etuvchi xujayralar guruxi qanday nomlanadi?

**Retseptorlar**

Effektorlar

Neyronlar

Boshqaruv pulti

16. Qo'zg'atish boshqa nervlarga o'tkazadigan neyron tolsi qanday ataladi?

**Akson**

Sinaps

Dendritlar

Nerv xujayrasi

17. Eksperiment metodining turlari qaysi bandda to'g'ri berilgan?

**Tabiiy va laboratoriya eksperiment**

Laboratoriya eksperimenti

Individual va guruhiy eksperiment

Tabiiy eksperiment

18. Kuzatish metodining turlari qaysi bandda to'g'ri sanab o'tilgan?

**Ob'ektiv kuzatish va sub'ektiv kuzatish**

Oddiy kuzatish, murakkab kuzatish

Ilmiy kuzatish, oddiy kuzatish

Og'zaki kuzatish, yozma kuzatish

19. G'oyalar psixologiyasini EHM dagi matematik programmalashtirish tamoyillariga moslashtirish nazarda tutilishi modellashtirish metodining qaysi turiga xos?

**Kibernetik modellashtirishga**

Texnik modellashtirishga

Mantiqiy modellashtirishga

Matematik modellashtirishga

20. Ong bu...?

psixikaning oliy, uni yaxlit bir holatga keltirib turuvchi shakli bo'lib, odamlarning mehnat faoliyati va o'zaro munosabatlari jarayonida shakllagan

Odamning borliqni bilishga yo'naltirgan faolligidir


Bizning bilimlarimiz, fikr-muloxazalarimiz, tushunchalarimiz, o'z-o'zimizga baho berishimizdir

Tevarak atrofimizdagи olam haqidagi bilimlarimiz mahsulidir



## VI.KEYSLAR BANKI

**KEYS-STADI O'QITISH TEXNOLOGIYaSIGA KIRISH**



- 1. Keys: umumiy tushuncha.**
- 2. Keys-stadi tipologiyasi.**
- 3. Keys-stadiga asoslangan o‘quv mashg‘ulotining texnologik chizmasi.**

### **1.Keys: umumiy tushuncha**

**Keys-stadi** (inglizcha sase – vaziyat, holat, study -o‘rganish). Keys-stadida bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagи yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan o‘qitish usulidir.

**Keys-stadi** - o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

### **2.Keys-stadi tipologiyasi**

## Umumiy psixologiya

Tipologik belgilari	Keys-stadi turi
Asosiy manbalari	1. Daladagi 2. Kabinetdagi
Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
Hajmi	1. Qisqa (lo‘nda) 2. O‘rtacha miqdordagi 3. Katta (uzun)
O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli	1. Savolli 2. Keys-stadi topshiriq
Didaktik maqsadlari	1. Muammo, yechim yoki konsepsiyanı izohlash 2. Treningli, o‘quv mavzui/predmeti bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar orttirishga mo‘ljallangan 3. Tahlil va baholashga o‘rgatuvchi 4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o‘rgatuvchi 5. Vaziyat sub‘ekti rivojining yangi strategiyalari va yo‘llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag‘batlantiruvchi
Rasmiylashtirish usuli	1. Bosma 2. Elektron 3. Video-Keys-stadi 4. Audio-Keys-stadi 5. Multimedia-Keys-stadi

**3.Keys-stadiga asoslangan o‘quv mashg‘ulotining  
texnologik chizmasi  
1-variant (keys-stadi savolli)**

*Keys bilan ishlashga 1 ta o‘quv mashg‘uloti ajratilgan. Keys kichik yoki o‘rtacha o‘lchamli.*

Билимларни фаоллаштириш (блиц-сўров, ўйланг-жуфтликка бўлининг-фикр алмашинг, аукцион)

Кейс-стадига кириш

Кейс-стади билан таништириш

Кейс-стади билан якка тартибда ишлашни ташкил қилиш  
(Ўқув топширигини тарқатиш, йўриқнома бериш).

Кейс-стадини жамоавий тарзда ечиш (мунозара – унинг тузилиши кейс оҳирида келтирилган саволлар билан белгиланади, - муаммоли вазиятни таҳлил қилиш ва ҳал этиш, бундай амалий вазиятдаги фаолият бўйича тавсияларни ишлаб чиқишига қаратилган)

Ўқитувчи резюмеси

Тингловчиларнинг ўқув ютуқларини баҳолаш

### **2-variant (*keys-stadi savolli*)**

*Keys bilan ishlashga 1 ta o‘quv mashg‘uloti ajratilgan. Keys o‘lchami unchalik katta emas.*

**Билимларни фаоллаштириш (блиц-сўров, ўйланг-жуфтликка бўлининг-фикр алмашинг, аукцион)**

**Кейс-стадига кириш**

**Кейс-стади билан таништириш**

**Кейс-стади билан якка тартибда ишлашни ташкил қилиш  
(Ўқув топширигини тарқатиш, йўриқнома бериш)**

**Кейс-стадини жамоавий тарзда ечиш (мунозара – унинг тузилиши кейс оҳирида келтирилган саволлар билан белгиланади, - муаммоли вазиятни таҳлил қилиш ва ҳал этиш, бундай амалий вазиятдаги фаолият бўйича тавсияларни ишлаб чиқишига қаратилган)**

**Ўқитувчи резюмеси**

**Тингловчиларнинг ўқув ютуқларини баҳолаш**

*Keys-stadi bilan ishlashga 1 ta o‘quv mashg‘uloti ajratilgan. Keys-stadi o‘rtacha o‘lchamli*

Билимларни фаоллаштириш (блиц-сўров, ўйланг-жуфтликка бўлининг-фикр алмашинг, аукцион)

Кейс-стадига кириш

Кейс-стади билан таништириш

Кейсни кичик грухларда ечиш (ўқув топшириқни бажариш, грух иши наатижаларини тақдимотга тайёрлаш)

Таклимот

Муаммоли вазиятни тақдим этилган ечим вариантларини жамоавий тарзда мухокама қилиш

Грух ишини ўзаро баҳолаш

Ўқитувчи резюмеси

Тингловчиларнинг ўқув ютуқларини баҳолаш

## VII.GLOSSARY

## GLOSSARIY

**Ontogenetik psixologiyasi** - inson psixikasining yosh jihatdan ontogenezi, psixik jarayonlar hamda inson shaxsi xislatlarining ontogenetikini o'rganuvchi fan.

**Psixologik yosh** - o'zining psixologik ontogenetik darajasiga ko'ra mos keluvchi jismoniy yoshi.

**Psixogigiena** - odam ruhiy salomatligini saqlash va mustaxkamlash haqidagi fan

**Psixologik-pedagogik tashxis** (psixodiagnostika) - bolalarning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlar, qadriyatlar yo'nalganligi ijtimoiy ustanovkalari va munosabatlari, bilish va o'quv faoliyati motivatsiyalarini inobatga olgan holda ularning individual-psixologik va shaxs xususiyatlarini aniqlash va baholash

**Test** – inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi

**Intervyu** - bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni toplash usuli

**Genotip** - inson tomonidan o'z avlod – ajdodlari, xususan ota – onasidan nasliy yo'l biln olinadigan genlar yosh belgilar majmuidirinson tomonidan o'z avlod – ajdodlari, xususan ota – onasidan nasliy yo'l biln olinadigan genlar yosh belgilar majmuidir Psixik ontogenetik qonuniyatlar - bir yosh davridan boshqa davrga o'tishda inson psixiksi va xulq – atvorida yuzaga keluvchi o'zgarishlar va ularning sabablarini tavsiflab beruvchi qonundir

**Kuzatish** - psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, planli, biror maqsad asosida o'rganish

**Akseleratsiya** - bolalar va o'smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo'y nisbati va jinsiy ontogenetikning tezlanishi, jadallahishi

**Yosh** - individning ma'lum aniq vaqtida belgilangan psixik ontogenetikning bosqichi. Ushbu bosqichda uning shaxs sifatidagi psixologik va psixologik o'zgarishlari kuzatiladi Yosh davri inqirozlari. Yosh davri inqirozlari-o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenetik davrlari bo'lib, bu vaqtida keskin psixik o'zgarishlar ro'y beradi. Nevrotik va trivmatik tanozillari normativ jarayon bo'lib, u shaxs rivojlanishida albatta yuz beradi **Longityud tadqiqot** - tekshirilvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish. Longityud tadqiqot odamdagagi individual va yosh davrlardagi o'zgarishlarni qayd qiladi

**Ontogenetik** - organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan to'xirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui

**Anglash** – psixik mazmunni ongsizlikdan aktiv belgi shakliga ko'chirishdan iborat psixik jarayoni bo'lib, bu mazmunni boshqa kishilarga yetkazib berish imkonini beradi. Anglamoq o'ziga xabar bermoq, o'z tajribasi hisiyoti, ehtiyoji, qiziqishi va boshqalar to'g'risida o'ziga tushuntirish demakdir. Anglash demak nimadir to'g'risida o'z-o'ziga hisob berishdir. Sub'ektiv holda u yoki bu vaziyat, kechinma va boshqalarni aniq-ravshan va nazorat qilinadigan inkosidir.

**Amaliy psixologiya** – ijtimoiy amaliyotning turli sohalaridagi amaliy vazifalarni hal qilishda foydalaniladigan amaliy bilimlar va texnologiyalar majmuasidir. Amaliy psixologiyaning muhim xususiyati shundaki, u yoki bu vazifalar ularning

## Umumiy psixologiya

---

manfaatlari uchun hal etilayotgan iste'molchi yoki buyurtmachini hamisha ko'rsatish mumkin.

**Aql** – insonning ma'naviy va ruhiy faoliyatida barcha oliy narsalar xodisalarni qanday bo'lsa, aynan shunday xolda bilish qobiliyati, mavxum fikrlash va tushunchalar yaratish xususiyati.

**Ahloq** – ijtimoiy ong shaqllaridan biridir. Kishilarning tarixan tarkib topgan hulq – atvori, yurish – turish, ijtimoiy va shaxsiy xayotga o'zaro, shuningdek jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror muayyan norma va qoidalar yig'indisi.

**Attraksiya** – (lotincha so'z – attrahere – yoqtirish, o'ziga jalb etish) – bu bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqishi va yoqtirish, o'zaro mobillikni tushuntiruvchi emotsional hisdir.

**Aloqa** – makon yo vaqtda bir – biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yo ob'ektning o'zaro bog'lanish hodisasi.

**Anglash** – psixik mazmunni ongsizlikdan aktiv belgi shaqliga ko'chirishdan iborat psixik jarayon bo'lib, bu mazmunni boshqa kishilarga yetkazib berish imkonini beradi. Anglamoq o'zicha xabar bermoq, o'z tajribasi xissiyoti, extiyoji, qiziqishi va boshqalar to'g'risida tushuntirish demakdir. Anglash demoq nimalar to'g'risida o'z – o'ziga xisob berishdir. Sub'ektiv xolda u yoki bk vaziyat, kechikma va boshqalarni ochiq – ravshan va nazorat qilinadigan inkosidir.

**Bilish** – olamning inson ongidagi in'ikos etish jarayoni. Inson o'zini qamrab olgan atrof – muhit to'g'risida bilish va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug'ullana olmaydi. Bilishning maxsuli natijasi bilim bo'lib, har qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro'y beradi.

**Vijdon** – ijtimoiy xodisa bo'lib, kishining xayotida sodir bo'layotgan ijobiy va salbiy xodisalarga munosabatida ifodalanadi. Vijdon kishining ma'naviy yetukligiga bog'liq.

**Guruhlarning tuzilishi** – guruh qismlarining kichik guruhlarga nisbatan barqaror bo'linishi, guruhga kiruvchi kishilar o'rtaida guruh vazifalarining taqsim qilinishi.

**Gallyusinatsiyalar** – (lot. hallucinatio – alahsirash, ko'zga ko'rinish) insonda kasal paytidagi psixikasiga ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladigan mavjud bo'limgan, fantastik, xayoliy, uydurma obrazlar.

**Guruh dinamikasi** (grekcha dynamis – kuch) – bu guruhning o'z holatini o'zgartiradigan, rivojlantiradigan yoki buzadigan kuchlarning hamkorlikdagi jarayonidir. U asosan ikki xil yo'nalishdagi jarayonlarda ko'zga tashlanadi: guruh a'zolarining birlashuvi va aksincha, keskinlashuvi.

**Guruh munosabatlari** – a) guruh faoliyatining harakteri va mazmuni; b) guruhning umuman strukturadagi o'rni, qadriyatli birligi va boshqa harakteristikasi; v) guruh a'zolarining sotsial individ sifatidagi o'zaro shaxsiy munosabatlari; g) bu munosabatlarga jalb qilingan kishilarning individual pozitsiyalariga ko'ra guruhda uning a'zolari o'rtaida qaror topadigan munosabatlardir.

**Guruh roli (o'rni)** – guruh uchun bajaradigan vazifasiga ko'ra insonning shu guruhdagi barqaror, mustahkam holati (o'rni, pozitsiyasi).

## Umumiy psixologiya

---

**Guruh** – umumiy bo‘lgan bir yoki bir necha belgilarga ko‘ra birlashgan kishilar yig‘indisidir.

**Guruhning birdamligi** – fikrlar birligi, e’tiqodlar, an’analar birligida, shaxslararo munosabatlar, kayfiyatlarning ijobiy harakterida va guruh psixikasining boshqa belgilarida, shuningdek, hamkorlikdagi amaliy faoliyatning birligida namoyon bo‘ladigan guruh a’zolari birligining psixologik harakteristikasidir.

**Gipoteza** – o‘rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli tahmin tarzidagi bilim shakli.

**Guruhda kuchlarning munosabati** – bu guruhiy jarayonlarni hamda guruh a’zolarining hulq-atvorini nazorat qilish imkoniyatlarining guruh ob’ektlari o‘rtasida taqsimlanishidir. Liderlik tushunchasida, guruh dinamikasi va sh.k. larda namoyon bo‘ladi.

**Geniy** – bu yangiliklarni yaratuvchi va kashf qiluvchi shaxs.

**Dunyo obrazi** – insonga dunyoda harakatlana olish uchun mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladigan olam to‘g‘risidagi, boshqa kishilar, o‘zi va o‘z faoliyati to‘g‘risidagi bir butun, yaxlit ko‘p darajali tasavvurlari tizimidir. Bu sub’ektiv kechinmalar tilida yaratilgan tashqi dunyoning ichki modelidir. Ta’kidlash lozimki, bu olamni idrok qilish natijasida hosil bo‘lgan, ichki rejaga noavtomatik tarzda ko‘chirilgan obrazlar emas, balki hayotiy faollikning har biri keyingi momentidagi hodisalarni bashorat qila oladigan, chuqur anglanmagan taxminlar asosida aktiv qurilgan tizimdir. O‘zini va tashqi olamni faol o‘zlashtirish davomidagi tekshirish usullari bilan (sinov va xatolar) yaratiladi.

**Diqqat** – ongning muayyan ob’ektlar to‘plami, jarayonlarga (tashqi yoki psixikaga bog‘liq) tanlangan holda yo‘naltirilishidir. Ba’zan nazorat va o‘z-o‘zini nazoratni ham diqqatga kiritishadi.

**Dunyoqarash** – tartibga solingan, aqliy ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalilar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda munosib o‘rin egallashga chorlaydi.

**Dil** – jon, qalb, yurak, ko‘ngil markaziy osiyo falsafiy tafakkurida ushbu tushunchalar deyarli bir xil ma’noda ifodalanib borliqning nomoddiy asosida hamda insonning tub mohiyatini ifodalash uchun xizmat qilib kelgan.

**Deviant xulq** – atvor – ijtimoiy deviantlikni kiritib chiqaruvchi

**Dadillik** – kishining xayot va omonligi uchun omon bo‘lgan kishilarni yengishda ko‘rinadigan iroda kuchidir.

**Do‘stlik** – o‘zaro bir-birini tushunuvchi 2 inson o‘rtasida yuzaga keluvchi emotsiyal ijobiy xisdir. Odatda bir jins vakillari orasida yuzaga keladi.

**Jamiyat** – tabiatning bir qismi, borliqning aloxida shaqlini ifodalaydigan falsafiy tushuncha odamlar uyushmasining maxsus shakli kishilar o‘rtasida amal qiladigan ko‘plab munosabatlar majmuasidir.

**Individ** – odamzodning vakili, o‘ziga xos takrorlanmas xususiyatlar egasi hisoblanish odam.

**Innovatsiya** – ijtimoiy amaliyotda sezilarli o‘zgarishlar tug‘diradigan turli xil yangiliklar yaratish va tadbiq etish.

**Idrok** – sub'ekt tomonidan uning ongiga nisbatan tashqi dunyodan ajratib olinadigan ba'zi butunlik va yaxlitliklarning bilish jarayoni va harakatlari davomida ongda aks ettirilishidir (bunga boshqa kishilar va inson o'z tanasini aks ettirish ham kiradi). Aytaylik, insonning o'z tanasining sog'ligi yoki nosog'lomligi to'g'risidagi ichki a'zolardan kelayotgan signal natijasida shakllanadigan obrazni idrok etish ham, etmaslik ham mumkin. Ko'pincha esa idrok deganda tabiiy va sotsial dunyodagi predmetlarni in'ikos ettirish tushuniladi. Ob'ekt bo'lsa tashqi muhitda tayyor holda bo'ladi-yu, u insonga ta'sir qiladi va natijada u inson tomonidan avtomatik tarzda aks ettiriladi, anglanadi, desak, unchalik to'g'ri emas. Aksincha, inson tartibsiz holdagi kechinma va tasavvurlar orasidan ba'zi ob'ektlarni ajratib oladi va bu bilan go'yoki ushbu tartibsizliklarni tartibga keltiradi. Inson sezgi a'zolariga ta'sir qilish uchun biron narsa idrok etildi, anglandi deyishga hali erta. Predmet yoki predmet emas deb hisoblash insonning o'ziga bog'liq: kim uchundir tashqi muhitda musiqaviy ovoz va shovqinlar, ularda uyg'unlashmaganlik (dissonans) va uyg'unlik (konsonaj); kimgadir esa mashinaning ishlashidan darak beruvchi shovqin yoki hayvonlar tomonidan chiqarilayotgan ovozlar, kim uchundir suhbatdoshning nutqidagi mantiqiy urg'u berishlar, kimgadir turar joylarni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz rejalashtirish va boshqalar. Kimlar uchundir esa, agar u bunday narsalarni bilmasa, ular go'yoki yo'qdek «zo'r berib eshitmaslik va ko'rmaslik» payida bo'ladi.

**Iroda** – insonning o'z psixikasi va hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara olishida namoyon bo'ladigan xususiyati (holati) dir. Iroda ongli tarzda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi yo'lida ro'y beradigan to'siqlarni yengib o'tish davomida namoyon bo'ladi. Uni o'z-o'zini zo'rlab qiyash bilan tenglashtirmaslik kerak. Iroda hamma vaqt ham o'z-o'zini majburlash bilan bog'liq emas. Bu baribir o'z maqsadiga erishishi yo'lida ishonch, kelishish, ayyorlik, o'rgatish, o'z xususiyatlaridan mohirona foydalanish (odatlar, standart reaksiyalar, zaifliklardan) bo'lishi mumkin.

**Ijtimoiy norma** – shaxs xaytida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq – atvoriga nasbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talabi.

**Ijtimoiy sanksiya** – normalarning shaxs xulqida nomoyon bo'lishni nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmi.

**Iste'dod nishonalari** – qobiliyatni o'stirishning tabiiy zaminlari (ularning biologik asosi). Ular tug'ma yoki egallangan bo'lishi mumkin. Ularni ro'yobga chiqmagan qobiliyatlardan ham farqlash lozim. Farq shundaki, iste'dod nishonalari inson xususiyatlari va fazilatlaridagi shunday biologik jihatlarki, ular keyinchalik u yoki bu qobiliyatga uning komponenti bo'lib qo'shiladi. Bir xil biologik jihat bir qancha qobiliyatlar tarkibiga kirishi mumkin va shunday tarkibda iste'dod nishonalari rolini bajara oladi.

**Individuallik** – insonning individ, faoliyat sub'ekti va shaxs sifatidagi betakror xususiyatlari tizimidir. Individuallikning mavjud bo'lishi insonning ta'lim, tarbiya, u bilan faol munosabatidagi individual yondashuvining asosi hisoblanadi. «Har bir kishigacha yetib borish» – bunday yondashuvning idealidir. Individuallikni inkor

## Umumiy psixologiya

---

etish (nodonlik, ishonch yoki kam anglangan harakat tufayli, masalan, texnik yoki umumilmiy g'oyalarning oddiy formulalariga sig'inish oqbatida) zaruriy tarzda bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi (shaxslararo va shaxslar ichidagi keskinlik, ixtiolar, ruhiy jarohatlar, nizolar ishtirok etganlarning asabiy holatlari va ta'lim, tarbiya, mehnatdagi past samaradorlik natijalari sifatida).

**Intellekt, aql** – inson hayoti davomida bilish faolligiga tegishli bo'lgan barqaror o'ziga xos va rivojlanib boruvchi xususiyatlar va sifatlar tizimi, uning ichki va tashqi hayotiy holatlar, jumladan, ijtimoiy muhitida ham oqilona mo'ljal ola bilishdir. Odatda sub'ektning faoliyat sohasiga bog'liq holda sotsial intellekt, texnik intellekt, gumanitar intellekt, verbal, ya'ni og'zaki, noverbal intellektlarni farqlashadi.

**Ilmiy psixologiya** – inson va hayvon psixikasi taraqqiyoti, paydo bo'lish va mavjud bo'lishi qonuniyatlarini aniqlashda foydalilaniladigan texnologiya va murakkab tarmoqlangan belgilar tizimidir. Ilmiy psixologiyaning asosiy vazifasi – yangilikni aniqlash emas, balki bir tomonidan ishonarli bilimlari egallash, boshqa tomonidan esa, qaysi o'rinda ular ishonarli, qay holda esa yolg'on va noaniq ekanligini ayniqlashdan iboratdir.

**Ijtimoiy faoliyat** – shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy xodisalarni, ob'ektlarni, ijtimoiy guruxlarga ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruxiy ichki hozirlilik sifatida odamlardagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriya.

**Inson** – tushunchasiga aniq ta'srif berish uchun olamda mavjud bo'lgan boshqa biologik mavjudodlardagi ajralib turuvchi eng muxim xususiyatlarni aniqlash zarur.

**Insonporvarlik** – gumanizm odamlarga mehr – muxabbat bilan qarash, ularni surmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilardayuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish g'oyalari bilan sug'orilgan dunyoqarash.

**Insaf** – insonning muayyan jamiyatda amal qilayotgan axloq me'yorini nazorat qilish va axloqiy baholash.

**Ideal** – orzu, intilishning oliy maqsadi. Tor ma'noda: shaxs qobiliyatlarini ifodalovchi namuna.

**Illyuziya** – tana azolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri (noadekvat) idrok qilishdan iborat bilish jarayonining hodisi.

**Insayt** – oydinlashuv. Muammoning yechimi, ba'zan birdan yorqin yo`lduzday yalt etib paydo bo'ladi. Bunday psixologik xolat psixologiyada insay – oydinlashuv deyiladi.

**Ijtimoiylashuv** – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va xayot faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni.

**Konformizm** – (lot. conformis – o'hshash, mos keladigan) – inson tomonidan o'zining haqligiga ichidan shubhalanmaydigan fikridan nosamimiy ravishda qaytish tufayli boshqalarning fikrlarini (ehtimol, noto'g'ri bo'lsa ham) tanqidsiz qabul qilish.

**Kundalik ong** – kishilarning bevosita kundalik tajribasiga asoslanadigan va ular mansub bo'lgan sotsial jamoalarda hukmronlik qiluvchi tasavvurlar, bilimlar, tushunchalar va harakatlarning yig'indisidir.

## Umumiy psixologiya

---

**Kayfiyat** – insonning psixik hayotida namoyon bo‘ladigan, o‘rtamiyona yoki zaif samaradorlikning nisbatan davomiy, barqaror, emotsiyonal holati bo‘lib, u yoki bu hissiyotning ustunligi bilan harakterlanadi.

**Kichik guruh** – umumiy ishni bajaradigan va bir-birlari bilan bevosita shaxsiy aloqada bo‘lgan, 3 tadan 20-30 tagacha kishidan tarkib topgan, unchalik katta bo‘limgan kishilar to‘plamidir. U guruh a’zolarining hamdard bo‘lishi, «biz» ekanligini his etishi bilan bog‘liq xususiyatlarga ega.

**Liderlik** – guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida hukmronlik va bo‘ysunuvchanlik, hokimlik va qaramlik munosabatlaridir.

**Malaka** – faoliyatning avtomatlashtirilgan ko‘nikmasi, mustahkam mahoratidir. Boshda ongi nazorat qilinadigan va bir me’yordagi harakat bo‘lgan narsa har bir kishiga turmush tajribasiga ko‘ra avtomatlashtirishi mumkin. Ko‘nikmalar faqat oson payqash mumkin bo‘lgan harakatchan bo‘lmaydi, balki fikrlovchi, sotsial-kirishuvchan, tashkilotchi va boshqacha ham bo‘ladi. Avtomatizmdan iborat bo‘lgani holda ko‘nikmalar ayni paytda ishda ijodning zaruriy sharti hisoblanadi (bunga tushunarli misol quyidagicha: shu sozanda o‘z asbobida musiqa chalishning zarur texnikasi, ko‘nikmasini hosil qilgunga qadar u ijodkor bo‘la olmaydi, chunki u hali «musiqiy» asboblar klavishalarini, pozitsiyalar va b. ni chalkashtirib qo‘yishdan qo‘rqadi).

**Muloqotdagи konstruktivlik** – hamkorlarning aloqasi davomida ularning ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydigan, birgalikda hal qilinayotgan masalalarning ijobjiy yechim topishiga yordam beradigan, ularning individual betakrorligini saqlab qoladigan muloqotdir. Muloqotdagи konstruktivlik (yaratuvchanlik) tushunchasi kishilarning muloqot davomida o‘z salohiyatini o‘sirish, shaxsiy o’sishi, sotsial yetuklikning shaqllanishi tomon harakatlanishi yo‘nalishini ko‘rsatadi.

**Munosabatning o‘zgarishi (deformatsiya)** – bu munosabatlardagi shunday o‘zgarishlarki (buzilish, qiyinchiliklar, yanglishishlar), ular munosabatdagи samaradorlikning pasayishi yoki buzilishiga, hamkorliklarning sog‘lig‘iga, ularning obro‘siga yoki ruhiy osoyishtaligiga, moddiy qadriyatlariga va boshqalarga putur yetkazadi. O‘zgarishlarni ularning turiga qarab turlicha tushunish mumkin: masalan: “mening ustidan kulishayotgani uchun bizning begona ekanligimizni, bizning do‘st emasligimiz, bir-birimizni tushuna olmasligimizni, meni masxara qilishayotganligi va ko‘plab boshqa narsalarni anglay boshladim”.

**Mazmun** – bevosita hissiy kechinmalar davomida yoki ongda aks etuvchi qandaydir ob‘ekt o‘rtasidagi munosabatni xira bo‘lsada anglash va sub‘ekt hohishlariga ko‘ra paydo bo‘ladigan psixik yaxlitlikdir. Bir narsa men uchun kerak, ehtiyoji bor, boshqasi esa – yo‘q, kerakmasligini e’tiborga olib, aytishadiki, «bu men uchun mazmunga ega» yoki «buning men uchun mazmuni yo‘q» tashqaridan qaraganda bir narsa bo‘lib tuyulgan yumush (o‘ra qazish) yollangan yer qazuvchi uchun daromad qilish mazmuniga ega, arxeolog uchun qandaydir buyuk tarixiy muammoni yechish, tasodifiy yo‘lovchi uchun esa piyodalar yo‘lining buzilayotganligi unga qandaydir buzg‘unchilik mazmuniga ega bo‘lib tuyuladi.

## Umumiy psixologiya

---

**Me'yor** – ob'ektning sifat va miqdoriy jixatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmun va shakl imkoniyat va voqeilik o'rtaсидаги zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha.

**Moslik** – kishilardan harakat qilish kelishuvini va yaxshi o'zaro bir-birini tushunishini talab qiladigan birgalikda ishlash, vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyati.

**Motivatsiya** – inson hulq – atvori, uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

**Mentalitet** – individ yoki ijtimoiy guruxning millatning o'ziga xos tafakkur tarzi, voqelikni ma'lum bir tarzda tushunishi va va birlikda harakat qilishga tayyorligi va moyilligi.

**Motiv** – shaxsdagi u yoki bu xulq – atvorga nisbatan turgan moyillik.

**Mardlik** – o'zini puxta bilish dadillik, qat'iatlik, chidam va toqat paytlarida namoyon bo'ladigan kuchli iroda.

**Nutq** – ovoz berilgan til, u yoki bu til belgilarini anglatuvchi ovoz signallarining inson tomonidan qo'llaniladigan tizimidir.

**Ong** – hayvonlar psixikasidan farqli ravishda butun inson psixikasini ifodalashda foydalilanadigan termin. Inson psixikasi (ong) belgililik (ong «hujayrasi» belgilarning murakkab tizimini hosil qiladi), qurollilik (istagan ong birligi predmetlar dunyosini aks ettirish vositasi sifatida foydalilanadi), predmetlilik (tashqi dunyo elementlari bilan mutanosibligi va qat'iy uyushganlik (belgilar va qurollar tizimi ko'plab o'zaro mutanosib kategoriyalarni vujudga keltiradi) xususiyatlari bilan harakterlanadi.

**Ongsizlik** – anglab bo'lmaydigan aniq, ravshan anglash nazorati uchun predmet bo'la olmaydigan ko'plab psixik hodisalar to'plami. Ongda har bir daqiqada bir vaqtning o'zida cheklangan miqdordagi tasavvurlar bo'lishi mumkin (o'rtacha taxmin qilishlaricha 7+2). Bunda ushbu damdag'i anglanmagan tasavvurlarni biz aniq ong zonasiga oson «chaqirishimiz» mumkin («hohlaganing uchun eslading»), lekin juda ko'plab psixik boshqarib turuvchilar (regulyatorlar) shunday ishlaydiki, bunda inson na faqat o'z-o'ziga hisob bermasligi mumkin, balki buni u hattoki hohlagan taqdirda ham uni qila olmaydi. Masalan, soatning aylana shaqlidagi siferblatini idrok qilayotganda bizning ko'z qobig'imizda aylana emas, balki ellips (agar soatga yondan qarasak) hosil bo'lishi mumkin, biroq soat qanday holda tursa ham biz siferblatni «aylana» sifatida idrok qilamiz. Na faqat sub'ekt idroki tomonidan angvana olmaydigan, balki psixologiyada yangi shug'ullanayotgan kishi uchun ham tushunarsiz bo'lgan bu geometrik ma'nodagi hol psixika mexanizmlari tufayli ro'y beradi (qarang: doimiylik idrok xossasi sifatida) hissiyotlarning ba'zi qismlari («yaxshi», «madaniyatlilik» bilan sig'isha olmaydiganlarini) ongdan siqib chiqariladi, lekin Z.Freyd ta'limotiga ko'ra, ular hatti-harakatni sezilarli holda boshqarishda davom etaveradi va hattoki ichki ziddiyatlarga va asab kasallariklarini ham keltirib chiqaradi. Psixoanalizning (bu termin freydizm tomonidan mustahkam o'rnashib qolgan, shuning uchun har qanday psixika tahlilini (analizini) psixoanaliz deb atamaslik kerak) psixoterapevtik amaliyoti shunga asoslanganki, siqib chiqarilgan hissiyotlarni topib anglash predmetiga aylantirish lozim. Bu

## Umumiy psixologiya

psixoanalitikdan juda katta va o'tkir mahoratni talab qiladi (o'zini shunday deb hisolaydiganning ko'pchiligi, afsuski, nafaqa bu borada malakasiz, balki manfaatparast hamdir).

**Orzular** – insonning kelajak to‘g‘risidagi, xayoliga kelgan va u uchun muhimroq ehtiyojlar va qiziqishlarni ro‘yobga chiqarish borasidagi rejalaridir.

**Optatsiya** – (lotincha so‘z – optatio – xoxish, tanlov) tanlov bosqichi. Odam tomonidan professional taraqqiyotning bosqichi tanlanishidir deb e’tirof etiladi. 11-12 yoshlar, 14-18 yosh davrlarni o‘z ichiga oladi.

**Optimizm** – kechayotgan voqeа va xodisalar jarayoniga nisbatan bildirilgan ikki xil qarama – qarshi fikrlar yoki munosabatlarni yaxshilikka yo‘yish.

**Panelog** – gurux ichidagi munozaradir.

**Psixodiagnostika** – (grekcha psyche – ruh va diagnostikos – bilishga qodir) – psixologik fan sohasi bo‘lib, shaxsning individual – psixik xususiyatlarini o‘lchash va aniqlash usullarini ishlab chiqadi.

**Psixoterapiya** – (grekcha therapeia – parvarish qilish, davolash) – ko‘plab psixik, asabiy va psixosomatik xafagarchiliklarda inson hissiyoti, fikrlari, o‘z-o‘zini anglashiga kompleks davolovchi ta’sirdir (asosan nutq yordamida, biroq faqat uning yordamida emas). Shartli ravishda asosan mavjud alomatlarni yo‘qotish yoki yumshatishga qaratilgan klinik maqsadli psixoterapiya va insonga uning sotsial muhiti va o‘z shaxsiga nisbatan munosabatini o‘zgartirishga yordam berishni vazifa qilib olgan shaxsiy maqsadli psixoterapiya mavjudligi e’tirof qilinadi.

**Psixo -analiz** – ruhiy xastalikni davolash usuli va psixologik ta’limot.

**Psixotexnika** – (grekcha techne – san’at, mahorat) – psixik jarayonlarni sodir bo‘lish harakteristikasini yaxshilash, mavjud psixik qobiliyatlarini o‘sirish va yangilarini shaqlantirishda qo’llaniladigan konkret metodik usullar yoki usullar tizimidir.

## VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### **FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.M. Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

## Umumiy psixologiya

2. Sh. M. Mirziyoev 7 fevral 2017 yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmonni  
4. Sh.M. Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008-176 bet. 6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iktisodiy inkirozi, Uzbekistan sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralar. - T.: 2009 y. 56 bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 15 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo’shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 32-son Qarori  
**Asosiy adabiyotlar**

1. Gapparov Z. G. Sportivnaya psixologiya: Uchebnik-T. Mehridaryo. 2010.-312 s

2. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. Darslik. – T.: O‘zMU nashriyoti, 2002.

3. G‘oziev E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): Ped.institutlari va universitetlari uchun o‘quv qo’llanma. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 224 b.

10. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi: O‘quv qo’llanma. – T.: «Universitet», 2001. – 139 b.

4. Davletshin M.G. «Psixologiya tarixi» dastur. T.-1996y.

5. Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun darslik. / P.I. Ivanov, M.Ye.Zufarova; Mas’ul muharrir D.M. Mirzajonova; O‘zROO‘MTV. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 480 b.

6. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo’llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O‘zAJBNT» markazi, 2002. – 205 b.

## Qo’shimcha adabiyotlar

1. Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oliv o‘quv yurtlari uchun DARSLIK. – T.: TDIU «Talaba», 2007. – 308 b.

2. Maklakov A.G. ObЩaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. – SPb.: Piter, 2008. – 583 s.

3. Munnavarov.A.Q. Pedagogika. - T.: O‘qituvchi, 1996.-200 b.

4. Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik. – M.: Vys. obraz. 2008. – 639 s.

5. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. O‘quv qo’llanma. Tafakkur-bo‘stoni. 2011. 191 b.

6. Nishanova Z.T. «Psixologiya tarixi» T-2002y.

7. Petrovskiy A.V. «Umumiy psixologiya» Toshkent, O‘qituvchi, 1992 y

8. Saydahmedov N., S. Abdurahimov. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Toshkent, 2010

## Umumiy psixologiya

---

9. Salamov R. S. Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. T. O'zDJTI, 2005.-238 s.
10. Salamov R. S., Kerimov F. A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. -T. O'zDJTI nashriyot-matbaa. 2009. 126 b.
11. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T: ITA PRESS, 2014. 295 b.
12. Usmonxo'jaev T.S., Abdullaev Sh.A., Salaev A.A., Abdullakimova Ye.N. Bolalar va o'smirlar sporti asoslari. O'quv qo'llanma. -T. O'zDJTI 2014. 188 b.
13. Usmonxo'jaev T.S., va b. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoi. O'quv qo'llanma. -T. O'qituvchi 2008. 165 b
14. Hayitov O.E. Psixodiagnostika: O'quv qo'llanma. – T.: TDIU «Talaba», 2007. – 225 b.
15. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika: darslik / N.Egamberdieva. – T.: A.Navoiy nomidagi O'zMK nashriyoti, 2009. – 232 b..

### Internet saytlari

1. [www.minsport.uz](http://www.minsport.uz)
2. www.uzedu.uz
3. [www.ictcouncil.gov.uz](http://www.ictcouncil.gov.uz).
4. [www.uz-djti.uz](http://www.uz-djti.uz)
5. [www.sportedu.uz](http://www.sportedu.uz)